

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/10.12.2019. I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.2:6 II 2.15.7:338(575.1)**

RAXMANOV LAZIZ ERKABAEVICH

**XUFYONA IQTISODIYOTNI ULUSHINI KAMAYTIRISHDA SOLIQ
INSTRUMENTLARDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun tayyorlangan**

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: Xudoyqulov Sadirdin Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

Toshkent shahri – 2024 yil

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI.....	12
1.1-§. Soliq instrumentlar orqali xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishning nazariy asoslari.....	12
1.2-§. Xufyona iqtisodiyot va uni qisqartirishning ilmiy tadqiqotlardagi talqinining ilmiy tahlili.....	26
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	40
II BOB. SOLIQ TIZIMI ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH HOLATINING TAHLILI.....	42
2.1-§. Xufyona iqtisodiyotni baholashning uslubiyoti va uning soliq tizimida qo'llanilishi.....	42
2.2-§. Soliq tizimida soliq bazasi orqali xufyona iqtisodiyotni aniqlash va uni qisqartirish amaliyotining tahlili.....	57
2.3-§. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali xufyona iqtisodiyotni qisqartirish amaliyoti tahlili.....	74
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	95
III BOB. SOLIQ TIZIMI ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH VA UNING OLDINI OLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
3.1-§. Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq tizimidan samarali foydalanihning xorij tajribasi.....	98
3.2-§. O'zbekistonda soliq instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotning qisqartirish yo'nalishlari.....	109
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	122
XULOSA	125
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	128

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Keyingi yillarda jahonda xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va uning oldini olishda soliq tizimidan samarali foydalanish masalalarining soliq siyosati ustuvor yo‘nalishi sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda. Xufyona iqtisodiyotning salbiy ta’sirlari oqibatida soliq tushumlarining hajmi sezilarli kamayishi holatlari namoyon bo‘lmoqda. BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi hisob-kitoblariga ko‘ra, “rivojlanayotgan mamlakatlar yiliga 100 milliard AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy resurslarni “foydani o‘tkazish” amaliyoti tarzida noqonuniy tarzda boshqa hududlarga o‘tkazib, milliy iqtisodiyot doirasida soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqarmoqda. Natijada budjetdagagi yillik yo‘qotishlar o‘rtacha 250-300 milliard AQSh dollarini tashkil etmoqda”. Shu jihatdan ham jahonda xufyona iqtisodiyotni ulushini kamaytirishda soliq instrumentlardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat namoyon etmoqda.

Jahonda global integratsiya jarayonlarining kuchayishi sharotida xufyona iqtisodiyotning ulushini kamaytirishda soliq instrumentlardan samarali foydalanish masalalariga bag‘ishlangan izlanishlar olib borilmoqda. Xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, uni jilovlash va oldini olishda soliq instrumentlarining samaradorligini baholash, bu boradagi yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, noqonuniy moliyaviy oqimlarni kamaytirish, xufyona iqtisodiyotni jilovlash va uning oldini olishda soliq instrumentlaridan foydalanish uslubiyotini takomillashtirish kabilar mazkur muammo yechimiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning hissasini kamaytirish, uning oldini olishda boshqa instrumentlar singari, soliqlardan samarali foydalanish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. BMTning texnik hamkorlik ma’lumotlariga ko‘ra, “butun dunyo mamlakatlarida soliq risklarini boshqarish tizimi bo‘yicha O‘zbekistonda 2022-yilda taxminan 500 ming nafar soliq to‘lovchidan taxminan 478 ming nafari past xavf, 10 ming nafari o‘rtacha va atigi

648 nafari yuqori xavf darajasiga ega bo‘lib, yuqori soliq xavfiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchilarning xufyona iqtisodiyotga bog‘liqligi kuchliligidan dalolat beradi”. Shunga ko‘ra, keyingi yillarda soliqlarning nazorati yanada erkinlashtirildi, soliq stavklari, ayniqsa, qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi, mol-mulk solig‘i stavkasi sezirali darajada kamaytirildi, insofli soliq to‘lovchilarni qo‘llab-quvvatlashga oid choralar oshirilmoqda. Shunga qaramasdan milliy iqtisodiyotda xufyona iqtisodiyotning salmog‘i yuqorida darajada saqlanib qolinmoqda. Bunda boshqa omillar qatori soliq instrumentlaridan samarali foyladalanishni taqozo etib, ushbu masalalarga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida», 2018-yil 23-maydaggi PF-5446-son «Budget mablag‘laridan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2017-yil 18-iyuldaggi PF-5116-son «Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son «Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda

madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xufyona iqtisodiyotning mohiyati va uni qisqartirish hamda oldini olishda soliq instrumentlaridan samarali foydalanish masalalari bilan xorijlik olimlardan E.Fayg, E.Soto, N.Spenser, T.Lukman, T.Jonson, K.Kotte, A.Goldman, V.Kaufman, MDH olimlaridan esa, Y.Golovanov, N.Cheremisina, Y.Anishenko, N.Yakovleva, S.Echmakov, Y.Izjeurova, A.Ovcharov, K.Zavodilenko, A.Smeganin, S.Jarov, I.Nushtaev¹ kabilar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Xufyona iqtisodiyotning iqtisodiyotga salbiy oqibatlari hamda uni jilovlashda soliq instrumentlaridan foydalanish masalalari bilan bog'liq tadqiqotlarni amalga oshirgan mahalliy olimlar jumlasiga: H.Abulqosimov,

¹ Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: неоинституциональный подход. – М.: РТТУ,2000. – С.147-148, Spencer H. Principles of sociology. Hamden, 1969., Schutz A., Luckman T. The Structures of the Life,World. Evanston, 1973., Johnson, S., Kaufmann, D., Shleifer, A., Goldman, M.I. & Weitzman, M.L. (1997). The unofficial economy in transition. Brookings papers on economic activity 1997(2)., Kottke K. «Gryaznye» den'gi – chto ehto takoe? Spravochnik po nalogovomu zakonodatel'stvu v oblasti «gryaznyh» deneg. М., 1998, Голованов Е.Б. Теневая экономика. Конспект лекции.-Челябинск, 2015.-С.20-29; Наумов Ю.Г., Латов Ю.В. Экономическая безопасность и теневая экономика. Учебник. М.: Академия управления МВД России, 2016. – С.58-67; Овсянникова И.П. Теневая экономика: учеб. пособие/И.П.Овсянникова; ФГБОУ ВО РГУПС.-Ростов н/Д, 2015.-С.80-97, Н.В.Черемисина. Методологические аспекты определения теневой экономики. Экономика и управление. № 1 (27) 2007. с. 30., Анищенко Евгений Владимирович. Денежное обращение и его влияние на теневую экономику в Российской Федерации. Специальности: 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит; 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (экономическая безопасность) автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2008. стр. 31.,¹ Яковлева Наталья Александровна. Финансовые методы противодействия теневому сектору экономики. 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Москва 2005. с. 14., Ечмаков Сергей Михайлович. Генезис теневых экономических отношений: анализ и моделирование. Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Тамбов. 2005 с. 64., Изжеурова Екатерина Александровна. Институциональные проблемы развития теневой экономики. Специальность 08 00 01 - Экономическая теория. Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Самара 2007, с. 9., Изжеурова Екатерина Александровна. Институциональные проблемы развития теневой экономики. Специальность 08 00 01 - Экономическая теория. Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Самара 2007, с. 19., Овчаров Андрей Сергеевич. Коррупция в системе теневы x экономических отношений Специальность 08.00.01 - экономическая теория. Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Волгоград 2003, с.24., Заводиленко Константин Анатольевич. Ликвидация теневой экономики как направление обеспечения экономической безопасности России. Специальность 08.00.05 - экономика и управление народным хозяйством (экономическая безопасность). Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва 2009. с 22., Смеганин Андрей Юрьевич. Механизмы государственного противодействия теневой экономике экономическая безопасность России. Специальность 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (экономическая безопасность). Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2007. с 21.,¹ Жаров Сергей Львович. Методология анализа и оценки теневого сектора в экономике переходного периода Специальность 08.00.01 - Экономическая теория. Афтореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Петрозаводск, 2005. с 27., Нуштаев Иван Васильевич. Организационно-экономический инструментарий противодействия теневой экономике и коррупции. Специальность 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (12. Экономическая безопасность). Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Тамбов – 2012. с.22.

B.Turdiev, I.Abduraxmonov, K.Mambetjanov, N.Muminov, M.Qurbanboev, R.Ergashev, U.Abdug‘aniev, F.Axmedovlarni kiritish mumkin². Ushbu olimlarning ilmiy tadqiqotlarida garchi xufyona iqtisodiyotning mohiyati va unda soliq tizimi orqali uni jilovlashning ayrim jihatlari yoritilgan. Jumladan, R.Ergashevning ilmiy tadqiqotlaridan norasmiy iqtisodiyotni jilovlashda soliq tizimining ahamiyatini bilan bog‘liq jihatlar yoritilgan bo‘lsa, U.Abdug‘aniev makroiqtisodiy holatda xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelishi va undan soliq tizimidan foydalanishning ayrim jihatlari ko‘rib chiqilgan, F.Axmedov esa, o‘z ilmiy ishidan soliq to‘lovchilarning soliqdan bo‘yin tovslash holatlari va uning oldini olishda soliq tizimidan foydalanish masalalariga e’tibor qaratgan.

Bugungi kunda esa, xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelish sabablari va uni qisqartirishda hamda oldini olishda soliq instrumentlaridan samarali foydalanish muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudki,biz ushbu ilmiy tadqiqot doirasida ana shu masalalarga kengroq e’tibor qaratamiz.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1 «O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish» mavzusidagi fundamental tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

² Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019.-485-490-бетлар., Б.Турдиев. “Яширин иқтисодиёт”ни қисқартириш ва унга қарши самарали курашиш йўллари. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı. № 3, may-iyun, 2020-yil., Абдурахмонов Иброҳимжон Отажонович. Хуфиёна иқтисодиётнинг юзага келиш сабablari ва унга таъсир этувчи омиллар. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı. № 6, noyabr-dekabr, 2019-yil., К.Мамбетжанов. Теоретические основы методов измерения и функционирования теневой экономики. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2017 йил., Муминов Н.Г. Яширин иқтисодиётнинг моҳияти, сабablari ва оқибатлари: назарий ёндашув. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2016, 8-сон., Максуд Қурбонбоев. Олий Мажлис Қонунчилик палатасидаги Ўзбекистон “Адолат” СДП фракция аъзоси,Бюджет ва иқтисодий ислоҳотлар қўмитаси раиси ўринбосари, <https://kun.uz/25358892..> Эргашев Рустам Ражабович. Солик сиёсатининг норасмий иқтисодиёт қўламини қисқартиришга қаратилган механизmlарини такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент шаҳри – 2022 йил. 30 б., Абдуганиев Учқун Ҳабибулла ўғли. Яширин иқтисодиёт даражасини фискал сиёсат инструментлари ёрдамида пасайтириш йўллари 08.00.07 - Молия, пул муомаласи ва кредит Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати Тошкент – 2023. 59 б., Ахмедов Феруз Баходирович. Солик тўлашдан қочиш хавфларини аниклашда замонавий фискал назорати механизmlарини такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент шаҳри – 2023 йил. 68 б.

Tadqiqotning maqsadi xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va uning oldini olishda soliq instrumentlaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelishi va unga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy nazariy jihatdan olib berish;

xufyona iqtisodiyotni jilovlash va uning oldini olishda soliq instrumentlaridan instrumentlarining ahamiyatini ko'rsatish berish,

xufyona iqtisodiyotni jilovlash va uning oldini olishda soliq instrumentlaridan foydalanish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish va ularga oid mualliflik yondoshuvni shakllantirish;

xufyona iqtisodiyotni jilovlash va uning oldini olishda soliq instrumentlaridan foydalanishning amaliy holatini tahlil qilish va tegishli ilmiy xulosalar chiqarish;

xufyona iqtisodiyotni jilovlash va uning oldini olishda soliq instrumentlaridan foydalanishning xorij tajribasini o'rganish va ularning milliy soliq tizimida qo'llashning yo'nalishlarini ko'rsatib berish;

xufyona iqtisodiyotni jilovlash va uning oldini olishda soliq instrumentlaridan foydalanish jarayonidagi muammolarni ko'rsatish berish va uni kamaytirish va oldini olishda soliq instrumentlaridan foydalanish bilan bog'liq ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston soliq tizimida xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi soliq to'lovchilar hamda bu bilan bog'liq soliq xizmati organlarining faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini soliq tizimida xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi soliq to'lovchilar va ular bilan bog'liq iqtisodiy-huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilimning umumiy usullari: tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy va dinamik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, statistik kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish va guruhlash, umumlashtirish ko'rsatkichlarini hisoblash usullaridan foydalilanigan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qurilish jarayonida bosh pudratchilar tomonidan topshiriladigan elektron hisob-faktura (soliq hisoboti)da qurilish materiallari va jihozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritish, tarmoqda ishchilar soni hisobini yuritish tartibini ishlab chiqish orqali xufyona iqtisodiyotning oldini olish asoslangan;

hayot sug‘urtasiga jismoniy shaxslar tomonidan, shuningdek, xususiy mulk huquqi asosida jismoniy shaxslarga qarashli mol-mulkni yuridik shaxslarga sotishdan olingan daromadlari bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan imtiyozni bekor qilish orqali soliq to‘lovchilarning xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqarish holatlarining oldini olish asoslangan;

soliq organlarining ma’lumotlar bazasiga muqaddam iqtisodiy jinoyatlarga yo‘l qo‘ygan tashkilot ta’sischi va rahbarlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni integratsiya qilgan holda ushbu jismoniy shaxslarni yangidan tashkil etilayotgan sub’ektlarning ta’sischi yoki rahbari bo‘lishiga cheklov qo‘yish taklifi asoslangan;

yuridik shaxslar tomonidan uy-joylar bo‘yicha investitsiya va oldi sotdi shartnomalarini faqat elektron shaklda tuzish va soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini joriy etish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xufyona iqtisodiyot tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan;

real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan kuzatish tizimi (GPS) bilan jihozlangan hamda elektron hisoblagich o‘rnatilgan avtotransport vositalarida tashilayotgan mahsulotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsion platformasi vositasida taqdim etish hamda Davlat soliq qo‘mitasining ma’lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish asosida noqonuniy tashuvlarning oldini olish taklifi asoslangan;

xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi omillar va uni qisqartirishdagi soliq instrumentlarining mohiyati yoritib berilgan;

xufyona iqtisodiyotni baholashning uslubiyoti va uning soliq tizimida qo‘llanilishi ko‘rsatib berilgan;

soliq tizimining instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotning oldini olish va uning hajmini qisqartirish yo‘nalishlari yoritib berilgan;

qurilish korxonalarida QQS bo‘yicha soliq bazasini yashirishda qo‘llanilayotgan sxemalari ko‘rsatib berilgan;

O‘zbekiston soliq tizimida xufyona iqtisodiyotni kamaytirishdagi nazorat mexanizmlari bilan bog‘liq muammolar yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan;

norasmiy mehnat munosabatlarini qisqartirish imkoniyatiga ega bo‘lgan platforma ishlab chiqish asoslangan va uning komponentlari ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishini tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Bojxona qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy xulosa va takliflardan respublikada yashirin iqtisodiyotni kamaytirish, uning oldini olishda soliq instrumentlaridan samarali foydalanishga oid maxsus ilmiy-tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy asoslarini kengaytirishda, ilmiy-o‘quv adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilmiy tadqiqot doirasida olingan ilmiy xulosalar va ilmiy-amaliy takliflardan respublikada yashirin iqtisodiyotni kamaytirish, uning oldini olishda soliq instrumentlaridan samarali foydalanishga oid me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda va ularni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va uning oldini olishda soliq instrumentlaridan samarali foydalanish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

qurilish jarayonida bosh pudratchilar tomonidan topshiriladigan elektron hisob-faktura (soliq hisoboti)da qurilish materiallari va jihozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritish, tarmoqda ishchilar soni hisobini yuritish tartibini ishlab chiqish orqali xufyona iqtisodiyotning oldini olish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “Soliq va budget siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-812-son Qonunida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 22-apreldagi 30-37578-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida elektron hisob-faktura (soliq hisoboti)da yangi tartibni kiritish orqali xufyona iqtisodiyotning oldini olish imkonini yaratilgan;

hayot sug‘urtasiga jismoniy shaxslar tomonidan, shuningdek, xususiy mulk huquqi asosida jismoniy shaxslarga qarashli mol-mulkni yuridik shaxslarga sotishdan olingan daromadlari bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan imtiyozni bekor qilish orqali soliq to‘lovchilarning xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqarish holatlarining oldini olish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “Soliq va budget siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-812-son Qonunida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 22-apreldagi 30-37578-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida ushbu imtiyozni bekor qilish orqali soliq to‘lovchilarning xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqarish holatlarining oldini olish imkonini yaratilgan;

soliq organlarining ma’lumotlar bazasiga muqaddam iqtisodiy jinoyatlarga yo‘l qo‘yan tashkilot ta’sischi va rahbarlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni integratsiya qilgan holda ushbu jismoniy shaxslarni yangidan tashkil etilayotgan sub’ektlarning ta’sischi yoki rahbari bo‘lishiga cheklov qo‘yish taklifi O‘zbekiston

Respublikasining 2023-2026-yillarga mo‘ljallangan fiskal Strategiyasini ishlab chiqishda o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 22-apreldagi 30-37578-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyatga joriy etish natijasida muqaddam iqtisodiy jinoyatlarga yo‘l qo‘ygan tashkilot ta’sischi va rahbarlarni yangidan tashkil etilayotgan sub’ektlarning ta’sischi yoki rahbari bo‘lishiga cheklov qo‘yish imkonini yaratilgan;

yuridik shaxslar tomonidan uy-joylar bo‘yicha investitsiya va oldi sotdi shartnomalarini faqatgina elektron shaklda tuzish va soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini joriy etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi “O‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraq-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 522-sun qarorida 2023-2026-yillarga mo‘ljallangan fiskal Strategiyasini ishlab chiqishda o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 22-apreldagi 30-37578-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyatga joriy etish natijasida uy-joylar bo‘yicha investitsiya va oldi sotdi shartnomalarini faqat elektron shaklda tuzish va soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini joriy etish orqali xufyona iqtisodiyot ulushini kamaytirish imkonini yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro hamda 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan va ijobjiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, OAK e’tirof etgan milliy jurnallarda 4 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 5 ta ma’ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betdan iborat.


I BOB. XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI

1.1-§. Soliq instrumentlar orqali xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishning nazariy asoslari

Iqtisodiyotda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (aslida ishlab chiqaruvchilari ham iste'molchi ham bo'ladi)ning o'z manfaatlari mavjud bo'ladi. Bunday manfaatlar sirasiga iqtisodiy manfaatlar ustuvor bo'lib, u individlarning boshqa manfaatlariga ro'yobga chiqishining asosi ham bo'ladi. Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning iqtisodiy manfaatlari ularni ayrim hollarda ularning jamiyatning manfaatlaridan tashqarida, unga qarshi holatda yuz berishini ham keltirib chiqaradi. Aynan ana shu "ayrim hollar"ni o'zlarini ham keltirib chiqaruvchi omillar ham majdud bo'ladi. Natijada, iqtisodiy sohadagi "o'yin qoidalari" ko'pincha umumiy qabul qilingan me'yorlar (odatda huquqiy asoslar bilan mustahkamlangan) e'tiborga olinmaydigan vaziyatni aks ettiradi, bunda rioya qilmaslikni rag'batlantiradigan iqtisodiy manfaatlar ustunlik qiladi. Bu tendentsiya sezilarli zararga olib kelishi mumkin. Dastlab, axloqsiz va jamiyat me'yorlarini mensimaslik sifatida ko'rilgan bunday xatti-harakatlar davlatni ushbu harakatlarga qarshi kurashish uchun qonuniy choralar ko'rishga undadi.

Davlat tomonidan belgilangan iqtisodiy qoidalarni buzish, shu jumladan soliq to'lashdan bo'yin tovslash, soliqlarni to'lamaslik, davlat mulki yerlaridan o'zboshimchilik bilan foydalanish, daromadlar to'g'risida hisobot bermaslik yoki ushbu daromaddan soliq to'lamaslik, o'zgalarning mulkini o'g'irlash, bojxona qoidalariiga rioya qilmaslik va hokimiyatni suiiste'mol qilish, vaqt o'tishi bilan turli atamalar bilan atalgan. Bu aktlar huquqiy va iqtisodiy majburiyatlarni bajarmaslikning turli shakllarini ifodalaydi. Bunday nomlanishlar sifatida yuqorida ta'kidlaganimizdek, axloqsizlik, davlatga xiyonatkorlik, jamiyat o'g'risi, poraxo'rlik kabilar bilan nomlanib, bunday shaxslarga turlicha jazo choralar qo'llanilib kelingan.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi, iqtisodiy tadqiqotlarga e'tiborning kuchayishi bilan birga, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, ma'lum bir milliy iqtisodiyot doirasida ishlab chiqarilgan yalpi ichki (yoki milliy) mahsulotni tahlil qilish zarurligini ko'rsatdi. Ushbu taraqqiyot ushbu jarayonlarni, xususan, milliy iqtisodiyotning real hajmini alohida tadqiqot sohasi sifatida baholashda chuqrroq ilmiy tekshirishni talab qildi.



1.1.-rasm. Xufyona (yashirin) iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga oid klassik va zamonaviy yondoshuvlar³

Pirovardida esa, yigirmanchi asrning o'ttizinchiligi yillari atrofida bunday jarayonlarni norasmiy iqtisodiyot, xufyona iqtisodiyot, norasmiy faoliyat, noqonuniy faoliyat, yashirin iqtisodiyot, “oq yoqalilar”, “ko‘k yoqalilar” iqtisodiyoti, avvalgidek, poraxo'rlik, nepatizmga asoslangan iqtisodiyot, mansab

³ Muallif tomonidan tuzilgan.

soxtakorligi, korrupsiyanerlik va shu kabi yangi kategoriyalar bilan atala boshlandi. Bularga oid ilmiy tadqiqotlar ham kuchayib bordi. Zamonaviy shaklda bu jarayonlarni umumiylar tarzda xufyona yoki yashirin iqtisodiyot deb nomlanish kengroq iste'mol etila boshlandi. Ushbu keltirilgan rasmga ko'ra, qonunsiz faoliyat va jamiyat manfaatlariga zid keladigan jarayonlarni turlicha nomlanib va tavsiyalar keltingan.

Tadqiqot ishimizning asosini xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda qo'llaniladigan moliyaviy-soliq instrumentlardan davlat qanday qilib samarali foydalanish lozim va uning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat bo'lmosg'i zarur degan masalani ilmiy-nazariy jihatdan asoslab, uning amaliy holatini tahlil qilish asosida bu boradagi muammolarga ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Fikrimizcha esa, avvalo xufyona iqtisodiyot va uning kelib chiqishga asos bo'luvchi omillar va uni qisqartirishda qanday moliyaviy-soliq instrumentlar mavjudligini ilmiy jihatdan ochib berish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek olimlaridan A.O'lmasov va Sh.Qobulovlar yashirin iqtisodiyot va xufiyona iqtisodiyotni sinonim deb hisoblaydi. Ular bu atamalarni davlat yoki jamiyat nazoratisiz yashirin tarzda sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlarga taalluqli deb belgilaydilar. Bu faoliyat soliqqa tortishdan bo'yin tovlaydi, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmagan va davlat iqtisodiy baholarida ko'rinxmaydi. Bu olimlarning fikricha, bunday faoliyat insofsiz shaxslar manfaatlariga xizmat qiladi va jamoatchilik e'tiboridan chetda qoladigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Xufyona iqtisodiyot borasida keng tadqiqotlar olib borgan prof. X.Abulqosimovning ta'kidlashicha, "xufyona iqtisodiyot deganda, (shadow economy) deb davlat hisobi va nazoratidan tashqarida rivojlanadigan va shu sababdan rasmiy statistikada aks etmaydigan xo'jalik faoliyatiga aytildi. Bundan tashqari, xufyonalik (yashirin) – shaxslarning kundalik faoliyatni tashkil qilishda mavjud huquq(qonun) normalaridan foydalanishdan bo'yin tovlash va yozilmagan huquqqa, ya'ni, an'analar va urf-odatlarda qayd etilgan normalarga hamda mulkchilik huquqlarini almashish va himoyalash yuzasidan kelib chiqqan nizolarni

hal etishning huquq doirasidan chetga chiquvchi mexanizmlariga murojaat etishidan iborat”⁴.

Aksariyat iqtisodiy-ilmiy adabiyotlarda “yashirin iqtisodiyotning uch xil ko‘rinishi, ya’ni “ikkinchi” (“oq yoqalilar”); “kul rang” (“norasmiy”); “qora” (“maxfiy”) yashirin iqtisodiyotni keltirib o‘tishadi”. “oq yoqalilar” deb nomlanadigan va “ikkinchi” yashirin iqtisodiyot deb nomlanadigan yashirin iqtisodiyot shakli mazmunan olib qaralganda, korxona va tashkilotlarda yaratilgan mahsulotni yaratishda noqonuniy faoliyat bilan shug‘ullanishi asosida, yaratilgan milliy daromadni yashirinchcha shaklda qonunga zid ravishda qayta o‘zlashtirib olinishi bildiradiki, u bir qarashda go‘yoki, qonuniydek tuyulsada, uni aniqlash anchayin qiyinligi va shu jihatdan xavfliligi bilan ajralib turadi, shu jihatdan “oq yoqalilar” deb nomlanadi”⁵. Bunga misol tariqasida korxonalardagi ishlab chiqarish sexlarida hisobga olinmaydigan mahsulotlar umumiylar tarzda ishlab chiqarilishi va ayrim shaxslar tomonidan o‘zlashtirib olinishini keltirish mumkin.

“Kul rang” shaklidagi yashirin iqtisodiyot deb nomlanuvchi faoliyat mohiyatan olib qaralganda ro‘yxatga olinmaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy faoliyat qonun tomonidan taqiqlanmagan faoliyat tushuniladi. Bunda asosiy masala ishlab chiqarish jarayonlari va uning natijalarining belgilangan tartibda buxgalteriya va statistik hisoblarda aks ettirilmaydi, haqiqatda qiymat yaratilsada, ammo, ularning hajmi va miqdori rasmiy milliy mahsulotlar hajmida o‘tirmaydi, o‘z navbatida haqiqatdan ham iste’mol bozorida tovar yoki xizmat mavjud bo‘ladi. Haqiqatda yaratilgan mahsulotlar bozorda iste’molni qondirishga xizmat qilsada, ular milliy manfaatlar uchun ishlamaydi, qolaversa, ushbu mahsulotlar soliqqa tortilmay qolishi oqibatida ularning umumjamiyat manfaatlarini moliyalashtirishda ham ishtirok etmaydi.

⁴Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019.-485-490-бетлар.

⁵ Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: неоинституциональный подход. – М.: РТТУ,2000. – С.147-148; Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт.Ўқув қўлланма. - Т.: “Ноширлик ёғдуси”, 2019.-488-489-бетлар; Голованов Е.Б.Теневая экономика. Конспект лекции.-Челябинск, 2015.-С.20-29; Наумов Ю.Г., Латов Ю.В. Экономическая безопасность и теневая экономика. Учебник. М.: Академия управления МВД России, 2016. – С.58-67; Овсянникова И.П. Теневая экономика: учеб. пособие/И.П.Овсянникова; ФГБОУ ВО РГУПС.-Ростов н/Д, 2015.-С.80-97 ва шу кабиларда.

Xufyona iqtisodiyotning eng xavfli shakli sifatida “qora” yashirin iqtisodiyot e’tirof etiladi. Xufyona iqtisodiyotning bu shakli qonunlarni umuman mensimaslik va asosan taqiqlangan faoliyat va tovar(xizmat)larni ishlab chiqarish hamda ularni rasmiy hisobga olmasdan, to‘la to‘kis o‘zlashtirishga asoslangan iqtisodiy-huquqiy faoliyatga asoslanadi. Bunda uyushgan va individual jinoyatchilikka, zo‘ravonlikka, o‘g‘rilik, bosqinchilik, odam savdosi, qimor o‘yinlari, reket tovlamachilik, narkobiznes, quroq savdosi shu kabilarga asoslangan bo‘ladi. Bu kabi xufyona iqtisodiyotda qonuniy va shaffof faoliyat natijasida ishlab topilgan daromadni qayta taqsimlash asosida jamiyatning nafaqat iqtisodiy jarayoniga, shu bilan birgalikda ijtimoiy-siyosiy va sotsial jarayonlariga ham salbiy ta’sir etadi. Bundan tashqari, bu shakldagi iqtisodiy faoliyatdan davlat budgetiga mablag‘ kelib tushmasligiga qaramasdan, ularni oldini olishga qaratilgan budget xarajatlarining oshishiga ham olib keladi, o‘z navbatida boshqalarning qonuniy daromadlarini majburlash asosida qayta o‘zlashtirib olinishi natijasida ham aholining real pul daromadlarining kamayishini keltirib chiqaradi.

Ta’kidlash kerakki, xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelishi davlat ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida yuzaga kelishi va jamiyatga o‘ziga xos turli majburiy normalar (qonunlar va davlat rahbarining mutloq vakolati doirasidagi farmonlari) asosidagi talablari joriy qilinishidan boshlaboq yuzaga kelgan, biroq, bu jarayonni iqtisodiy-ijtimoiy va huquqiy jarayon sifatidagi o‘rniga baho berilmagan xolos. Birgina oddiy ko‘rinishi soliq to‘lamaslik yoki huquqi y jihatdan ajratilmagan yer uchastkasidan foyda olish maqsadida foydalanish, bu kabi holatlar juda ko‘p bo‘lganligini mantiqiy aniqlash mumkin. Biroq, bu va boshqa kabi belgilangan qonuniy talab asosida iqtisodiy faoliyat ko‘rsatmasdan va noqonuniy faoliyat asosida daromad olishni ilmiy jihatdan tadqiq qilish masalalari aslida yigirmanchi asrning 30 yillarida e’tibor berila boshlandi.

Bunda ingliz sotsiolog va iqtisodchisi K.Xart, amerikalik iqtisodchilar P.Gutman, E.Fayg, E.Sotolar tomonidan mazkur jarayonga oid ilk ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Ya’ni, K.Xart xufyona (norasmiy) iqtisodiyot tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lsa, P.Gutman davlatlarni xufyona iqtisodiyotning ko‘lami

kengayayotganligi va har bir milliy iqtisodiyotdagi salbiy rolini ko'rsatib berdi, E.Soto esa, xufyona iqtisodiyot korruption jarayonlar bilan bog'liq holda ko'rsatib berdi va uni mamlakatlarning qashshoqlashivuning asosiy omillari qatorida keltirib o'tadi va bunda aholining reaksiyasi qanchalik o'ringa ega ekanligini ilmiy tavsiflaydi. Bu boradagi dastlabki, ilmiy yondoshuvlar orasida P.Gutman tomonidan 1977-yilda yozilgan "Yashirin iqtisodiyot" nomli asarida AQSh va boshqa davlatlarda, ayniqsa uchinchi dunyo mamlakatlarida iqtisodiyotda xufyonali iqtisodiy faoliyatning oshib borayotganligi va uning ko'lami kengayayotganligini davlatlarni ogohlantirish tarzidagi ilmiy xulosalarni ishlab chiqadi. Bu jarayonga asosiy omillar va uning oldini olish maqsadida moliyaviy instrumentlarning davlat doirasida samarali foydalanishning ayrim yo'llari (masalan, pul muomalasi, monetizatsiya, soliq yuki, inflyatsiya, valyuta siyosati, norasmiy bandlik kabi)ni ko'rsatib beradi. Fernando de Soto esa, "Boshqa yo'l" asarida xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi omil va uning oldini olishning asosiy omillaridan biri sifatida mamlakatlardagi korruption holatni va unga nisbatan aholining yondoshuvlarini chuqur tahlil qilib beradi.

1.1-jadval.

Xufyona (yashirin) iqtisodiyot tushunchasiga ilmiy yondoshuvlar⁶

Muallif (lar)	Mazmuni
E.Fayg	"Norasmiy iqtisodiyot jamiyat foydasini hamda mulkchilik munosabatlarini, litsenziyalashni, mehnat shartnomalarini, moliyaviy kreditlash va ijtimoiy sug'urtalash munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar va ma'muriy qoidalar bilan belgilangan huquqlarni buzgan holda alohida xarajatlarni tejovchi iqtisodiy faoliyatni o'z ichiga oladi. U norasmiy faoliyat yurituvchi iqtisodiy agentlar tomonidan olinadigan daromadlar bilan o'chanadi" ⁷ .
F. Soto	"Xufyona iqtisodiyot bu xalqning korrupsiyalashgan davlatning qashshoqlashayotgan aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishga layoqatsizligiga nisbatan stixiyali va ijodiy reaksiyasidir".
E.B. Golovanov	"Yashirin iqtisodiyot daromadlarning shakllanishi va taqsimlanishi, savdo, investitsiyalar va umuman iqtisodiy o'sish kabi eng oddiy iqtisodiy hodisa va jarayonlarning borishiga ta'siri nuqtai nazaridan qiziqish uyg'otuvchi jarayondir" ⁸ .
E.B. Golovanov	"Majburiy qonundan tashqari iqtisodiyot asosan bilvosita ta'sirga (qulay bozor muhitini yaratish orqali), jinoiy iqtisodiyotga esa asosan konstitutsiyaviy qonunga asoslangan bevosita ma'muriy usullar (farmon, qaror, dastur, farmoyishlar shaklida) ta'sir ko'rsatuvchi) huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faol ishtirokidagi jarayon" ⁹ .
N.V.Cheremisina	"Yashirin iqtisodiy faoliyat - soliqlarni to'lashdan va boshqa majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlassh maqsadida qonun bilan ruxsat etilgan, yashirin yoki kamaytirilgan faoliyat.

⁶ Илмий ва ўкув адабиётлар таҳлили асосида Muallif tomonidan tuzilgan.

⁷ Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: неоинституциональный подход. – М.: РТТУ,2000. – с.147-148.

⁸ Е.Б. Голованов. Теневая экономика Конспект лекций. Челябинск 2015. С.4.

⁹ Ўша манба. 19 б.

	Norasmiy iqtisodiy faoliyat - bu yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs bo‘lmagan korxonalarining uy xo‘jaliklari tomonidan tashkil etilgan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyati” ¹⁰ .
H.Abulqosimov	“Yashirin iqtisodiyot rasmiy statistikada u yoki bu sabablarga ko‘ra hisobga olinmagan har qanday iqtisodiy faoliyat bo‘lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilmaydi hamda soliqqa tortishdan chetda qoladi” ¹¹ .
	“Xufyonalik (yashirin) – shaxslarning kundalik faoliyatni tashkil qilishda mavjud huquq(qonun) normalaridan foydalanishdan bo‘yin tov lash va yozilmagan huquqqa, ya’ni, an’analar va urfodatlarda qayd etilgan normalarga hamda mulkchilik huquqlarini almashish va himoyalash yuzasidan kelib chiqqan nizolarni hal etishning huquq doirasidan chetga chiquvchi mexanizmlariga murojaat etishidan iborat” ¹² .
B.Turdiev	“Yashirin iqtisodiy faoliyat asosan latent, ya’ni yashirin xususiyatga ega bo‘lib, uni amalga oshirish usullari doimiy o‘zgaruvchanlik, murakkablashib borish, turli sxemalar orqali sodir etilishi kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan jarayondir” ¹³ .
I.Abduraxmonov	“Xufiyona iqtisodiyot deb davlat hisobi va nazoratidan tashqarida rivojlanadigan va shu sababdan rasmiy statistikada aks etmaydigan xo‘jalik faoliyatiga aytildi” ¹⁴ .

Bundan tashqari i.f.d., prof. Q.Mambetjanov “yashirin iqtisodiyot bu-huquqiy va noqonuniy tadbirkorlik sub’ektlarining hisobga olinmagan va sohadan tashqarida bo‘lgan faoliyatini bildiruvchi, davlat hokimiyatining nazarat qiluvchi organlari nuqtai nazaridan, zamonaviy dunyoda hayotning o‘rnatilgan ijtimoiy asoslariga putur yetkazuvchi, ortiqcha foyda olishga qaratilgan, birinchi navbatda, yashirin, norasmiy va noqonuniy tabiatida namoyon bo‘ladi”¹⁵ deb ta’riflagan bo‘lsa, dos. N.Muminov esa, “yashirin iqtisodiyot (shadow economy) deb davlat hisobi va nazoratidan tashqarida rivojlanadigan va shu sababdan rasmiy statistikada aks etmaydigan xo‘jalik faoliyatiga aytildi”¹⁶, iqtisodchi-huquqshunos M.Qurbanboev, “yashirin iqtisodiyot bu iqtisodiy faoliyatni jamiyatdan yashirish va davlat tomonidan nazarat hamda hisoboti yuritilishi olib borilmasligini, shu bilan birga iqtisodiyotning kuzatib bo‘lmas va norasmiy qismi, yashirin iqtisodiyot mavjud qonun va jamiyat qoidalarini chetlab o‘tuvchi jamiyatdagi fuqarolarning

¹⁰ Н.В.Черемисина. Методологические аспекты определения теневой экономики. Экономика и управление. н 1 (27) 2007. с. 30.

¹¹ Абулқосимов Х.П. Яширин иқтисодиётнинг моҳияти, сабаблари ва оқибатлари, унга қарши кураш йўллари. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2020, 2(134).

¹² Абулқосимов Х.П. Яширин иқтисодиётнинг моҳияти, сабаблари ва оқибатлари, унга қарши кураш йўллари. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2020, 2(134).

¹³ Б.Турдиев. “Яширин иқтисодиёт”ни қисқартириш ва унга қарши самарали курашиш йўллари. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı. № 3, may-iyun, 2020 yil.

¹⁴ Абдурахмонов Иброҳимжон Отажонович. Хуфиёна иқтисодиётнинг юзага келиш сабаблари ва унга таъсир этувчи омиллар. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı. № 6, noyabr-dekabr, 2019 yil.

¹⁵ К.Мамбетжанов. Теоретические основы методов измерения и функционирования теневой экономики. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2017 йил.

¹⁶ Муминов Н.Г. Яширин иқтисодиётнинг моҳияти, сабаблари ва оқибатлари: назарий ёндашув. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2016, 8-сон.

iqtisodiy aloqalaridir”¹⁷ degan mazmundagi o‘zlarining ilmiy yondoshuvlarini keltirib o‘tgan.

Xufyona iqtisodiyot kontseptsiyasining ekspert va olimlarning fikrlari asosida ilmiy tahlili turli yondashuvlarni oolib beradi. Biroq, qonunga xilof harakatlar uning tabiatini asoslab beradigan umumiy konsensus mavjud. Ushbu kelishuv iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlarni qamrab oladi va vaziyat, uning ko'lami va oqibatlarini umumiy tushunishni aks ettiradi.

Yashirin iqtisodiyot ko'pincha yuqori soliqlar, haddan tashqari byurokratiya, mavjud bo'lмаган rasmiy mehnat bozorlari yoki haddan tashqari qattiq qoidalarga ega bo'lган muhitda paydo bo'ladi. Ushbu hodisa hukumat uchun ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga olib kelishi mumkin, jumladan soliq tushumlarining yo'qolishi, daromadlar tengsizligining kuchayishi va ishchilar huquqlarining buzilishi. Yashirin iqtisodiyotni hal qilish odatda soliq siyosatini isloh qilish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va qonuniy iqtisodiy faoliyat uchun sharoitlarni yaxshilashni talab qiladi.

Yashirin iqtisodiyot, norasmiy iqtisodiyot, qora iqtisod yoki yashirin bozor deb ham ataladigan yashirin iqtisodiyot davlat soliqqa tortish va tartibga solishdan chetda turib, rasmiy va qonunchilik doirasidan tashqarida ishlaydi. Bu sektor bir qator faoliyat turlarini, jumladan, giyohvand moddalar savdosi, kontrabanda, noqonuniy immigratsiya va qurol savdosini, shuningdek, norasmiy bozorlar va qonuniy nazoratdan qochadigan xizmatlarni, masalan, hisobot etilmagan naqd pul operatsiyalari va ruxsatsiz xizmatlarni qamrab oladi. Yashirin iqtisodiyot bir qancha muammolar, jumladan, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, korruptsiya, qonunbuzarliklar, davlat byudjetiga zarar yetkazish va xodimlarning ijtimoiy ta'minotining etarli emasligi bilan bog'liq. Bu huquqiy iqtisodiyotga ham, umuman jamiyatga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.


Yashirin iqtisodiyot davlat uchun soliq tushumlarining yo'qolishi, ishchilarining tengsizligi va ekspluatatsiyasi, qonunga bo'ysunmaslik va korrupsiya

¹⁷ Максуд Курбонбоев. Олий Мажлис Қонунчиллик палатасидаги Ўзбекистон “Адолат” СДП фракция аъзоси, Бюджет ва иқтисодий ислоҳотлар қўмитаси раиси ўринбосари, <https://kun.uz/25358892>.

kabi bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuningdek, u qonuniy korxonalar uchun raqobatni keltirib chiqarishi va iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi. Shu jihatdan olganda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash qonunbuzarlarga nisbatan qoidalari va jazo choralarini kuchaytirish, soliq tizimini takomillashtirish, rasmiy bandlikni rag'batlantirish va tadbirkorlar uchun byurokratik to'siqlarni kamaytirishni o'z ichiga oladi.

Ta'kidlash lozimki, xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi omillar va uni qisqartirishda juda ko'p omillar, shu jumladan, moliyaviy instrumentlar sifatidagi omillar mavjud bo'ladi. Tadqiqot ishimizning ob'ektidan kelib chiqqan holda moliyaviy instrumentlarning xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqarish va uni kamaytirishdagi ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi omillar va uni qisqartirishdagi moliyaviy instrumentlar



1.2-rasm. Xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi omillar va uni qisqartirishdagi moliyaviy instrumentlar¹⁸

Ushbu keltirilgan rasmdan shuni xulosa qilish mumkin, biz tomonimizdan keltirilayotgan ushbu moliyaviy instrumentlar ta'kidlash lozimki, ikki tomonlama xususiyatga ega. Ya'ni, birinchidan, bu moliyaviy instrumentlar avvalo aksariyati bozor qoidalari orqali muvofiqlashtirilsa, boshqa tomonidan ular davlatning qo'lidagi muhim dastak hisoblanadi. Bundan kabi moliyaviy instrumentlar xufyona iqtisodiyotni ham kelib chiqishining omili sifatida, ham uning hajmini

¹⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

qisqartirishning muhim vositasi sifatida ham yuzaga chiqadi. Agar, Bazel qo‘mitasi tomonidan tavsiya etilgan pul agregatlarini tartiblash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarga amal qilinmasa, pulning aylanishida naqd va naqd pulsiz shaklida bo‘lishi va ularning harakatda bo‘lishiga qarab ular xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaradi va uning me’yorida naqdsiz shaklini ko‘paytirish xufyona iqtisodiyotni qisqartirishga xizmat qiladi.

Xuddi shuningdek, yashirin iqtisodiyotda valyuta munosabatlari doirasida uning qora bozor shaklidagi ko‘rinishining ahamiyati ham juda kattadir. Misol tariqasida eng yirik naqd pul aylanmalar erkin almashadigan xorijiy valyuta - AQSh dollarida amalga oshiriladiki, ya’ni, noqonuniy yirik bitimlar, uy-joy, avtomobil oldi-sotdisi va boshqa ko‘plab tovarlar oldi-sotdisi yig‘indisi va shu kabilar xufyona iqtisodiyotning ko‘lamini kengaytiradi. Bundan tashqari, bankdan tashqari aylanayotgan ushbu xorijiy valyutaning milliy valyutamiz so‘mning qadrsizlanishiga o‘zining bilvosita ta’sirini ko‘rsatadi.

Yashirin iqtisodiyot rasmiy, qonuniy iqtisodiyotdan farq qiladigan bir qator xususiyatlarga ega. Yashirin iqtisodiyotning asosiy xususiyatlaridan ba’zilari:

Noqonuniylik: Yashirin iqtisodiyotning asosiy xususiyati uning ko‘pgina faoliyatining noqonuniy yoki yarim qonuniyligidir. Bunga rasmiy ro‘yxatdan o‘tmasdani, soliqqa tortilmasdani yoki qonuniy hisobga olinmasdan ishslash kiradi.

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash: Yashirin iqtisodiyotning asosiy xususiyatlaridan biri soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashdir. Norasmiy sektordagi tadbirkorlar va ishchilar ko‘pincha soliq to‘lashdan qochishadi, natijada hukumat soliq tushumlarini yo‘qotadi.

Tartibga solishning yo‘qligi: Yashirin iqtisodiyot odatda davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish doirasidan tashqarida ishlaydi. Bu shuni anglatadiki, u rasmiy iqtisod kabi bir xil standartlar va qoidalarga bo‘ysunmaydi.

Ro‘yxatdan o‘tmagan korxonalar: Yashirin iqtisodiyotdagি ko‘plab kompaniyalar rasman ro‘yxatdan o‘tmagan va litsenziyalar va ruxsatnomalar olish kabi zarur rasmiyat chiliklarni bajarmaydilar.

Naqd puldan foydalanish: Yashirin iqtisodiyot ko‘pincha naqd puldan foydalanish bilan tavsiflanadi, bu esa tranzaksiyalarni kamroq shaffof qiladi va hokimiyat organlariga kuzatishni qiyinlashtiradi.

Sug‘urtasiz yoki ijtimoiy nafaqasiz ishlash: Norasmiy sektordagi ishchilar ko‘pincha tibbiy sug‘urta va pensiya nafaqalari kabi ijtimoiy himoyaga ega emas, bu esa ularni zaif va yomon mehnat sharoitlarida qoldirishi mumkin.

Korrupsiya: Yashirin iqtisodiyot korrupsiya tarqalishiga yordam berishi mumkin, chunki ko‘plab noqonuniy harakatlar pora va korruptionerlar bilan muomala qilishni talab qiladi.

Doimiy o‘zgaruvchanlik: Yashirin iqtisodiyot qonunlar va qoidalardagi o‘zgarishlarga javoban tez-tez o‘zgarib turadi, bu esa hukumat uchun oldindan aytib bo‘lmaydigan va unga qarshi kurashishni qiyinlashtiradi.

Noqonuniy yoki norasmiy faoliyat: Yashirin iqtisodiyot rasmiy qayd etilmagan yoki milliy statistikaga kiritilmagan faoliyatni o‘z ichiga oladi. Bunga er osti ishlari, kontrabanda, noqonuniy tadbirkorlik va rasmiy qoidalar va qoidalarni chetlab o‘tuvchi boshqa faoliyat kiradi.


Ijtimoiy ta’minotning etishmasligi: Soya iqtisodiyotida ishchilar ko‘pincha tibbiy sug‘urta, pensiya va rasmiy ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan boshqa imtiyozlar kabi ijtimoiy ta’minotdan mahrum bo‘lishadi.

Kredit olish imkoniyati cheklangan: Yashirin iqtisodiyot bilan shug‘ullanuvchilar banklardan kredit olishda qiynalishi mumkin, chunki ular ko‘pincha rasmiy moliyaviy hujjatlarni taqdim eta olmaydi.

Milliy xavfsizlikka tahdid: Yashirin iqtisodiyotning ayrim jihatlari, masalan, kontrabanda va noqonuniy qurol savdosi milliy xavfsizlik va dunyo tartibiga tahdid soladi.

Qiyinchilik: Norasmiy va yashirin tabiat tufayli, yashirin iqtisodiyotni nazorat qilish va tartibga solish qiyin bo‘lishi mumkin. Uning kurashi qonun ustuvorligini kuchaytirish, soliq tizimida islohotlar va rasmiy bandlikni rag‘batlantirish choralarini ko‘rishni talab qiladi.

Yashirin iqtisodiyotning o‘ziga xos sharoitlarga qarab salbiy va ijobiy tomonlari bo‘lishi mumkin. Bu ishsizlikning yuqori darajasi, past iqtisodiy barqarorlik va qattiq soliq qoidalari sharoitida odamlarga boshpana berishi mumkin, lekin ayni paytda iqtisodiyot va jamiyat uchun davlat daromadlarining yo‘qolishi va ijtimoiy adolatning pasayishi kabi jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.



1.3-rasm. Xufyona iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy asoslari¹⁹


Ta’kidlash kerakki, xufyona iqtisodiyotni yuzaga keltirib chiqaruvchi omillar juda ko‘p, ularning mohiyatini to‘laroq anglash uchun ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini anglash talab etiladi. Ularning asosiy qismini taqsimot munosabatlari tashkil qiladi, chunki taqsimotning asosida ishlab topilgan daromadni o‘z individual manfaatlari uchun qayta taqsimlash jarayonida ko‘rinadi. Ishlab topilgan daromadni umumiy bosh taqsimlovchi- davlat bilan hamkorlik qilishni istamaslikdan kelib chiqadi. Bunda xulq-atvor ham juda katta ahamiyatga ega, bunda jamiyatning umumiy manfaatlaridan chetga chiqqan holda, norasmiy va xufyona (boshqalardan yashirgan va o‘zлari uchun daromadni o‘zlashtirish uchun) tarzda daromad topishga intilishi ularning xulq-atvoriga bog‘liq bo‘ladi.

Albatta, bunday holatlarning yuzaga chiqishida qonunchilikdagi o‘ta yengilliklar yoki o‘ta og‘ir normalarning (masalan, o‘ta progressivlashgan soliq

¹⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

qonunchiligi va shu kabilar) belgilanishi xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelishi va uning darajasining ortishiga olib keladi. Albatta, jamiyatda sotsial munosabatlarning holati ham bunga ta'sir qiladi, haddan tashqari jamiyatda sotsial-iqtisodiy tabaqalashuv holati va darajasi ham xufyonalikka asoslangan faoliyatning yuzaga keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, korxonalarda mablag'lar va ularning tashkil topish manbalarini hisobga olinishi ham bu jarayonning yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Davlatning turli xil barcha siyosatlarining mazmuni oqibatida yuzaga keladigan iqtisodiy zo'riqishlar oxir oqibat xufyonaga asoslangan faoliyat va iqtisodiy munosabatlarni keltirib chiqaradi. Qayd etish joizki, bu aytib o'tilgan asoslar xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelishiga olib keluvchi boshqa omillarning asosi hisoblanadi. Albatta, ub omillarda soliq instrumentlardan samarali foydalanish yoki samarasiz foydalanish holati ularning xufyonalikka munosabatini keltirib chiqaradi.



1.4-rasm. Soliq instrumentlarning xufyonalikka ta'siri²⁰

Ushbu keltirilgan rasmdan ko'rish mumkinki, moliyaviy instrumentlar aks ettirilgandan tashqari ularning o'zlarining ichki instrumentlari ham mavjud bo'lib,

²⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

ular yuqorida qayd etganimizdek, bozor qoidalariga nisbatan davlatning muhim dastagi sifatida ularning noto‘g‘ri belgilanishi va noto‘g‘ri boshqarilishi xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaradi va uni darajasini oshishiga xizmat qiladi, shu jihatdan aytganda davlatning moliyaviy siyosatida bu eng ustuvor masalalardan biri sifatida belgilanishi lozim deb hisoblanadi.

Bir so‘z bilan aytganda xufyona iqtisodiyot nazariy jihatdan olganda uning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ta’siri ham ikki xil shaklda namoyon bo‘ladi. Birinchisi bu kabi faoliyatda ishlab chiqarish jarayoni kechadi, qiymat yaratilib milliy boylik yaratiladi, ammo, u umumiy qiymatda (yalpi ichki mahsulotda) hisobga olinmasligi tufayli iqtisodiy jihatdan nomuvofiq hisoblanadi, natura shaklda milliy iqtisodiyotga xizmat qilsada, ammo, jamiyat manfaatlari jihatdan zarar hisoblanadi, budgetga soliq to‘lovlari to‘lanmasligi sababli jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi.

Ikkinchisi, bu kontrabanda, o‘g‘irlik, korrupsiya, taqiqlangan mahsulotlar ishlab chiqarishdagi faoliyat bo‘lib, bular ham iqtisodiy ham ma’naviy jihatdan zararli hisoblanadi. Bunda qonunlarga bepisandlik shakllanadi, unda ishtirok etayotgan shaxslarning xulq-atvorlari iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan tubanlashib borish hisobiga ular jamiyatga juda katta ma’naviy zarar yetkazib boradi, iste’molchilarining sog‘liklariga zarar yetkazish hisobiga daromad oladi.

Umumiyl qilib aytganda, yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, xufyona iqtisodiyot bu bu iqtisodiyotning rasmiy va qonunchilik doirasidan tashqarida faoliyat yuritadigan, moliyaviy-soliq instrumentlari orqali davlat tomonidan tartibga solinishi barqaror bo‘lmagan, iqtisodiy-huquqiy va ijtimoiy-sotsial faoliyatdir.

1.2-§. Xufyona iqtisodiyot va uni qisqartirishning ilmiy tadqiqotlardagi talqinining ilmiy tahlili

Boshqa iqtisodiy jarayonlarda bo‘lgani kabi, yashirin iqtisodiyotni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni, jumladan, uning o‘sishiga yordam beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni va uning iqtisodiyotga salbiy ta’sirini tushunish tobora muhim

ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi paytlarda yashirin iqtisodiyot hajmini, xususan, davlat mexanizmlari yordamida qisqartirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu ehtiyoj, ayniqsa, turli iqtisodiy tizimlarga o‘tayotgan mamlakatlarda to‘g’ri keladi. Bunday sharoitda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda davlatning roli va soliq vositalaridan samarali foydalanishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda..

Bunday tadqiqotlar sirasiga jumladan, xufyona iqtisodiyotning institutsional asoslariga oid tadqiqotlar sifatida L.I.Abalkin, A.A.Vozjenikov, S.Y.Glazev, A.E.Gorodesko, R.V. Ilyuxina, N P Kupreшenko, V.A. Manilova, Ye. A.Oleynikov, A.A.Proxojev, B.A.Rayzberg, V.K.Senchagov, K.V.Somik, S.V.Stepashin, A. V.Shestakovlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni keltirish mumkin bo‘lsa, xufyona iqtisodiyotning oldini olish va uni kamaytirishda qo‘llaniladigan usullar bilan bog‘liq tadqiqotlar sifatida esa, Volkonskiy V.I., Glinkin SP., de Soto E., Dolgopyatov T.G., Yechmakov SM., Zavelskiy M.G., Kleyner G.B., Klyamkin I.M., Kordonskiy ST., Kosals L.Ya., Kosolapoe N.A., Levin M.I., Makarov V.L., Nayshul V.A., Ovchinskiy B.C., Polterovich V.M., Radaev V.V., Rivkin R.V., Saliskiy A.I., Sledzevskiy I.V., Somik K.V., Tatarkin A.I., Timofeev L.M., M.L.Siriklarning tadqiqotlari ilmiy jihatdan ahamiyatlidir.

Keyingi vaqtarda xufyona iqtisodiyotning iqtisodiyotdagи ulushini kamaytirishda boshqa omillar qatori modellashtirish asosida tadqiq qilish darjasи ham kengayib bormoqda. Bu tadqiqotlarda bir tomonidan xufyona iqtisodiyotning vujudga kelishiga ta’sir etuvchi omillarning ta’sir doirasi tahlil qilingan bo‘lsa, o‘z navbatida uning milliy iqtisodiyotdagи ulushini kamaytirishga ta’sir qiluvchi omillarning ta’sirini modellashtirish, jumladan, uning ekonometrik tadqiqlari ham amalga oshirilgan. Bunday tadqiqotlar qatoriga M.Bak, G. Bekker, T.Besli, M.Binshtok, L.Vilde, R.Vishni, Y.Kas, M.Kina, A.Kryugsr, A.Lambert-Mogilyanski, D.Li, F.Lui, G.Maklaren, P.Moro, S. Roz-Akkermana, G.Tallok, V.Tanzi, G.Xindriks, P.Chander, .Agapova, S.Ayvazyan, A.Varshavskiy, A.Vasin kabilar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni keltirib o‘tish mumkin.

Keyingi yigirma yillarda xufyona iqtisodiyot bilan tadqiqotlar anchayin ko‘payib bordi. Ularda asosiy e’tibor davlatning xufyona iqtisodiyotning ulushini kamaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu kabi ishlarning ayrimlarini ilmiy tahlil qilishga harakat qilamiz va tegishli ilmiy xulosalar olamiz.

Ye.Anishenko o‘zining ilmiy tadqiqotlarida asosiy e’tiborni “xufyona iqtisodiyotni baholashda Rossiya davlati misolida pul aylanmasi va muomalasi doirasidagi jarayonning ta’siri o‘rganishga harakat qilgan. Jumladan, ushbu tadqiqotchi naqd pul massasining Rossiya iqtisodiyotining yashirin sektorini shakllantirishga ta’siri aniqlab bergen, iqtisodiyotning kuzatuvchanlik darajasini oshirish orqali iqtisodiyotning soya sektori ko‘lamini qisqartirish bo‘yicha kompleks yondashuvni ishlab chiqqan, xufyona iqtisodiyot doirasidagi mavjud jarayonlari va naqd bo‘lmagan pul muomalasining faol rivojlanishini naqd pul muomalasi o‘zining o‘ziga xosligidan, iqtisodiy jarayonlarni samarali monitoring qilish uchun zarur shart-sharoit yaratmasligidan kelib chiqib, yashirin iqtisodiy faoliyatning asosi sifatidagi xufyona jarayonlarining mohiyatini oydinlashtirgan, milliy iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish maqsadida mavjud pul muomalasi tizimini isloh qilishga tizimli yondashish lozimligini asoslab bergen, shuningdek, iqtisodiyot va milliy iqtisodiyotni boshqarish (iqtisodiy xavfsizlik) nuqtai nazaridan naqd bo‘lmagan pul muomalasining federal tizimini rivojlantirish asosida iqtisodiyotning yashirin sektoriga qarshi kurashish jarayonining mazmuni aniqlab bergen”²¹.

Bir so‘z bilan aytganda ushbu tadqiqotchi ilmiy qarashlariga ko‘ra, agar mamlakatda xufyona iqtisodiyotni imkon qadar jilovlash bo‘yicha naqd pul aylanishi dinamikasiga ta’sir qiluvchi salbiy oqibatlarni yumshartirib borish, uni nazorat qilish va ularning muomalada bo‘lishiga oid siyosatni takomillashtirib borish kerak degan g‘oyalari anchayin o‘rinli deb hisoblaymiz.

²¹ Анищенко Евгений Владимирович. Денежное обращение и его влияние на теневую экономику в Российской Федерации. Специальности: 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит; 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (экономическая безопасность) автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2008. стр. 31.

Xufyona iqtisodiyotni tartiblash, uning hajmini qisqaritish va uning salbiy ta'sirini kamaytirish bilan bog'liq tadqiqotlar sirasiga N.Yakovlevaning ilmiy tadqiqotlari ham alohida rol o'ynaydi, shu jihatdan ushbu tadqiqotni kengroq tahlil qilishni lozim deb hisobladik. Uning fikriga ko'ra, "iqtisodiyotning yashirin sektoriga qarshi kurashish jarayonining keng qamrovli mazmuni bu davlat organlarining qonun va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan chegara va tartibda ularni aniqlash, oldini olish va amalga oshirish bo'yicha tegishli vakolatlarga ega bo'lgan faoliyati tushuniladi"²². Bundan tashqari, uning fikricha, yashirin xo'jalik aylanmasining oldini olish,unga chek qo'yish va uni fosh etish, unda ishtirok etgan shaxslarni aniqlash, ularga ta'sir ko'rsatish (jinoiy jazoga qadar) choralarini qo'llash, shuningdek, ushbu faoliyat bilan bog'liq holda unda ishtirok etuvchi organlar va shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartiblash kerak. Bunda deydi muallif, uning maqsadlari aniqlanib, uning tamoyillari: qonuniylik, mas'uliyat, xolislik, izchillikka asoslanish lozim deb hisoblaydi.

Mazkur tadqiqotchi shuningdek, o'z tadqiqotlarida "pul muomalasi tizimi asoslantirilgan, ushbu tizim faoliyatining mohiyati va maqsadlari aniqlangan, tovarlar, ishlar va xizmatlarni taqsimlash va sotish ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish mexanizmlarini hisobga olish zarurligi ko'rsatib berilgan, bundan tashqari, normativ-huquqiy bazani, pul-kredit tuzilmasini baholash asosida iqtisodiy jarayonlarning kuzatuvchanlik darajasini oshirish va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish mexanizmlaridan foydalanish zarurati asoslagan, naqd pulsiz muomalani rag'batlantirishning iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirishga ta'siri xorij tajribasini umumlashtirish asosida aniqlab bergan, milliy iqtisodiyotda to'lov tizimining samaradorligini ta'minlash va nazorat qilish - bu markaziy bank va markaziy bankdan alohida nazorat qiluvchi organning ishini muvofiqlashtirish va ikki to'lov tizimini tartibga soluvchi organ o'rtasidagi kelishuvga binoan amalga oshirilishi

²² Яковлева Наталья Александровна. Финансовые методы противодействия теневому сектору экономики. 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Москва 2005. с. 14

natijasida xufyona iqtisodiyotni jilovlashning umumiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib bergen”²³.

Ushbu tadqiqotchi ham yuqorida keltirib o‘tilgan Ye.Anishenko singari xufyona iqtisodiyotni jilovlashda pul muomalasini tartiblash va u orqali yuzaga keladigan xufyona iqtisodiyotga salbiy ta’siri kamaytirish borasida ilmiy takliflar bildirgan bo‘lsada, biroq, bizningcha, pul muomalasini nazorat qilish yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Biroq, bu yagona hal qiluvchi omil emas. Boshqa muhim omillarga soliq siyosati, investitsiyalar darajasi, infliyatsiya, bandlik darajasi va iste’mol shakllari kiradi, ularning har biri muammoni hal qilishda alohida rol o‘ynaydi.

S.Echmakovning ilmiy tadqiqotlarida ham yuqoridagi olimlar singari xufyona iqtisodiyotning oldini olishda molivaviy instrumentlar sifatida pul instrumentini tahlil qilgan. Uning tahlillariga ko‘ra, “xufyona iqtisodiyotni oldida olishda modellashtirish masalalarini ko‘rib chiqqan va unga qo‘yiladigan asosiy talablar shakllantirilgan, ularning xususiyatlari iqtisodiy jarayonlarning real vaqt rejimida ham, ssenariy usuliga asoslangan dinamikasida ham adekvat ifodalanishini ta’minlashi zarurligi ko‘rsatib va asoslab berilgan.

Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyat elementlarining asosiy xossalari va munosabatlarini, vazifalarning ko‘p bosqichlilagini hisobga olgan holda ularning faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi jarayonlari qonuniyatlarining namoyon bo‘lishini tavsiflovchi modeli (jadvalli talqin) ishlab chiqilgan, shuningdek, xufyona iqtisodiyotga ta’sir etuvchi omillarni ssenariy usuli asosida xufyona faoliyatning ko‘p mezonli va ko‘p maqsadli modelining yagona maqsadli funksiyasini qurishning asosiy usuli ishlab chiqilgan, yashirin iqtisodiyot ta’sirining prognozlarini ishlab chiqqan, bunday ta’sirning salbiy oqibatlarini cheklovchi chora-tadbirlarni ishlab chiqqan hamda shuning uchun dissertatsiyada ko‘rib chiqilgan modellardan foydalananishni ta’minlovchi yashirin iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy faoliyat

²³ Ўша манба.

ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sirini minimallashtirish senariylarini o‘rganish uchun takliflar ishlab chiqilgan”²⁴.

Darhaqiqat, bugungi kunda xufyona iqtisodiyotni jilovlashda soliq instrumentlardan samarali foydalanishda jarayonlarni modellashtirish katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan olganda S.Echmakovning ilmiy tadqiqot natijalari o‘z ilmiy ahamiyatga egadir.

Yekaterina Izjeurova tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda esa, xufyona iqtisodiyotning institutsional asoslari tadqiq qilingan. Uning fikricha, “yashirin iqtisodiyotning iqtisodiy tabiatи zamonaviy takror ishlab chiqarish jarayoniga xos bo‘lgan global qarama-qarshiliklarga asoslanadi, bu birinchi navbatda iqtisodiy faoliyatning ayrim sohalari va turlarining mavjud institutsional shakllari va usullari bilan samarasizligi bilan doimiy nomuvofiqligida namoyon bo‘ladi”²⁵. Bundan tashqari mazkur ilmiy tadqiqot ishida yashirin iqtisodiyotning paydo bo‘lishi va faoliyat ko‘rsatishining asosi ijara mexanizmi ekanligi asoslangan bo‘lib, yashirin ijara resurslarini bozordan tashqari o‘zlashtirish va faoliyat ko‘rsatishni, shuningdek, turli xil turdagи iqtisodiyotning turli tarmoqlarida xufyona iqtisodiyot yuzaga kelishini ilmiy asoslab berilgan.

Shuningdek, ushbu tadqiqot ishida “oshkora va xufiyona iqtisodiy munosabatlar va manfaatlar o‘ziga xos tuzilmasi, munosabatlar sub’ektlari va faoliyat ko‘rsatish shakllari bilan ajralib turishligi ko‘rsatib berilgan, xufyona iqtisodiyotning institutsional mexanizm umumiyligi iqtisodiy tizim doirasida institutsional munosabatlarning (rasmiy va norasmiy) yagona faoliyat yuritishini ta’minalashligi ilmiy asoslab berilgan, bundan tashqari muallif shunday xulosaga keladiki, korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan davlat sub’ektlari ham yagona tizim sifatida yashirin iqtisodiyotning yuqori darajada rivojlanishiga ega, chunki korrupsiya sub’ektning ijaraga oid xatti-harakatining bir shakli ekanligi aniqlangan

²⁴ Ечмаков Сергей Михайлович. Генезис теневых экономических отношений: анализ и моделирование. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Тамбов. 2005 с. 64.

²⁵ Изжеурова Екатерина Александровна. Институциональные проблемы развития теневой экономики. Специальность 08 00 01 - Экономическая теория. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Самара 2007, с. 9.

va institutsional (maqomi) pora ko‘rinishidagi ijara tarqalib ketishi mumkinligi ko‘rsatib berilgan”²⁶.

Mazkur tadqiqotning muhim ilmiy ahamiyati shundaki, xufyona iqtisodiyotning ilmiy asoslari juda ko‘pligi ko‘rsatib berilgan va uning asosiylaridan biri mol-mulkni ijaraga berish jarayonlari ham hisoblanadiki, uning salbiy ta’sirini kamaytirishda moliyaviy instrumentlar sifatida soliq instrumentlaridan samarali foydalanish borasidagi mulohazalari fikrimizcha anchayin ijobiy deb hisoblash mumkin.

Xufyona iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan rus olimi Ovcharov Andrey Sergeevichning fikricha, “iqtisodiyotning yashirin sektori axloq uchburchagini tashkil etuvchi omillarning asosiy triadasi yordamida mavjud: “jinoyat qilish imkoniyati - mas’uliyatsizlik hissi - majburlovchi motiv”²⁷. Darhaqiqat ushbu ta’rifning mazmunida xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi uch omildan tashqari boshqa omillarni ham mavjudligi haqida yuqorida keltirib o‘tilgan edi. Aslini olganda jinoyat qilish imkoniyatini berilgan holat xufyona iqtisodiyotning kurtaklari mavjudligidan dalolat beradi. Bundan tashqari ushbu olimning fikriga ko‘ra, yashirin iqtisodiyotning mohiyati ijtimoiy takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi va faoliyat yuritayotganlarga nisbatan opportunistik xulq-atvorni amalga oshiradigan iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur olimning tadqiqotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak quyidagilarni keltirish mumkin. Tadqiqotda iqtisodiyotning yashirin sektorida mikro va makro darajada kuzatilayotgan “korrupsiya tuzog‘i” kabi tizimli hodisa ekanligi aniqlab berilgan, iqtisodiyotning xufyona sektorini aniqlash va tavsiflashning asosiy yondashuvlari umumlashtirilgan, mavjud munosabatlar turlarini asosiy mezon sifatida ajratib ko‘rsatish orqali yashirin iqtisodiyotning o‘zining kengaytirilgan matritsali

²⁶ Изжеурова Екатерина Александровна. Институциональные проблемы развития теневой экономики. Специальность 08 00 01 - Экономическая теория. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Самара 2007, с. 19.

²⁷ Овчаров Андрей Сергеевич. Коррупция в системе теневыx экономических отношений Специальность 08.00.01 - экономическая теория. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Волгоград 2003, с. 4.

tuzilmasini taklif qilingan, aholining opportunistik xulq-atvorining sababi korrupsiya ekanligi isbotlangan, iqtisodiyotning yashirin sektori (korrupsiya)dagи noqonuniy munosabatlarning alohida elementlariga nisbatan yangi «ijobiy» yondashuv taklif etilgan va uning ilmiy asoslarini keltirib bergan²⁸.

K.Zavodilenko esa, tadqiqotlarida “xufyona iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlikning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq qilgan. U o‘z tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotda xufyona iqtisodiyotni kamaytirilsa, unga parallel ravishda milliy iqtisodiyotning xavfsizlik darajasi kamayib boradi, shu jihatdan olganda uning ilmiy xulosalari va takliflariga ko‘ra, bunda moliyaviy instrumentlar (qimmatli qog‘ozlar, pul agregati, preferensiyalar, soliq imtiyozlari va shu kabilar)idan samarali foydalanish masalalari keltirib o‘tilgan”²⁹. Bizning fikrimizcha, milliy iqtisodiyotda qanchalik xufyona iqtisodiyot qisqartirilsa, unda moliyaviy instrumentlarida samarali foydalanilsa, milliy iqtisodiy hamda moliyaviy xavfsizlik shunchalik kamayadi, shu jihatdan olganda, K.Zavodilenkoning qarashlari va g‘oyalari ilmiy jihatdan samarali hisoblanadi.

Xuddi shunday ilmiy tadqiqotlar sirasiga Smeganin Andrey Yurevichning ilmiy ishlarini ham keltirish mumkin. U ham xuddi K.Zavodilenko singari mamlakat milliy iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda moliyaviy instrument va boshqa instrumentlar orqali xufyona iqtisodiyotni kamaytirish orqali erishish mumkin deb hisoblaydi. Ushbu olimning ta’rificha, “yashirin iqtisodiyotning ko‘plab nomlari bor - noqonuniy, noqonuniy, yashirin - lekin bu hodisaning mohiyati o‘zgarmaydi. Yashirin iqtisodiyot - daromadlarni yashirish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovslash, kontrabanda, giyohvand moddalar savdosi, soxta moliyaviy daromadlardir. Faoliyat haqiqatan ham ulkan, o‘nlab milliard dollarni tashkil etadi, ammo huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan bostiriladigan harakatlar ulkan aysbergning faqat uchi bo‘lib, ularning hajmini faqat aniqlash mumkin. Yashirin iqtisodiyot - bu jamiyatda

²⁸ Ўша манба.

²⁹ Заводиленко Константин Анатольевич. Ликвидация теневой экономики как направление обеспечения экономической безопасности России. Специальность 08.00.05 - экономика и управление народным хозяйством (экономическая безопасность). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва 2009. с 22.

qonunlar, huquqiy normalar va iqtisodiy hayotning rasmiy qoidalariga zid ravishda rivojlanadigan iqtisodiy munosabatlar tuzilmasi bo‘lib, u mulkchilik shakllarining har qanday tuzilmasi ostida mavjud bo‘lib, uning ko‘lami ko‘p jihatdan tartibga solish sifati bilan belgilanadi”³⁰.

Ushbu tadqiqotchining fikriga qo‘shilgan holda, aslini olganda xufyona iqtisodiyot moliyaviy operatsiyalar orqali amalga oshiriladi va noqonuniy daromad olishga, davlatning tegishli organlarining qonuniy talablarini mensimaslikka, qonunlarni inkor etishga, jamiyat tomonidan o‘rnatilgan iqtisodiy-axloqiy normalarga bo‘ysunmaslik oqibatida individual manfaatlarga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatdir.

“Yashirin iqtisodiyot mavhum tizimdir. Ammo ichki tartibga solingan va terminologik jihatdan aniqlangan ushbu tizimsiz soya sektori fenomenini to‘liq aniqlash va tushunishga da’vo qilish qiyin bo‘ladi”³¹ deb ta’rif bergen iqtisodchi olim S.Jarov o‘z ilmiy tadqiqotlarida, “jamiyatning o‘sib borayotgan va o‘zgaruvchan ehtiyojlari va cheklangan ishlab chiqarish imkoniyatlari o‘rtasidagi doimiy ravishda takrorlanadigan qarama-qarshilik, shuningdek zaiflik natijasida xufyona iqtisodiyot yuzaga kelishini ko‘rsatib berish bilan birgalikda milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari va xarakterli xususiyatlarini aniqlab bergen, ular rivojlanishning yuqori sur’atlari, ko‘payishning barcha bosqichlarini qamrab olishning kengligi va chuqurligi va saqlanib qolishning barqarorligining sabablarini ko‘rsatib bergen, ilmiy yondashuv asosida, uning mazmuni haqidagi tushunchani kengaytiruvchi o‘tish davri xususiyatlarini hisobga olgan holda, xufyona sektori parametrlarini tahlil qilish va baholash metodikasini ishlab chiqqan, bir tomonidan, uning jinoiy qismiga qarshi kurashni, ikkinchi tomonidan, budgetni to‘ldirish manbalaridan biri sifatida foydalanishni nazarda

³⁰ Смеганин Андрей Юрьевич. Механизмы государственного противодействия теневой экономике экономическая безопасность России. Специальность 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (экономическая безопасность). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2007. с 11.

³¹ Жаров Сергей Львович. Методология анализа и оценки теневого сектора в экономике переходного периода Специальность 08.00.01 - Экономическая теория. Афтореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Петрозаводск, 2005. с 7.

tutuvchi, yashirin iqtisodiyotni qonuniylashtirishning asosiy shartlari, yo‘nalishlari va mexanizmlarini belgilab bergan”³².

Tanlangan mavzu doirasida ilmiy tadqiqotlar sifatida I.Nushtaev tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarni ham keltirish mumkin. Ushbu olimning fikriga ko‘ra, “milliy iqtisodiyotning xavfsizligi, bir tomonidan, tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning deformatsiyalanishi va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun institutsional shart-sharoitlarning nomukammalligining namoyon bo‘lishi bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, ular ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi, oqibatdan xufyona iqtisodiyotning avj olishiga olib keladi”³³. Bundan tashqari ushbu olim xufyona va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash sohasida davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning moslashuvchan mexanizmini ishlab chiqqan, uni amalga oshirish iqtisodiy xavfsizlik va xufyonani kuchaytirishga tahdidlar va uning natijalarini doimiy monitoring qilish asosida uning predmet-instrumental mazmunini ko‘p bosqichli tuzatish yuzasidan takliflar ishlab chiqqan, ularni yumshatish chorralari, davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirish mexanizmi doirasida yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha: boshqaruv samaradorligini oshirish (biznes va hukumat korrupsiyasiga qarshi kurashish natijasida) va iqtisodiyotni umumiylashtirish (ko‘zda tutilgan). ish haqi sohasida, soliq sohasida, maqsadli moliyalashtirish sohasida, davlat hokimiyati va boshqaruvi sohasida davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirishga oid ilmiy takliflar ishlab chiqqan.

Albatta, yuqoridagi tahlil qilgan ilmiy tadqiqotlarni ayrim jihatlarini umumlashtiradigan bo‘lsak, ularning aksariyatida xufyona iqtisodiyotni iqtisodiy (moliyaviy) xavfsizlik bilan o‘zaro bog‘lagan holda tadqiq qilgan, xufyona iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblab uning salbiy oqibatlari va ta’sirini jilovlab

³² Ўша манба.

³³ Нуштаев Иван Васильевич. Организационно-экономический инструментарий противодействия теневой экономике и коррупции. Специальность 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (12. Экономическая безопасность). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Тамбов – 2012. с.8.

borish milliy iqtisodiyotda xavfsizlikni ta'minlashning muhim omili sifatida qaralgan.

Bu yerda yana shuni ham ta'kidlash lozimki, xufyona iqtisodiyotni jilovlashning moliyaviy instrumentlarining tahlilida davlat budgeti mablag'laridan nosamarali foydalanish, ularni noto'g'ri sarflanishi oqibatida rasmiy lashmagan ishlab chiqarishni yuzaga kelishi, iqtisodiyotda bandlik bilan bog'liq norasmiy band bo'lganlarning ko'payishida soliq omilining asosiy ta'sir kuchiga ega ekanligi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar ham amalga oshirilganligini qayd etish lozim.

Bunday tadqiqotlar qatoriga V.A.Zaysev, V.N.Anishenko, R.V.Ilyuxinoy, N.P.Kuprešenko, A.V.Molchanovym, V.K.Senchagov, A.V. Shestakovlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni keltirish mumkin. Bundan tashqari T.I.Koryagina, A.A.Sergeev, A.I.Dolgova, S.V.Dyakov, Y.I.Gilinskiy, I.I.Karpes, A.I.Gurov, Y.G.Kozlov, A.M.Yakovlev, A.N.Shoxin, S.Golovin, O.V.Osipenko, X.I.Rayg, V.O.Lazovskiy, A.A.Krshov, Y.P.Kurochkin, V.V.Kolesnikov kabi olimlar ham xufyona iqtisodiyotni moliyaviy instrumentlar orqali tartibga solishning u yoki bu qirralarini tahlil qilgan. Bunda bank, valyuta, sug'urta, soliq, pensiya tizimi, qimmatli qog'ozlar, bandlik masalalari bilan bog'liq holda tadqiq qilingan. Ularda davlatning pozitsiyasi qanday bo'lish kerak degan masalaning yechimlariga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan, xufyona iqtisodiyotga olib keladigan iqtisodiy sohadagi qonunchilik orqali faoliyatni legallashtirish muammolari ham ushbu ilmiy tadqiqotlar ob'ekti sifatida jalb qilingan.

Albatta, xufyona iqtisodiyot va uning salbiy oqibatlari, uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar, jumladan, uning milliy iqtisodiyotdagि ulushini kamaytirishga qaratilgan hamda bunda moliyaviy instrumentlarning qo'llanilishi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar mahalliy olimlarimiz tomonidan ham unchalik ko'p bo'lmasada, ma'lum darajada amalga oshirilib kelinmoqda. Bunday tadqiqotlar sirasida ayrim o'quv adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar va ilmiy maqolalarni keltirish mumkin. Bunday ishlar qatoriga professor A.Ortiqov, A. A.Isaxodjaev, A.Shestavovlar tomonidan 2002-yilda yozilgan "Xufyona iqtisodiyot" nomli o'quv qo'llanmasi, professor X.Abulqosimovning aynan shu

nomdagи o‘quv qo‘llanmasи va ilmiy maqolalari, B.Turdievning “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish va unga qarshi samarali kurashish yo‘llari” nomli maqolasini, I.Abduraxmonovning “Xufiyona iqtisodiyotning yuzaga kelish sabablari va unga ta’sir etuvchi omillar” nomli maqolasini, M.M.Mirzakarimovaning “norasmiy bandlik va uni legallashtirish masalalari” nomli maqolasini, A.Achilovning “tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari, unga imkon berayotgan shart-sharoitlar va oldini olish choralari” nomli maqolasini, G.A.Alimov, B.I.Isroilovlarning “tenevaya ekonomika, korrupsiya, vzyatochnichestvo: ugolovno-pravovaya otsenka” nomli monografiyasini, Isroilov B.I.Ibragimov B.B., Z.Axmedovlarning mavzuga oid ilmiy maqolalarini, Muminov Nozim Gaffarovich, Jo‘raboev Iqboljon Baxodirjon o‘g‘lining “yashirin iqtisodiyotni o‘lhash usullari” nomli maqolasini, shuningdek, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktorlari: Abdug‘aniev Uchqun Habibulla o‘g‘li va Ergashev Rustam Rajabovichlarning xufiyona iqtisodiyotning oldini olishga qaratilgan va unda moliyaviy (soliq) instrumentlaridan foydalanishga yo‘naltirilgan doktorlik dissertatsiya ishlarini keltirib o‘tish mumkin.

Jumladan, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori R.Ergashevning “Soliq siyosatining norasmiy iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirishga qaratilgan mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishi doirasida “soliq siyosatining norasmiy iqtisodiyotga qarshi kurashishga qaratilgan mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida soliq ma’muriyatichilida katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, qayta ishslash va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish hamda iqtisodiyotda xufiyona faoliyatni qisqartirish, shaffoflik darajasini oshirish hamda tadbirkorlik uchun teng raqobat muhitini yaratish maqsadida soliq organlari faoliyatiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalasiga ilmiy tavsiyalar berilgan, norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish maqsadida soliq ma’murchiligidan sun’iy tafakkur texnologiyalarini yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq to‘lovlaridagi tafovutlarni aniqlashda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash taklif etilgan, milliy

iqtisodiyotda norasmiy iqtisodiyotni kamaytirish maqsadida hozirda joriy etilgan onlayn-NKM yoki virtual cassada qayd etilgan ma'lumotlarni sun'iy tafakkur texnologiyalari asosida tahlil qilish soliqdan qochish holatlarini oldindan aniqlash va bartaraf etish mumkinligini asoslangan hamda soliq komplaensi xarajatlarini kamaytirish, onlayn NKM amaliyotini joriy qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini soliq organlarida keng joriy qilish va korrupsiya nazoratini kuchaytirish yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirishi asoslashga harakat qilingan”³⁴.

Qayd etish lozimki, R.Ergashevning ilmiy tadqiqot ishi keyingi yillarda mamlakatimizda xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va uning yuzaga kelishini kamaytirishda soliq instrumentlardan biri bo‘lgan soliq tizimining rolini oshirishga qaratilgan ilmiy ishlardan biri bo‘lib, unda soliq tizimi orqali, ayniqsa, ushbu tizimga axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida norasmiy iqtisodiyotni qisqartirishga alohida urg‘u bergenligi ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyatlidir, chunki, har qaysi tizim qanchalik raqamlashsa, unga axborot texnalogiyalarini qanchalik ko‘p qo‘llanilsa, xufyona iqtisodiyotni yuzaga keltiruvchi omillar kamayishiga erishish mumkin.

Aynan shunga o‘xshagan ilmiy tadqiqotlar sirasiga U. Abdug‘anievning ilmiy tadqiqotlarini ham keltirib o‘tish mumkin. Ushbu tadqiqotda ham xuddi R. Ergashev singari mamlakatimizda xufyona iqtisodiyotning ulushini kamaytirish va uning oldini olishda fiskal siyosat instrumentlaridan samarali foydalanish masalalariga keng urg‘u berilgan. Jumladan, unda “tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan taqdim etiladigan elektron bojxona yuk deklaratsiyalarini masofadan bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazish imkonini beradigan “masofaviy elektron deklaratsiyalash” postlarini tashkil etish orqali bojxonaga oid ma’muriy tartib-taomillarni takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar surilgan, eksport-import operatsiyalarida soliq bazasini yashirish bilan bog‘liq holatlarni aniqlash tizimini takomillashtirish uchun “Yagona oyna” portali barcha xizmatlarini bir

³⁴ Эргашев Рустам Ражабович. Солик сиёсатининг норасмий иқтисодиёт кўламини қисқартиришга қаратилган механизmlарини такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент шахри – 2022 йил. 30 б.

platformaga joylashtirish hamda ma'lumotlar elektron bazasidan raqamli foydalanishni yo'nga qo'yish taklif etilgan. Bundan tashqari, 2028 yilga qadar O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish hisobiga davlat budgetiga jalg' etiladigan tushumlar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan”³⁵.

U.Abdug'anievning ilmiy tadqiqotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning takliflari ilmiy asoslangan bo'lsada, ammo, ularda asosan bojxona rejimini takomillashtirish va ayrim holda soliq tizimini bojxona bilan integratsiya bilan bog'liq tadqiqotlar bilan cheklanganligi ko'rish mumkinki, vaholanki, yashirin iqtisodiyot darajasini fiskal siyosat instrumentlari yordamida pasaytirish deganda faqatgina bojxona tushunilmaydi, balki boshqa moliyaviy instrumentlari ham tushuniladiki, ular haqida biz yuqorida o'zimizning ilmiy yondoshuvimizni keltirib o'tganmiz.

Xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va uning darajasini kamaytirishda soliq instrumentlaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlardan yana biri F.Axmedovning tadqiqot ishlarini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqotchi o'zining “Soliq to'lashdan qochish xavflarini aniqlashda zamonaviy fiskal nazorati mehanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsion tadqiqoti doirasida “soliqdan qochish, soliqdan bo'yin tovslash, soliqlarni minimallashtirish tushunchalarining mohiyati va ularning o'zaro farqlarini ilmiy nazariy jihatdan yoritib bergen, soliqdan qochish yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial omillari hamda usullarini ko'rsatib bergen, respublikamizda soliq tizimida soliqdan qochishning turli ko'rinishlarini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilgan holda ilmiy xulosalarni shakllantirgan, soliqdan qochish holatlarini baholash va uning oldini olishga qaratilgan xorij tajribasini o'rganish asosida ilg'or tajribalarni respublikamiz soliq amaliyotida foydalanish yo'llarini ko'rsatib bergen, respublikamizda soliqdan qochishning oldini olishning huquqiy va moliyaviy instrumentlarini qo'llash hamda

³⁵ Абдуғаниев Учкун Ҳабибулла ўғли. Яширин иқтисодиёт даражасини фискал сиёсат инструментлари ёрдамида пасайтириш йўллари 08.00.07 - Молия, пул муомаласи ва кредит Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати Тошкент – 2023. 59 б.

yashirin iqtisodiyotni kamaytirish orqali soliq to‘lashdan bo‘yin tovplashni kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan”³⁶.

F.Axmedovning tadqiqot ishlarining mohiyati shundaki, unda soliqdan qochish xufyona iqtisodiyotning bir ko‘rinishi sifatida ilmiy yondoshilgan va soliq tizimida nazorat mexanizmlarini takomillashtirish orqali xufyona iqtisodiyotni qisqartirishga harakat qilgan, darhaqiqat uning ilmiy-amaliy takliflari fikrimizcha, milliy iqtisodiyot doirasida xufyona iqtisodiyotning ulushini kamaytirishda soliq tizimidan samarali foydalanish yo‘llari asoslangan, shu jihatdan olganda, yuqorida ta’kidlangan, R.Ergashev va U.Abdug‘anievlar kabi F.Axmedovning ilmiy tadqiqotlari ham bu boradagi keyingi yillardagi ilmiy ishlar samarali ilmiy deb hisoblash mumkin.

Dissertatsion tadqiqot ishimizning mazkur qismi bo‘yicha amalga oshirgan ilmiy tahlillarimiz asosida bir qator xulosalar chiqarish mumkin:

birinchidan, xufyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablari va unga oid davlatning siyosati bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlarda asosiy e’tibor xufyona iqtisodiyotni jilovlashni yuzaga keltiradigan omillarni kamaytirishga qaratilganligini ko‘rish mumkin;

ikkinchidan, xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda qo‘llaniladigan soliq instrumentlardan foydalanishga oid ilmiy tadqiqotlarda pul muomalasi bilan bog‘liq tadqiqotlar ko‘p uchraydiki, ularda davlatning monetar siyosati xufyona iqtisodiyotni yuzaga keltiruvchi va uni kamaytirishning omili sifatida tadqiq qilingan;

uchinchidan, xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda moliyaviy instrumentlar sifatida soliq tizimining roliga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar unchalik ko‘p bo‘lmasada, ularda tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish asosiy omil sifatida baholangan;

to‘rtinchidan, xufyona iqtisodiyotni jilovlashda soliq instrumentlardan samarali foydalanishga oid mahalliy olimlarimizning ilmiy ishlari asosan soliq

³⁶ Ахмедов Феруз Баходирович. Солик тўлашдан қочиши хавфларини аниқлашда замонавий фискал назорати механизмларини такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент шахри – 2023 йил. 68 б.

tizimi orqali norasmiy iqtisodiyotni oldini olish hamda uni qisqartirishga qaratilgan bo‘lib, ularda bojxona va soliq rejimi orqali uning ulushini qisqartirishga oid ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

beshinchidan, fikrimizcha, xufyona iqtisodiyotni moliyaviy instrumentlar orqali qisqartirish borasida soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, adolatli soliq rejimi, valyutaga oid munosabatlar, tovar va xizmatharni ayirboshlashda adolatli cheklovlar kabi masalalarini ham tadqiq etish zarur bo‘ladi, chunki, xufyona iqtisodiyotni jilovlashdagi moliyaviy instrumentlar faqat bojxona yoki monetar siyosatdan iborat emas degan xulosa o‘rinli deb hisoblaymiz.

Birinchi bob bo‘yicha xulosa

Davlat tomonidan belgilangan iqtisodiy faoliyat yuritishning qoidalarini buzish, ularni chetlab o‘tish, ayniqsa, belgilangan soliqlarni to‘lamaslik, uni to‘lashdan turli yo‘llar bilan bo‘yin tovlash, davlatga tegishli bo‘lgan yerkarta ruxsat olmasdan dehqonchilik qilish va undan olinadigan daromadlar haqida davlatning tegishli organlarini xabardor qilmaslik va olgan daromadi doirasida soliq to‘lamaslik, boshqalarning mulkini talon taroj qilish, bojxona qoidalariga amal qilmaslik, shuningdek, lavozimini suiiste’mol qilish va shu kabi holatlar o‘z davrlarida turlicha nomlanib kelingan.

Yashirin iqtisodiyot ko‘pincha soliqlarning yuqoriligi, byurokratiya, rasmiy mehnat bozorlarining mavjud emasligi yoki qoidalar va qoidalar juda qattiq bo‘lganida yuzaga keladi. Bu hukumat uchun soliq tushumlarining yo‘qolishi, daromadlar tengsizligining kuchayishi va ishchilar huquqlarining himoyalaganligi kabi turli xil ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi omillar va uni qisqartirishdagi moliyaviy instrumentlar ikki tomonlama xususiyatga ega. Ya’ni, birinchidan, bu moliyaviy instrumentlar avvalo aksariyati bozor qoidalari orqali muvofiqlashtirilsa, boshqa tomondan ular davlatning qo‘lidagi muhim dastak hisoblanadi. Bundan kabi

moliyaviy instrumentlar xufyona iqtisodiyotni ham kelib chiqishining omili sifatida, ham uning hajmini qisqartirishning muhim vositasi sifatida ham yuzaga chiqadi.

Bir so‘z bilan aytganda xufyona iqtisodiyot nazariy jihatdan olganda uning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ta’siri ham ikki xil shaklda namoyon bo‘ladi. Birinchisi bu kabi faoliyatda ishlab chiqarish jarayoni kechadi, qiymat yaratilib milliy boylik yaratiladi, ammo, u umumiy qiymatda (yalpi ichki mahsulotda) hisobga olinmasligi tufayli iqtisodiy jihatdan nomuvofiq hisoblanadi, natura shaklda milliy iqtisodiyotga xizmat qilsada, ammo, jamiyat manfaatlari jihatdan zarar hisoblanadi, budgetga soliq to‘lovlari to‘lanmasligi sababli jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi.

Ikkinchisi, bu kontrabanda, o‘g‘irlik, korrupsiya, taqiqlangan mahsulotlar ishlab chiqarishdagi faoliyat bo‘lib, bular ham iqtisodiy ham ma’naviy jihatdan zararli hisoblanadi. Bunda qonunlarga bepisandlik shakllanadi, unda ishtirok etayotgan shaxslarning xulq-atvorlari iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan tubanlashib borish hisobiga ular jamiyatga juda katta ma’naviy zarar yetkazib boradi, iste’molchilarining sog‘liklariga zarar yetkazish hisobiga daromad oladi.

fikrimizcha, xufyona iqtisodiyotni moliyaviy instrumentlar orqali qisqartirish borasida soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, adolatli soliq rejimi, valyutaga oid munosabatlar, tovar va xizmatlarni ayirboshlashda adolatli chekllovlar kabi masalalarini ham tadqiq etish zarur bo‘ladi, chunki, xufyona iqtisodiyotni jilovlashdagi moliyaviy instrumentlar faqat bojxona yoki monetar siyosatdan iborat emas degan xulosa o‘rinli deb hisoblaymiz.

Tadqiqotlarga asoslanib aytish mumkinki, **xufyona (yashirin) iqtisodiyot** - bu bu iqtisodiyotning rasmiy va qonunchilik doirasidan tashqarida faoliyat yuritadigan va soliqqa tortish yoki davlat tomonidan tartibga solinishi mumkin bo‘lmagan, iqtisodiy-huquqiy va ijtimoiy-sotsial faoliyatdir.

II BOB. SOLIQ TIZIMI ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH HOLATINING TAHLILI

2.1-§. Xufyona iqtisodiyotni baholashning uslubiyoti va uning soliq tizimida qo'llanilishi.

Oldingi bobda muhokama qilinganidek, xufyona iqtisod darajasini — uning milliy iqtisodiyotdagi ulushi va miqdoriy hajmi va qiymati bo'yicha ham to'g'ri aniqlash ilmiy tahlil uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xufyona iqtisodiyotni baholash muayyan mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlarga tayanadi. Ushbu baholash uchun qo'llaniladigan usullar orasida soliq tizimining vositalari bilan bog'liq ikkita asosiy jihat mavjudligini tan olish muhimdir. Ya'ni, soliq instrumentlari bir tomonidan xufyona iqtisodiyotning hajmi va darajasini aniqlashga ham xizmat qilsa, boshqa tomonidan uning oldini olish hamda hajmini qisqartirishda ham muhim omil bo'lib chiqadi. Bular orasida soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq qarzdorligi, soliq nazorati, soliq xizmati organlari bilan boshqa moliyaviy organlari va boshqa organlar bilan xufyona iqtisodiyotni oldini olish bo'yicha o'zaro integratsion faoliyati, soliq organlari tomonidan amaliyotda qo'llaniladigan turli xil usullar va dasturiy mahsulotlar va shu kabilalar kiradi.

Aslini olganda bugungi kunda O'zbekiston soliq tizimida xufyona iqtisodiyotni baholashda va aniqlashda bir qator usullardan foydalilanadi. Shu jihatdan olganda ayrim kategoriyalarning farqlarini aniqlab olish zarur bo'ladi. Ular jumlasiga: *kuzatilmaydigan iqtisodiyot* (doimiy statistik kuzatuvlarda to'liq yoki qisman qamrab olinmagan, shuningdek, statistik ko'rsatkichlarda aks ettirishda bilvosita usullar orqali baholanadigan iqtisodiy faoliyat turlari); *norasmiy iqtisodiyot* (uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) faoliyati); *yashirin iqtisodiyot* (qonun bilan man etilmagan, ammo soliqqa tortish va qonun hujjatlarining talablariga rioya qilmaslik maqsadida davlat organlaridan ataylab berkitilgan iqtisodiy faoliyat) hamda *noqonuniy iqtisodiyot* (qonun bilan taqiqlangan yoki vakolatga ega bo'lмаган shaxslar tomonidan amalga oshirilganda jinoiy javobgarlikka olib keladigan iqtisodiy faoliyat turlari) kabilardan foydalilanadi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot norasmiy, yashirin va noqonuniy faoliyat turlari bo'yicha guruhlarga ajratilgan holda baholanadi. Norasmiy iqtisodiy faoliyat ro'yxatdan o'tmagan holda turli xil tadbirkorlik va ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini o'z ichiga oladi. Jismoniy shaxslarning norasmiy faoliyati ishlab chiqarish maqsadidan kelib chiqqan holda ikki guruhga ajratilgan holda baholanadi:

- jismoniy shaxslarning o'zini ish va daromad bilan ta'minlash uchun sotish maqsadida (bozor uchun) tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyati;

- uy xo'jaliklarining o'z ehtiyojlari (yakuniy foydalanishi) uchun ishlab chiqarish bilan bog'liq faoliyati.

Jismoniy shaxslarning sotish maqsadida (bozor uchun) ishlab chiqarish faoliyati quyi darajada tashkil etiladi, kichik hajmlarga ega bo'ladi va shu sababli ularda mehnat va kapital xarajatlarini farqlash imkonii mavjud emas. Mehnat munosabatlari esa agar ular mavjud bo'lsa, shartnomalar va rasmiy kafolatlarga emas, balki og'zaki kelishuvlar, qarindoshlik munosabatlari, ish vaqtini va tartibining belgilanmasligiga asoslanadi.

Uy xo'jaliklarining o'z ehtiyojlari (yakuniy foydalanishi) uchun ishlab chiqarishi qishloq xo'jaligi (dehqonchilik va chorvachilik) va qayta ishslash sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish, o'z uy-joylarini qurish ishlari, shuningdek, o'z uyida yashash bo'yicha shartli xizmatlar (shartli renta)ni o'z ichiga oladi.

Yashirin iqtisodiy faoliyat davlat boshqaruvi organlarida ro'yxatdan o'tgan va hisobotlarida faoliyatini (daromadlarini va boshqa ko'rsatkichlarini) to'liq yoki qisman yashirib ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar (yuridik shaxslar) faoliyatini, shuningdek, davlat boshqaruvi organlarida umuman ro'yxatdan o'tmagan hamda hisobotlar taqdim etmaydigan, ishlab chiqarish jarayonlari nisbatan yuqori darajada tashkil etilgan va yirikroq ko'lamlarda faoliyat yuritadigan korxonalar (jismoniy shaxslar) faoliyatini o'z ichiga oladi.

Noqonuniy iqtisodiy faoliyat qonun bilan taqiqlangan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish va saqlash hamda qonun bilan ruxsat etilgan, ammo tegishli

ruxsatnomasi bo‘lмаган ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshirilganda noqonuniy bo‘ladigan faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Ularga qurol-yarog‘ savdosi, giyohvand moddalar yetishtirish va sotish, fohishalik, kontrabanda, maxsus ruxsatnomaga ega bo‘lмаган holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati (alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish, brakonerlik) va boshqalar kiritiladi.

Odatda, noqonuniy faoliyat ko‘laming iqtisodiyotdagи talab va taklif darajasiga, shuningdek, asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar – iqtisodiy o‘sish, bandlik, inflyatsiyaga ta’siri ahamiyatsiz darajada kichik bo‘ladi. Shu sababli, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni shakllantirishda noqonuniy iqtisodiy faoliyatni qamrab olish zarurati yo‘q deb hisoblanadi va mazkur Uslubiy nizomda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha noqonuniy iqtisodiy faoliyatni statistik baholash ko‘zda tutilmaydi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bevosita va bilvosita usullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bevosita usullar tanlanma kuzatuvlar o‘tkazish (uy xo‘jaliklari kuzatuvlari, iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha jismoniy shaxslar kuzatuvlari, korxonalar faoliyatining maxsus kuzatuvlari, savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalarini kuzatish va boshqalar) yoki ma’muriy ma’lumotlardan (soliq va moliyaviy tekshiruvlar natijalari, ro‘yxatga olish va litsenziyalar berish bo‘yicha ma’lumotlar, ma’muriy registrlar va boshqalar) foydalangan holda baholashga asoslanadi.

Bilvosita usullar baholanayotgan tarmoq faoliyatini ifodalovchi bilvosita ma’lumotlar asosida hisob-kitoblarni amalga oshirish va turli iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishga asoslanadi. Bilvosita usullarga mehnat sarfi bo‘yicha bandlik ko‘rsatkichlari usuli, naqd pul massasi asosida monetar usul, ishlab chiqarish omillari bo‘yicha resurslar asosidagi usul, tovarlarni ishlab chiqarilishidan iste’mol qilinishigacha bo‘lgan harakati asosida tovarlar oqimi usuli va boshqalarni kiritish mumkin.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmini aniqlashda iqtisodiyot tarmoqlarining o‘ziga xos xususiyatlari, mavjud axborotlar manbalari va boshqa ta’sir ko‘rsatuvchi

omillardan kelib chiqib, ma'lum bir usul tanlanadi, shu bilan birga, bevosita va bilvosita usullardan birgalikda keng foydalanish ham mumkin.

Norasmiy iqtisodiyot hajmini hisoblashda axborotlar manbai bo'lib, tarmoqlar statistikasida shakllantiriladigan norasmiy sektorda ishlab chiqarish bo'yicha jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlari va uy xo'jaliklari kuzatuvlarining ma'lumotlari hisoblanadi. Zarur hollarda tanlanma qamrovini oshirgan holda qo'shimcha maxsus kuzatuvlar ham o'tkaziladi. Qishloq xo'jaligi bo'yicha norasmiy iqtisodiy faoliyatni baholashda dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklaridagi:

- qishloq xo'jaligi ekinlari maydonlari;
- chorva mollari va parrandalar bosh soni;
- natura ko'rinishida dehqonchilik (donli ekinlar, sabzavotlar, kartoshka, poliz, meva va rezavorlar v.b.), chorvachilik (go'sht, sut, tuxum v.b.), baliq va o'rmon xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini aniqlash uchun maxsus tanlanma kuzatuvlar o'tkaziladi.

Bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini to'liq yoki qisman sotish uchun, shuningdek, o'z iste'moli uchun ishlab chiqaruvchi uy xo'jaliklari qamrab olinadi. Tanlanma to'plamni shakllantirish uchun asos sifatida faoliyat yuritayotgan dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarining sonidan (bosh to'plam) foydalaniladi. Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bo'yicha bosh va tanlanma to'plamni shakllantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha faoliyat yuritayotgan barcha dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari soni ko'rsatilgan holda hududlar bo'yicha ro'yxati (bosh to'plam) shakllantiriladi. Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari sonini aniqlashda hisobot yilining 1 yanvar holatiga ko'ra 1-DX shakli "Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari faoliyati to'g'risida hisobot" davlat statistika kuzatuvi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Hududlarda dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari sonining har xillagini hisobga olib, tanlanma to'plamni shakllantirishda tanlash foizi tegishli hududdagi ularning sonidan kelib chiqqan

holda aniqlanadi. Bunda barcha hududlarda kuzatuvga tushgan dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari sonining o‘zaro yaqinligi ta’minlanadi. Masalan, hududda jami 8544 birlik dehqon xo‘jaliklari (bosh to‘plam) mavjud va mazkur hududda kuzatuv o‘tkazish uchun tanlash foizi 1,1 foizni tashkil qiladi. Shunday qilib, kuzatuv o‘tkazish uchun hudud bo‘yicha 94 (8544 / 100 x 1,1 = 94) ta xo‘jalik (tanlanma to‘plam) tanlab olinadi.

Ikkinci bosqichda birinchi bosqichda aniqlangan xo‘jaliklar sonidan kelib chiqqan holda hudud bo‘yicha dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari tanlab olinadi va ularning ro‘yxati tuziladi. To‘liqroq qamrovni va ma’lumotlar reprezentativligini ta’minalash maqsadida kuzatiladigan dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari bir nechta mahalla fuqarolar yig‘inlaridan tanlab olinadi. So‘rovlari, kuzatuvlar uchun tanlab olingan barcha dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini to‘liq qamrab olgan holda, shuningdek, ularning yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmaganligidan qat’iy nazar barcha hududlar bo‘yicha o‘tkaziladi.

Tanlanma to‘plam ma’lumotlarini bosh to‘plamga tarqatish har bir hudud va so‘rovnomaning har bir ko‘rsatkichi bo‘yicha tanlov foizidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Masalan, hudud bo‘yicha dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarining umumiyligi soni 8544 birlikni tashkil qiladi, shundan kuzatuvlar uchun 1,1 foiz yoki 94 ta xo‘jalik tanlab olingan. Kuzatuv o‘tkazilgan 94 ta xo‘jalik bo‘yicha umumiyligi 60 sentner don ekinlari hosili olingan (*q*).

Don ekinlari yalpi hosili bo‘yicha tanlanma to‘plam ma’lumotlarini bosh to‘plamga tarqatish quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$Q = \frac{q * 100 \%}{w}$$

bu yerda:

Q – bosh to‘plamdagisi don ekinlari yalpi hosili, sentner;

q – tanlanma to‘plamdagisi don ekinlari hosili, sentner;

w – tanlanma to‘plam qamrovi (bosh to‘plamdagisi ulushi), foiz.

$$Q = \frac{60 * 100 \%}{1,1 \%} = 5454,5$$

Demak, kuzatuv natijalariga ko‘ra, hudud bo‘yicha bosh to‘plamdagি don ekinlarining yalpi hosili 5454,5 sentnerni tashkil etadi. Shu kabi so‘rovnomaning boshqa ko‘rsatkichlari bo‘yicha kuzatuv ma’lumotlari bosh to‘plamga tarqatiladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari turlari kesimida natura ko‘rinishidagi ma’lumotlar narxlar statistikasi ma’lumotlari asosida qiymat ko‘rinishga o‘tkaziladi.

Sanoat tarmog‘i bo‘yicha norasmiy iqtisodiy faoliyat uy xo‘jaliklarining sotish yoki o‘z iste’moli uchun sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishini o‘z ichiga oladi. Uy xo‘jaliklarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi uy xo‘jaliklari budgeti kuzatuvlari ma’lumotlari asosida shakllantiriladi.

Uy xo‘jaliklarining sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishi hajmi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$V_{ux} = \sum \frac{V_i}{K_{kux}} \times K_{ux} \times N_i,$$

bu yerda:

V_{ux} – uy xo‘jaliklarining sanoat ishlab chiqarish hajmi;

V_i – i -tovarni qayta ishlashdan olingan mahsulot (natura ko‘rinishida);

K_{kux} – kuzatilgan uy xo‘jaliklari soni;

K_{ux} – hududdagi barcha uy xo‘jaliklari soni;

N_i – i -mahsulot birligi uchun xarid narxi (bozor narxlarida baholanadi).

Savdo sohasi bo‘yicha norasmiy iqtisodiy faoliyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva mollari va parrandalar hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan tashqari boshqa oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari savdosi bilan tegishli ruxsatnomalarsiz shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini o‘z ichiga oladi. Savdo sohasi bo‘yicha norasmiy iqtisodiy faoliyatni statistik baholashda quyidagi ma’lumotlar manbalaridan foydalilanildi:

- 1-savdo (JSh) (choraklik) “Savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni tanlama kuzatuv so‘rovnomasi” ma’lumotlari;

- 1-bozor (oylik) “Qishloq xo‘jalik mahsulotlari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarni tanlama kuzatuv so‘rovnomasi”;

- 1-bozor (chorva) (oylik) “Chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslarni tanlama kuzatuv so‘rovnomasи”.

Tanlanma kuzatuvda dehqon bozorlarida 50 tadan kam bo‘lmagan va chorva bozorlarida 30 tadan kam bo‘lmagan savdo faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar qamrab olinadi. Kuzatuv natijalarini bosh to‘plamga tarqatish dehqon bozorlaridagi rastalar soni va chorva bozorlaridagi jami olib kirilgan chorva mollari bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi. Kuzatuv uchun tanlangan dehqon bozorlaridagi savdo rastalari soni (har chorakda aniqlik kiritilib boriladi) va chorva bozorlariga olib kirilgan chorva mollari bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar (hisobot davridan keyingi oyning 5-sanasidan kechiktirmay) bozor ma’muriyati ma’lumotlari asosida shakllantiriladi.

Dehqon va chorva bozorlarida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning amalga oshirgan savdo hajmi quyidagi formula asosida baholanadi.

$$t_g = \sum_i (q_i \times p_i) \times m_i \times d_g, \quad i=1,2,\dots,n$$

bu yerda:

t_g – dehqon va chorva bozorlarida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi;

q_i – i -tovar bo‘yicha bir savdo nuqtasiga to‘g‘ri keladigan savdo hajmi;

p_i – kuzatuv natijasida shakllangan i -tovar narxi;

m_i – i -tovar bo‘yicha savdo nuqtalari soni;

d_g – g -bozorning savdo kunlari soni;

g – bozor;

i – tovar.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar (ruxsatnomalarda hujjatiga ega bo‘lgan va ega bo‘lmagan jismoniy shaxslar) tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi choraklik tanlanma kuzatuvlar asosida baholanadi. Bunda soliq organlarida jami ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyatini to‘xtatmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarning 10 foizdan kam bo‘lmagan qismi o‘rganiladi.

Ruxsatnomaga hujjalariiga ega bo‘limgan jismoniy shaxslar soni kuzatuv jarayonida aniqlangan ruxsatnomaga ega bo‘limgan va bo‘lgan jismoniy shaxslarning o‘zaro nisbatini soliq organlarida jami ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyatini to‘xtatmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar soniga ko‘paytirish orqali aniqlanadi. Ruxsatnomaga hujjalariiga ega bo‘limgan jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi quyidagi formula asosida baholanadi.

$$Q_i = k_i \times q_i, \quad i = 1, 2, \dots, n$$

bu yerda:

k_i - i-tovar bo‘yicha hisobot davrida ruxsatnomaga hujjalariiga ega bo‘limgan jismoniy shaxslar soni;

q_i - tanlanma kuzatuv ma’lumotiga asosan ruxsatnomaga hujjalariiga ega bo‘limgan jismoniy shaxslarning i-tovar bo‘yicha hisobot davridagi tovar aylanmasi hajmi.

Xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiy faoliyat belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi va iste’molchilarga bozor xizmatlari (yuk va yo‘lovchi tashish, repetitorlar va boshqa ta’lim xizmatlari, tibbiy xizmatlar, turar va noturar joylarni ijaraga berish, maishiy xizmatlar v.b.) ni ko‘rsatuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini o‘z ichiga oladi. Xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiy faoliyatni statistik baholashda quyidagi ma’lumotlar manbalaridan foydalaniladi:

- 4-xizmat (jsh) (choraklik) “Bozor xizmatlarini ko‘rsatuvchi jismoniy shaxslar bo‘yicha so‘rovnama” ma’lumotlari;

- 4-tr (yat) (choraklik) “Shaxsiy avtotransport egalarining tashish faoliyati to‘g‘risida so‘rovnama” ma’lumotlari.

Kuzatuv bozorlar, bozor hududlari, mahallalar, guzarlar, ish va yashash joylari, uy xo‘jaliklari hamda maxsus mo‘ljallangan joylarda va boshqa ob’ektlarda amalga oshiriladi.

Ruxsat beruvchi hujjalarga ega bo‘limgan (ro‘yxatdan o‘tmagan) jismoniy shaxslar bo‘yicha xizmatlar hajmini baholash quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$V_n = V_{nI} * L_{ns},$$

$$L_{js} = \frac{L_{rs}}{W_{ru}} * 100\%,$$

$$L_{ns} = L_{js} - L_{rs},$$

bu yerda:

V_n – ro‘yxatdan o‘tmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarning ko‘rsatgan xizmatlari hajmi;

V_{nI} – kuzatuv bo‘yicha ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo‘lmagan bitta tadbirkorga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xizmatlar hajmi;

L_{ns} – ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo‘lmagan jismoniy shaxslar soni;

L_{js} – hisobot davrida xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jami jismoniy shaxslar soni;

L_{rs} – soliq organlari ma’lumotlari bo‘yicha ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar soni;

W_{ru} – kuzatuv ma’lumotlari bo‘yicha hisobot davrida ro‘yxatdan o‘tgan jismoniy shaxslarning ulushi.

Tanlanma kuzatuvlar asosida olingan ma’lumotlarni haqqoniyligi va xolisligini nazorat qilish maqsadida boshqa statistik ma’lumotlar, jumladan, uy xo‘jaliklari kuzatuvi, tarmoqlar statistikasi kuzatuvlari va shu kabi boshqa kuzatuvlar ma’lumotlari bilan taqqoslanadi.

Norasmiy iqtisodiy faoliyat bo‘yicha qo‘shilgan qiymat hajmi ishlab chiqarish va oraliq iste’mol o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi. Norasmiy iqtisodiy faoliyat bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi yuqorida keltirib o‘tilgan tarmoqlar bo‘yicha tanlanma kuzatuvlar natijalari asosida hisoblanadi. Oraliq iste’mol hajmi esa ishlab chiqarish hajmini ekspert baholangan oraliq iste’mol koeffitsienti (oraliq iste’molning ishlab chiqarishdagi ulushi)ga ko‘paytirish orqali aniqlanadi. Norasmiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarishda oraliq iste’mol ulushi yillik milliy hisoblarda tegishli faoliyat turlari bo‘yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun hisoblangan oraliq iste’mol ulushiga teng deb qabul qilinadi.

Yashirin iqtisodiy faoliyat hajmini baholashda yuridik shaxslarning faoliyati bo‘yicha maxsus kuzatuvlar o‘tkazish muhim o‘rin tutadi. Bunda maxsus tanlanma

kuzatuvlardan olingen natijalar mavjud rasmiy statistika kuzatuvlari ma'lumotlari bilan taqqoslanadi, tahlil qilinadi hamda yuridik shaxslar faoliyatini ifodalovchi bilvosita ma'lumotlar asosida hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida yashirin iqtisodiyotni o'rganish maqsadida amalga oshiriladigan maxsus tanlanma kuzatuvlar iqtisodiy faoliyat turidan kelib chiqib, kuzatuv ob'ektlari, maqsadlari va so'rovnomalarning tarkibi jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Qishloq xo'jaligi bo'yicha yashirin iqtisodiyotni baholashda fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari tasarrufidagi qishloq xo'jaligi ekinlari, ko'p yillik daraxtlar maydonlari, chorva mollari va parrandalar bosh soni, baliq ovlash, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini aniqlash uchun maxsus tanlanma kuzatuvlar o'tkaziladi. Tanlanma to'plamni shakllantirish uchun asos (bosh to'plam) sifatida faoliyat yurituvchi fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari sonidan foydalaniladi. Fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining tanlanma to'plamini shakllantirish uch bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan barcha fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari (IFUT-2) bo'yicha ajratilgan holda hududlar ro'yxati shakllantiriladi. Fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari sonini aniqlash uchun 1 yanvar holatiga ko'ra 1-FX "Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", 1-QX "Qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", 1-KBQX "Kichik korxona va mikrofirmalarning qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot" ma'lumotlaridan hamda Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYADR) ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Hududlarda fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari sonining har xilligini hisobga olib, tanlanma to'plamni shakllantirishda tanlash foizi tegishli hududdagi ularning sonlariga mutanosib ravishda aniqlanadi, bunda barcha hududlarda kuzatiladigan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari sonini bir xil foizda tanlash ta'minlanadi. Masalan, hududda jami 662 birlik fermer

xo‘jaliklari (bosh to‘plam) mavjud, jadval ma’lumotlari bo‘yicha mazkur hududda bitta davrda kuzatuv o‘tkazish uchun tanlash foizi 8,0 foizni tashkil qiladi, shunday qilib, kuzatuvlarni o‘tkazish uchun hudud bo‘yicha 53 ($662 / 100 \times 8,0 = 53$) ta xo‘jalik (tanlanma to‘plam) tanlab olinadi.

Ikkinchi bosqichda birinchi bosqichda hisoblangan xo‘jalik va korxonalar soniga asosan har bir hudud bo‘yicha mazkur Uslubiy nizomning 8-bandida ifodalangan tamoyillarga muvofiq fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari tarkibini (tanlanma to‘plam) tanlash amalga oshiriladi. Kuzatuvlar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari tarkibini tanlashda hudud bo‘yicha tegishli sub’ektlarning umumiyligi soniga hisoblangan tanlash foizidan foydalaniladi.

Kuzatiladigan fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tanlanadi hamda ular fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalarining barcha iqtisodiy faoliyat turlarini to‘liq qamrab olinishini ta’minlashi zarur.

Uchinchi bosqichda ikkinchi bosqichda hisoblangan xo‘jalik va korxonalar soniga asosan kuzatuvlarni o‘tkazish uchun tanlab olingan fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalarining MHOBT, KTUT, STIR, xo‘jalik va korxonalar nomi, IFUT-2 tasnif kodlari ko‘rsatilgan holda ro‘yxat tuziladi. Axborotlarni yig‘ish qat’iy ravishda kuzatuvlar uchun tanlab olingan fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalarini qamrab olgan holda barcha hududlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Tanlanma kuzatuv ma’lumotlarini bosh to‘plamga tarqatish har bir hudud, IFUT-2, shuningdek, savolnomaning har bir ko‘rsatkichi bo‘yicha tanlov foiziga mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Masalan (don ekinlari asosida), hudud bo‘yicha fermer xo‘jaliklarining umumiyligi soni 662 birlikni tashkil qiladi, shundan, kuzatuvlar uchun 8,0 foiz yoki 53 xo‘jalik tanlab olingan.

Kuzatuv o‘tkazilgan 53 xo‘jalik bo‘yicha umumiyligi hajmda 265 sentner don ekinlari hosili olingan (*q*).

Yig‘ib olingan don ekinlari yalpi hosili bo‘yicha tanlanma to‘plam ma’lumotlarini bosh to‘plamga (G) tarqatish quyidagi formuladan foydalangan holda amalga oshiriladi:

$$Q = \frac{q * 100 \%}{w}$$

bu yerda:

Q – bosh to‘plamdagи don ekinlari yalpi hosilining yig‘indisi, sentner;

q – tanlanma to‘plamdagи don ekinlari yalpi hosili hajmining yig‘indisi, sentner;

w – bosh to‘plamdan tanlanma to‘plamdagи xo‘jaliklarni tanlash foizi.

$$Q = \frac{265 * 100 \%}{8,0 \%} = 3312,5$$

Demak, kuzatuv natijalariga ko‘ra hudud bo‘yicha bosh to‘plamdagи don ekinlarining yalpi hosili 3312,5 sentnerni tashkil qiladi.

Shu kabi so‘rovnomaning boshqa ko‘rsatkichlari bo‘yicha kuzatuv ma’lumotlari bosh to‘plamga tarqatiladi.

Kuzatuv natijalari asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblar bosh to‘plamga keltirilib, joylardagi fermer xo‘jaliklar va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan taqdim etilgan davlat statistika hisoboti ma’lumotlari bilan solishtiriladi. Yuzaga kelgan farq hisobot taqdim etuvchi sub’ektlar tomonidan yashirilgan deb baholanadi va uning ulushi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Y_i = \frac{Q_i}{H_i} * 100 \%$$

bu yerda:

Y_i – i -mahsulot turi kesimida hisobot taqdim etgan sub’ektlar tomonidan yashirilgan hajm;

Q_i - i -mahsulot turi kesimida kuzatuv natijalarining bosh to‘plamga keltirilgan hajmi;

H_i - i -mahsulot turi kesimida sub’ektlar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi.

Bu formula bilan o‘zaro ikki ma’lumotning nisbiy ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

2.2-§. Yashirin iqtisodiyotni bandlik ko‘rsatkichlari va soliq tekshiruvi natijalaridan foydalanish usullari orqali baholash

Yashirin iqtisodiyotni baholash ro'yxatdan o'tmagan yirik ishlab chiqaruvchilarni ham, o'z hisobotlarida ataylab yolg'on ma'lumotlarni taqdim etgan yuridik shaxslarni ham baholashni o'z ichiga oladi. Xalqaro tajribaga tayangan holda, turli xil iqtisodiy faoliyatlar bo'yicha yashirin iqtisodiyot darajasini aniqlash uchun bandlik ko'rsatkichlari va soliq tekshiruvi natijalarini tahlil qilish kabi usullar qo'llaniladi.

Daromad, qo'shilgan qiymat va boshqa soliqlarni yoki ijtimoiy sug'urta badallarini to'lashdan qochish maqsadida ishlab chiqarish hajmlarini ataylab kam hisobot bergen yoki oraliq iste'molni oshirib yuborgan yuridik shaxslar uchun soliq tekshiruvlari orqali yashirin iqtisodiyotning hajmi aniqlanadi. Bunday yondashuvda soliq organlari ma'lumotlaridan foydalangan holda har bir iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha yashirin iqtisodiyot hajmi hisoblab chiqiladi. Keyinchalik qo'shilgan qiymat aniq iqtisodiy faoliyat uchun milliy hisoblarda ko'rsatilgan oraliq iste'mol nisbati asosida aniqlanadi.

Bu usulda hisobot davrida soliq nazorat tekshiruvi paytida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha aniqlangan qo'shimcha hisoblangan QQS, shuningdek, qayta hisoblash uchun ariza berilgan QQS miqdori bo'yicha ma'lumotlar hamda milliy hisoblarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hisoblangan oraliq iste'mol ulushi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniadi.

Soliq tekshiruvi natijalaridan foydalanish usuli quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Hisobot davri uchun *qo'shimcha hisoblangan QQS miqdori* soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha har bir iqtisodiy faoliyat turi uchun alohida aniqlanadi:

$$S_q = S_j - S_a - S_k,$$

bu yerda:

S_q – tekshiruv natijasida qo'shimcha hisoblangan QQS, mln.so'm;

S_j – hisobot davrida jami qo'shimcha hisoblangan QQS, mln.so'm;

S_a – qo'shimcha hisoblangan QQSdan qayta ko'rib chiqish uchun ariza berilgan qismi, mln.so'm;

S_k – soliq tekshiruvlari natijasida soliq to'lovining kamaygan qismi, mln.so'm.

Har bir iqtisodiy faoliyat turi uchun alohida *huquqbazarlik koeffitsienti* hisoblanadi:

$$k_h = \frac{q_h}{q_t} * \frac{q_t}{\sum q_t}$$

bu yerda:

k_h – huquqbazarlik koeffitsienti, foiz;

q_h – soliq tekshiruvi natijasida huquqbazarliklar aniqlangan QQS to'lovchilari soni;

q_t – soliq tekshiruvlari o'tkazilgan QQS to'lovchilari soni.

Huquqbazarlik koeffitsienti har bir iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha alohida QQS to'lovchilari soniga nisbatan qo'llaniladi va *tekshiruv o'tkazilganda huquqbazarlik aniqlanishi mumkin bo'lgan soliq to'lovchilar soni* aniqlanadi:

$$q_{a.h} = q_q * k_h,$$

bu yerda:

$q_{a.h}$ – tekshiruv o'tkazilganda huquqbazarlik aniqlanishi mumkin bo'lgan soliq to'lovchilar soni;

q_q – QQS to'lashi kerak bo'lgan soliq to'lovchilar soni.

1) Soliq tekshiruvlari natijasida huquqbazarlik aniqlangan bitta korxonaga to'g'ri keladigan qo'shimcha hisoblangan QQS miqdori har bir iqtisodiy faoliyat turi uchun alohida hisoblanadi.

$$S_{q1} = \frac{S_q}{q_h}$$

bu yerda:

S_{q1} – huquqbazarlik aniqlangan bitta korxonaga to'g'ri keladigan qo'shimcha hisoblangan QQS miqdori, mln.so'm.

2) Bitta korxonaga to‘g‘ri keladigan qo‘srimcha hisoblangan QQS miqdoridan kelib chiqib, qo‘srimcha hisoblangan QQS miqdori har bir iqtisodiy faoliyat turi uchun alohida kuzatuv bosh to‘plamiga nisbatan qo‘llaniladi.

$$S_{q.b} = S_{q1} * q_{a.h},$$

bu yerda:

$S_{q.b}$ – bosh to‘plamga nisbatan qo‘llangan qo‘srimcha hisoblangan QQS miqdori, mln.so‘m.

3) Qo‘srimcha hisoblangan QQS miqdorini amaldagi QQS solig‘i stavkasi (15 %) ga nisbati orqali *yashirin ishlab chiqarish hajmini* aniqlanadi.

$$I_y = \frac{S_{q.b}}{15} * 100 \%$$

bu yerda:

I_y – hisobot davri uchun tekshiruvlar natijasida aniqlangan yashirin ishlab chiqarish hajmi, mln.so‘m.

Oraliq iste’mol ulushi hisobot davri uchun milliy hisoblarda tegishli iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha qabul qilingan oraliq iste’mol ulushiga teng bo‘ladi.

Yalpi qo‘silgan qiymat ishlab chiqarish va oraliq iste’mol orasidagi farq bilan hisoblanadi. Yuqoridagi soliq tekshiruvi natijalaridan foydalanish usuli QQSdan boshqa soliq turlari bo‘yicha ham qo‘llanilishi mumkin.

Statistik hisob-kitoblarda iqtisodiy operatsiyalarni to‘liq qamrab olmaslik yalpi ichki mahsulot va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni kamaytirib ko‘rsatilishiga va iqtisodiyot haqida noto‘g‘ri tasavvur paydo bo‘lishiga olib keladi. Shuningdek, ushbu holat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni xalqaro taqqoslashlarga ham to‘sinqinlik qiladi. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni qamrab olish milliy hisoblar statistikasining to‘liqligi, sifatlilagini va o‘zaro muvofiqligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ma’lumotlar qamrovini kengaytirish va tahliliy imkoniyatlarini oshirish maqsadida zarur hollarda norasmiy yoki yashirin faoliyat yurituvchi yuridik va jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish faoliyatini bat afsil o‘rganish bo‘yicha maxsus tanlanma kuzatuvalar o‘tkazilishi hamda qo‘srimcha ma’muriy manbalardan foydalanilishi mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari soliq to‘lovchilar tomonidan huquqni suiiste’mol qilish holatlariga qarshi kurashish va qonunbuzarliklar natijasida to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlarni to‘lamaslik oqibatida budjetga zarar yetkazish orqali asossiz soliq nafini olishga qaratilgan huquqbazarliklarni oldini olish samaradorligini oshirish bo‘yicha uslubiyot ham mavjudki, uning ayrim jihatlarini keyingi tahlillarimizda imkon qadar ko‘rib chiqamiz.

Mazkur bandga nisbatan umumiy xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, soliq tizimining instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotning ko‘rinishlarini baholash (aniqlash) mumkin bo‘lsa, soliq tizimining elementlari hamda ko‘rsatkichlari orqali uning darajasini qisqartirishga xizmat qilishi mumkin. O‘zbekiston soliq tizimida soliq instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va uning oldini olishga oid amaliyotni ham tahlil qilish lozimki biz bu holatlarni quyidagi tahlillarimizda amalga oshiramiz.


2.2. Soliq tizimida soliq bazasi orqali xufyona iqtisodiyotni aniqlash va uni qisqartirish amaliyotining tahlili

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, umumiy olganda, xufyona iqtisodiyot iqtisodiyot uchun garchi ayrim iqtisodchilar uning ijobjiy jihatlarini ta’kidlagan bilan bir qator u salbiy holat hisoblanadi. Bu jarayonda soliq tizimi o‘zining instrumentlari orqali uning oldini olish va mavjudlari (vujudga kelganlari)ni qisqartirish hamda bartaraf etishda o‘ziga xos ahamiyatga egadir. Biz ularni quyidagi rasmda ko‘rsatishga harakat qilamiz.

Ta’kidlash kerakki, soliq tizimida ro‘yxatdan o‘tmasdan faoliyat ko‘rsatish va soliq bazasini yashirish bularning orasida eng ko‘p faol bo‘lgan holat hisoblanadi. Ro‘yxatdan o‘tmasdan faoliyat ko‘rsatish asosan davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan umum-ovqatlanish, savdo, ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish nuqtasi tashkil etish orqali tovar va xizmat realizatsiyasini amalga oshirish, davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan, elektron platforma va mesenjerlar orqali savdo (xizmat) ko‘rsatish, o‘ziga tegishli ko‘chmas (ko‘char) mulkni ijara ga berish bo‘yicha shartnomalarni hamda ular bo‘yicha olingan daromadni soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tkazmaslik, QQS guvohnomasi mavjud bo‘lmadan QQS bilan EXF rasmiylashtirish, QQS

maxsus guvohnomasi nofaol bo‘lishi kabi holatlar amaliyotda ko‘p qo‘llanilsa, soliq bazasini yashirish doirasida esa, realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini hisob hujjatlarida haqiqatda realizatsiya qilingan qiymatidan pasaytirilgan narxlar bo‘yicha aks ettirish, yuklarni tovar-kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirmsandan yoxud soxta hujjatlar bo‘yicha tashish, tovarlarni sotishdan (xizmat ko‘rsatishdan) olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o‘tkazish (sotish hajmini va daromadni (foydani) qasddan kamaytirish) kabi yo‘nalishlarda kuzatilmoque.

Soliq tizimining instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotning oldini olish va uning hajmini qisqartirish turlari



2.1.-rasm. Soliq tizimining instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotning oldini olish va uning hajmini qisqartirish turlari³⁷

2.1-jadval.

³⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

O‘zbekistonda qurilish korxonalarida soliq to‘lamaslik bilan bog‘liq xufyona iqtisodiyotning vujudga kelishi tahlili³⁸ (mlrd.so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2020-yil		2021-yil		2022-yil	
	Holat soni	Xavf summasi	Holat soni	Xavf summasi	Holat soni	Xavf summasi
Davlat soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish	268	2871,6	114	1462,3	159	953,7
Litsenziya talab etilayotgan faoliyat turlarini litsenziyasiz amalga oshirish	59	1897,2	61	1741,2	42	956,7
Davlat soliq organlariga hisobotlarni topshirmaslik yoki o‘z vaqtida topshirmaslik	451	849,2	254	645,3	319	989,7
Narxlarni pasaytirib ko‘rsatish orqali soliq bazasini yashirish	65	2471,3	48	1991,8	25	1054,9
Soliqlarni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik maqsadida korxona faoliyatiga tegishli bo‘lmagan imtiyozlardan foydalanish	21	365,7	11	198,2	19	189,7
QQS bo‘yicha "O" nol stavkadan foydalanish maqsadida kirimsiz tovarlarni eksport qilish	38	658,6	17	439,8	14	431,6


Ushbu keltirilayotgan 2.1-jadvalda shu narsani ko‘rish mumkinki, yuqorida 2.1-rasmda keltirilgan soliq tizimining instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotning oldini olish va uning hajmini qisqartirish turlari O‘zbekistonda qurilish korxonalarida soliq to‘lamaslik bilan bog‘liq xufyona iqtisodiyotning vujudga kelishi tahlili doirasida tahlil qilingan. Ya’ni, ushu jadvaldan ko‘rish mumkinki, respublikamizda xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelishi nisbatan yuqoriq deb baholanayotgan qurilish sohasidagi korxonalar misolida davlat soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish garchi 2020-yilda 268 tadan 2022-yilga kelib 159 tani tashkil etgan holda kamaygan bo‘lsada, uning oqibatida soliq bazasining kamayishi ham sodir bo‘lgan bo‘lsada, umumiy holda tashvishli hol hisoblanadi. Ro‘yxatdan o‘tmasdan faoliyat ko‘rsatish iqtisodiyot uchun ham ijtimoiy jihatdan ham salbiy holat hisoblanadi. Aynan shundan holatlarni narxlarni pasaytirib (ko‘paytirib) ko‘rsatish orqali soliq bazasini yashirish jihatidan ham tahlil qiladigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich ham 2020-yilda 65 tani, 2021-yilda 45 tani va 2022-yilda 25 tani tashkil qilgan holda umumiy tendensiya kamayishni

³⁸ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

ko‘rsatsada, soliq bazasini yashirib ko‘rsatish davlat budgetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi. Aslini olganda esa, bu ko‘rsatkichlarning mavjudligi soliq tizimida xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashishda instrumentlardan samarali foydalanish lozimligini ko‘rsatadi.

Qurilish korxonalarining tashkiliy va undagi texnologik jarayonlar hamda uyjoy va boshqa binolarni qabul qilish jarayoni hamda ularning realizatsiya qilinish xususiyatlari shuni ko‘rsatmoqdaki, ularda soliq bazasini yashirish holatlariga keng imkoniyatlar yaratilishi yuzaga kelmoqda. Shu boisdan bizning fikrimizcha, bu jarayonlarni to‘g‘ri tartiblash va bu kabi korxonalarda soliq bazasini yashirish orqali xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqarish oldini olish maqsadida integratsion dasturiy platformani kuchaytirishni taqozo etadi.

1. Rasmiylashtirilmagan (kirim qilinmagan) tovarlarni saqlash, ulardan foydalanish va realizatsiya qilish (Obnal)




Misol uchun: Toshkent shaxar “SARVARBEK QURILISH BUSINESS” MChJ Qurilish mollari xarid qilinmasdan (Korxona kirimida: idish tovoq, trikotaj va avto ehtiyyot qismlari) realizatsiyada 130 mlrd.so‘mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan. 2023 yil yakuni bo‘yicha taqdim qilingan buxgalteriya balansi hisobotida tovarlar qoldig‘i mavjud emas. Xarid qilingan 142 mlrd.so‘mlik tovarlarni naqd pulga realizatsiya qiligan holda naqdlashtirish bilan shug‘ullanganligi shubha qilinmoqda.

2.2.-rasm. Qurilish korxonalarida QQS bo‘yicha soliq bazasini yashirishda qo‘llanilayotgan sxemalar³⁹

³⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

3. Bajarilgan ishlar uchun olingan mablag‘larga EHF rasmiylashtirmaslik

Bir nechta ob’ektlarda Qurilish pudrat ishlarini bajarish



2023-yil yakuni bo'yicha 2 265ta korxona hisobotlarda 20,6 trln.sum tovar aylanmani ko'rsatishgan bo'lsada, hisob raqamlariga 38,9 trln.sum kelib tushgan (18,3 trln so'm yashirib qo'sratilgan). Misol uchun, Toshkent shaxri "ABSOLUTE BUSINESS TRADE" MChJ hisobraqamiga 1,7 trln.so'm pul mablag'larini kelib tushganiga qaramasdan, korxona soliq hisobotlarida 612,6 mlrd.so'mlik realizatsiya aks ettirgan. 1,1 trl.so'mlik realizatsiya hisobotlarda aks ettirilmasdan qolgan.

2.2.-rasm. Qurilish korxonalarida QQS bo'yicha soliq bazasini yashirishda qo'llanilayotgan sxemalar⁴⁰

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 30-oktyabr 2020-yildagi PF-6098-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida o'ndan ortiq yangi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va ushbu jarayon davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5087-sun, 24-avgustdaggi PQ-5231-sun qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi 863-sunli, 2021-yil 7-yanvardagi 1-sun, 28-apreldagi 249-sun, 19-avgustdaggi 529-sun hamda 22-sentyabrdagi 595-sun qarorlari va shu kabi qonunosti me'yoriy hujjatlarda respublikamizda xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va uning oldini olishda soliq tizimiga ham bir qator vazifalar belgilab berilgan va ular bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilmoqda.

Bugungi kunda qurilish sohasida xufyona iqtisodiyot ulushi 50 foizni tashkil qilib, ko'chmas mulk ob'ektlari jismoniy shaxslarga naqd pulga sotilishida sotish narxini kamaytirib ko'rsatish holatlari keng tarqalgan.

Tahlillarga asosan 2023-yilda 1208 ta qurilish korxonasi tomonidan 23 209 ta ob'ekt bozor narxidan past qiymatlarda realizatsiya qilingan va natijada budgetga

⁴⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

110,8 mlrd.so‘m QQS to‘lanmagan. Agar, buni ayrim xorijiy davlatlar, masalan, Ozarbayjon davlati misolida qaraydigan bo‘lsak, bu yerda yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarga ko‘chmas mulkni sotish faqat elektron hisobvaraq-fakturalar orqali (naqd pulsiz shaklda) amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan. 2022-yilda 732 ta korxonalarning 29 191 ta ob’ekti 8 162,9 mlrd.so‘mga realizatsiya qilinganligi notarial tasdiqlangan bo‘lsa, hisobotlarda 6 161,4 mlrd.so‘mga EHF rasmiylashtirilganligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu korxonalarning 2 001,5 mlrd.so‘mlik 11 963 ta ob’ekti EXF rasmiylashtirilmagan yoki kamaytirib ko‘rsatilgan. Natijada 732 ta korxonada 238,3 mlrd.so‘mlik soliq summasi hisoblanmay qolgan. Misol uchun, “Perfect universal servic” MChJ 2022- yilda 60 ta 19,8 mlrd.so‘mlik ob’ekt realizatsiyasini notarial rasmiylashtirgan bo‘lsa, hisobotda 6,2 mlrd.so‘m ko‘rsatilgan (EXF mavjud) ya’ni 13,6 mlrd.so‘mga EXF rasmiylashtirmagan yoki kamaytirib ko‘rsatgan.

Shaffof qurilish platformasida 2023-yilda 923 ta korxonalar qiymati 11 358,2 mlrd.so‘mlik qurilish montaj ishlarini yakunlagan bo‘lib, shundan 157 tasida 779,8 mlrd.so‘mlik soliq bazasi hisobotlarda aks ettirilmagan yoki 101,7 mlrd.so‘m QQS hisoblanmasdan qolgan. Misol uchun, Shaffof qurilish platformasi ma’lumotlariga asosan Jizzax viloyatidagi “Mukammal qurilish savdo” MChJ 2023-yilda qiymati 56,7 mlrd.so‘mlik 15 ta qurilish ob’ektini yakunlangan bo‘lib, soliq hisobotlarida 32,6 mlrd.so‘mlik ish bajarilganligi ko‘rsatilgan. Natijada 24,1 mlrd.so‘mlik soliq bazasi kamaytirilganligi hisobiga 3,6 mlrd so‘m soliqlar hisoblanmasdan qolgan.

Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda fermer va dehqon xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan 75 trln.so‘mlik (paxta va g‘alladan tashqari) qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan faqat 7 trln.so‘mi elektron hisobvaraq-fakturalar asosida realizatsiya qilingan hamda budgetga 88 mlrd so‘m QQS to‘langan. Respublikada qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, baliqchilik va parrandachilik sohasini rivojlantirish uchun 2023-yilda 1 095,5 mlrd.so‘m subsidiyalar ajratilgan. Shuningdek, 2020-yil 1 yanvardan boshlab qishloq xo‘jaligi mahsulotlari realizatsiyasini yashirilgan summasining 6 foizi miqdorida moliyaviy jarima qo‘llanilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-iyundagi PF-90-son Farmoniga asosan Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan “Agrar va oziq-ovqat sohasidagi vaziyatni baholash” elektron platformasi va “Agroplatforma” axborot tizimi ishlab chiqilmoqda. Ushbu axborot tizimi va platformasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar to‘g‘risida barcha ma’lumotlarni hisobini yuritish nazarda tutilgan. Shunga, ko‘ra mazkur tartibni joriy etilishi ushbu tizimlarda ma’lumotlarni to‘liq shakllantirish imkonini yaratadi.

2.2-jadval.

Xufyona iqtisodiyotni aniqlashda qo‘llaniladigan O‘zbekistonda qurilish korxonalarining iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari va ularning tahlili⁴¹ (mlrd.so‘m)

Nº	Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
1	Jami qurilish korxonalari soni	14 802	17 830	21 446	32 632
2	Soliq hisobotlarida ko‘rsatilgan aylanma	49 037,3	61 389,6	101 181,5	121 815,8
3	Bank ma’lumotlariga asosan yirik pul tushumlari	29 228,0	30 221,1	46 223,6	58 955,2
4	Ishchi soni	219 755	258 550	289 491	264 054
5	FOT	5 345,0	6 599,9	8 370,3	9 944,5
6	O‘rtacha 1 ta ishchiga to‘g‘ri keladigan 1 oylik ish haqi (mln so‘m)	1,0	1,1	1,4	1,9
7	Jami o‘tkazilgan soliq tekshiruvlari soni	84	3 599	7 640	1 628
	sayyor soliq tekshiruvi	0	31	518	123
	kameral soliq tekshiruvi	2	3 447	6 768	1 409
	soliq audit	82	121	354	96
8	Xufyona iqtisodiyotni aniqlash doirasida qo‘srimcha hisoblangan soliq summasi	234	2096	2578	1061

Ushbu keltirilgan 2.2-javdaldan ko‘rish mumkinki, respublikamizda 2019-2022-yillarda mavjud o‘rtacha, 30 mingga yaqin qurilish korxonalarida soliq hisobotlarida ko‘rsatilgan aylanma va bank ma’lumotlariga asosan yirik pul tushumlari o‘rtasida farq qariyib, 2 martadan ortiq bo‘lganligi bu kabi korxonalarda xufyona iqtisodiyotning ortib borishini ko‘rish mumkin. Ushbu korxonalarga oid o‘tkazilgan soliq nazoratlari natijasida xufyona iqtisodiyotni aniqlash doirasida qo‘srimcha hisoblangan soliq summasi 2019-yilda 234 mlrd.so‘mni tashkil etgan

⁴¹ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

bo‘lsa, 2020-yilda uning miqdori juda oshgan holda 2096 mlrd.so‘mni tashkil etgan, ko‘rilgan tashkiliy va amaliy mexanizmlarning natijasi o‘laroq, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan qariyib 60 foizga yoki 1517 (2578-1061) mlrd.so‘mga kamaygan.

Ma’lumki, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi 471-son qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagи 489-son qarori bilan tasdiqlangan Hisobvaraq-fakturalarning shakllari hamda ularni to‘ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni 59 "1"-bandida uzoq muddatli shartnomalar bo‘yicha daromadlarga bir tomonlama elektron hisobvaraq-faktura rasmiylashtirish belgilangan.

Soliq kodeksining 248-moddasi 7-qismiga muvofiq, ob’ektlarni qurishda, shu jumladan, ob’ektlarni foydalanish uchun tayyor qilib qurishda, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlarni, shuningdek uzoq texnologik (bir hisobot davridan ortiq) davriylikdagi boshqa uzoq muddatli shartnomalarni bajarishda soliq bazasi har bir kalendar oyning oxirida haqiqatda bajarilgan ishlar hajmining ushbu Kodeksning 303-moddasiga muvofiq soliq bazasi kiritilmagan holda aniqlanadigan qiymati asosida aniqlanishi belgilangan. Bunda, qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i soliqlarini aniqlashda soliq bazasi kiritildi.

Korxonalar hisobotlari o‘rganishda 2023-yil 31-dekabr holatiga balansda mavjud bo‘lgan, biroq qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobotida 370 ta holatda qiymati 2 722,4 mlrd.so‘m miqdorda tugallanmagan qurilish ishlari qoldig‘i bo‘yicha soliq hisoblanmaganligi ma’lum bo‘ldi. Natijada 2023 yil uchun qurilish korxonalari jami 4086,9 mlrd.so‘m miqdorida qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanmaganligi (to‘lanmaganligi) aniqlandi.

Ushbu tahlillar fikrimizcha, qurilish tashkilotlarining (shu jumladan markazlashgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilayotgan ob’ektlar bo‘yicha) xaqiqatda bajarilgan ishlari xajmini yashirish va ishchi sonini pasaytirib ko‘rsatish xavfini oldini olish yuzasidan kompleks chora tadbirlar ishlab chiqib amaliyotga joriy qilishni taqozo etadi.

2.3-jadval

O‘zbekistonda sement ishlab chiqaruvchi korxonalarda aniqlangan xufyona iqtisodiyot kesimida mahsulotning kirim qilinmasligi oqibatida soliq tushumlarining yo‘qotilish tahlili⁴² (mlrd so‘m)

Hududlar	Korxona soni	2022-yil		2023-yil		2022-2023-yillarda realizatsiya qilingan sement narxlardan kelib chiqib o‘rtacha hisoblanganda yetarlicha kirim qilinmagan sement qiymati	Kirimsiz sement realizatsiya qilganlik holatlari o‘z tasdig‘ini topganda qo‘simecha hisoblanishi mumkin bo‘lgan foyda solig‘i
		jami kirim, tonna	jami realizatsiya, tonna	jami kirim, tonna	jami realizatsiya, tonna		
Jami:	262	718751,9	1 274 372,6	491023,2	516 583,8	359 471,4	53 920,7
QQR	16	12515,3	184 408,2	17113,2	21 550,7	101 064,4	15 159,7
Andijon viloyati	18	26 259,3	64 252,6	3 189,5	2 020,0	22 499,5	3 374,9
Buxoro viloyati	15	1 936,7	22 938,1	1 775,1	3 663,8	13 539,8	2 031,0
Jizzax viloyati	8	0,0	5 475,1	366,7	0,0	3 211,4	481,7
Kashkadaryo viloyati	20	76956,7	94 010,5	83823,2	78 003,7	9 729,0	1 459,4
Navoiy viloyati	14	62478,1	75 567,0	42710,6	40 740,2	7 562,5	1 134,4
Namangan viloyati	12	14848,4	26 905,8	16 226,4	17 758,7	7 487,3	1 123,1
Samarkand viloyati	21	17544,2	44 848,8	696,4	3 008,2	17 030,1	2 554,5
Sirdaryo viloyati	2	2 125,2	3 618,0	320,0	0,0	834,4	125,2
Surxondaryo viloyati	41	30928,1	61 794,5	2 110,4	3 344,9	18 746,2	2 811,9
Toshkent viloyati	14	211137,5	263 119,3	201831,8	200 506,1	30 273,8	4 541,1
Fargona viloyati	19	93 467,8	145 388,8	36 699,6	44 549,1	33 802,8	5 070,4
Xorazm viloyati	12	65 317,1	106 288,4	9 459,9	44 025,6	44 303,2	6 645,5
Toshkent shahri	50	103237,7	175 757,5	74 700,4	57 412,7	49 386,9	7 408,0

Ayrim manbalarga ko‘ra, “so‘nggi yillarda mamlakatda sement ishlab chiqarish quvvati 1,8 baravar — 2019-yildagi 15,1 mln tonnadan 2023-yilda 26,7 mln tonnagacha oshgan. Bu davrda ishlab chiqarish hajmi 1,4 baravarga — 10,9 mln tonnadan 15,2 mln tonnagacha oshdi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 35 ta sement zavodi faoliyat yuritadi va ularning ishlab chiqarish quvvati 26,7 mln tonnani tashkil etadi (32,7 million). Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakat korxonalari sementga bo‘lgan ichki talabning 92 foizini qoplaydi (2019-yilda bu ko‘rsatkich 79 foiz edi). 2020–2023-yillarda birjada sementning o‘rtacha narxi yetarli hajm tufayli atigi 4,6 foizga — bir tonna uchun 626 ming so‘mdan 655 ming so‘mgacha oshgan. 2024-yilda zavodlar quvvati 30 foizga yoki 7,9 mln tonnaga — 34,6 mln

⁴² Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida mualif tomonidan hisoblab chiqilgan.

tonnagacha, ishlab chiqarish hajmi esa 16,7 mln tonnaga (+10 foiz yoki 1,6 mln tonna) oshishi kutilmoqda. Import esa 1 mln tonnagacha qisqarishi kutilmoqda (-57 foiz yoki 800 ming tonna)”⁴³.

Ammo, yuqorida keltirilgan 2.3-jadval ma'lumotlariga ko'ra tahlil qiladigan bo'lsak, respublikamizdagi sement ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 262 ta korxonaning faoliyati tahlil qilinganda ularda 2023-yilda kirim qilingan jami 491023,2 tonna sement 2022-yilga 718751,9 tonna sementga nisbatan o'rtacha 227 ming tonnaga kam bo'lganki, bu ishlab chiqarilgan sement mahsuloti va haqiqatda kirim qilingan sement o'rtasida farqdan dalolat beradi va ko'rindiki, xufyona iqtisodiyot vujudga kelganligi oqibatida paydo bo'lgan.

Bundan tashqari, mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2022-2023-yillarda realizatsiya qilingan sement narxlaridan kelib chiqib o'rtacha hisoblanganda yetarlicha kirim qilinmagan sement qiymati respublika miqyosida 359471,4 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, bu kirimsiz sement realizatsiya qilganlik holatlari o'z tasdig'ini topganda qo'shimcha hisoblanishi mumkin bo'lgan foyda solig'ini budgetga kelib tushishini 53 920,7 mlrd.so'mga kamayishiga olib kelgan. Bunda hududlar kesimida qaraydigan bo'lsak, Qoraqolpog'iston respublikasining ulushi 15159,7 mlrd.so'mni, Farg'ona viloyatining ulushi 5070,4 mlrd.so'mni, Xorazm viloyatining ulushi 6645,5 mlrd.so'mni, Toshkent shahrining ulushi esa, 7408,0 mlrd.so'mni tashkil etgan.

Demak, xufyona iqtisodiyot tufayli sement ishlab chiqarish sohasidagi 262 tadagi realizatsiya qilingan sement narxlaridan kelib chiqib o'rtacha hisoblanganda yetarlicha kirim qilinmagan sement qiymati hisobiga davlat budgeti 53920,7 mlrd.so'mga yo'qotilishiga olib keligan.

⁴³ <https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/10/cement/>.

2.4-jadval

Sement ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar orqali tovar xom-ashyo birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilish natijasida budjetga yetkazilgan zararlar tahlili⁴⁴ (2023-yil kesimida) (mln.so‘m)

Hududlar	Korxon a soni	To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar orqali tovar xom-ashyo birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilingan sement maxsulotlari			Birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilinishi natijasida yo‘qotilgan soliq bazasi	Past narxda realizatsiya qilganlik holatlari o‘z tasdig‘ini topganda qo‘sishimcha hisoblanishi mumkin bo‘lgan	
		korxona soni	miqdori (tonna)	qiymati (QQS bilan)		QQS	Foyda solig‘i
Respublika bo‘yicha jami:	48	33	2 673 986	1542471,0	278 092,8	29 795,7	37 244,6
Qoraqalpog‘iston Resp.	1	1	16 540	9 157,3	947,9	101,6	127,0
Andijon viloyati	7	5	141 681	83 645,0	26 183,2	2 805,3	3 506,7
Buxoro viloyati	1						
Jizzax viloyati	3	2	104 300	68 158,3	1 760,7	188,6	235,8
Qashqadaryo viloyati	2	2	48 660	29 563,9	1 863,0	199,6	249,5
Navoiy viloyati							
Namangan viloyati	5	4	280 928	156 312,6	13 818,6	1 480,6	1 850,7
Samarqand viloyati	5	4	24 074	13 922,5	963,6	103,2	129,1
Surxondaryo viloyati	1	1	217 493	129 482,4	4 353,2	466,4	583,0
Sirdaryo viloyati							
Toshkent viloyati	4	1	9 625	5 187,4	585,0	62,7	78,4
Farg‘ona viloyati	9	4	198 903	94 198,8	40 163,1	4 303,2	5 379,0
Xorazm viloyati							
Toshkent shahar	2	1	50	14,8	14,3	1,5	1,9
YST HDSI	8	8	1 631 732	952 827,9	187 440,0	20 082,9	25 103,6

Keltirilayotgan 2.4-jadvaldan xulosa qilish mumkinki, respublikamiz bo‘yicha 48 ta sement ishlab chiqarish korxonalari faoliyati alohida tahlil qilinganda, ularning 33 tasida 2673 986 tonna sement to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar orqali tovar xom-ashyo birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilingan. Uning oqibatida birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilinishi natijasida yo‘qotilgan soliq bazasi 278092,8 mln.so‘mni tashkil etgan, natijada esa, past narxda realizatsiya qilganlik holatlari o‘z tasdig‘ini topganda qo‘sishimcha hisoblanishi mumkin bo‘lgan QQS summasi 29795,7 mln.so‘mni, foyda solig‘i summasi esa, 37244,6 mln.so‘mni tashkil etadi, bundan ko‘rinadiki (37244,6+29795,7) 67040,3 mln.so‘mlik soliq tushumi xufyona faoliyat va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar orqali tovar xom-ashyo

⁴⁴ Davlat soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilingan sement mahsulotlari hisobiga ro'y bergan.

2.5-jadval

Ayrim sement ishlab chiqaruvchi soliq to'lovchilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali tovar xom-ashyo birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilish natijasida budjetga yetkazilgan zararlar tahlili⁴⁵ (2023-yil kesimida) (ming. so'm)

Hududlar	Korxona soni	To'g'ridan to'g'ri shartnomalar orqali realizatsiya qilingan sement			Birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilinishi natijasida yo'qotilgan soliq bazasi	Past narxda realizatsiya qilganlik holatlari o'z tasdig'ini topganda qo'shimcha hisoblanishi mumkin bo'lган	
		Miqdori	Summasi	EXF bo'yicha 1 tonna sement maxsulotining o'rtacha narx)		QQS	Foyda solig'i
Respublika bo'yicha jami ⁴⁶ :	5	2673,9	1542470993,5	18 684,4	278092785,8	29795655,6	37244 569,5
"QIZILQUMSEMENT" AJ	1	504,0	303810294,4	602,7	9978570,6	1069 132,5	1 336 415,7
"QUVASOYCEMENT" AJ	1	302,4	169302 010,8	559,8	13 441 258,6	1 440 134,8	1 800 168,5
"BEKOBODSEMENT" AJ	1	149,2	84219865,4	564,3	7 095 529,8	760 235,3	950 294,1
"OHANGARONSEMENNT" AJ	1	210,9	125628 123,6	595,6	11 951 424,9	1 280 509,8	1 600 637,2
"RECO SEMENT SIFAT" MCHJ	1	112,1	63 942 638,9	570,1	2 518 465,4	269 835,5	337 294,4

Yuqoridagi 2.4-jadvalda sement ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali tovar xom-ashyo birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilish natijasida budjetga yetkazilgan zararlar keltirilgan bo'lsa, ushbu keltirilgan 2.5-jadvalda esa, ularning asosiyalaridan hisoblangan va quvvati yuqori bo'lgan 5 ta korxona doirasida tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, "sement zavodlarining loyiha quvvati 32,7 mln.tonnani tashkil etadi. Ushbu hajmning chorak qismi (25 foiz) «Qizilqumsement» (5,7 mln.tonna), «Bekobodsement» (1,6 mln.tonna) va «Quvasoysement» (1,08 mln tonna) ulushiga to'g'ri keladi. Ushbu zavodlar

⁴⁵ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

⁴⁶ Тахлил килинаётган корхоналардан ташкари, яна 31 ta корхоналарнинг қийматини ҳам ўз ичига олган.

Kiprning United Cement Group kompaniyasiga tegishli. 2.5-jadvaldan mumkinki, ushbu korxonalardan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar orqali realizatsiya qilingan sement hajmi 5 ta korxonada 1542470993,5 ming.so‘mni tashkil etgan holda, birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilinishi natijasida yo‘qotilgan soliq bazasi 278092785,8 ming.so‘m bo‘lgan.

Natijada esa, past narxda realizatsiya qilganlik holatlari o‘z tasdig‘ini topganda qo‘srimcha hisoblanishi mumkin bo‘lgan QQS summasi 29795655 ming so‘mni, foyda solig‘i bo‘yicha esa, 37244 569, 5 ming so‘mni tashkil etgan. Agar buni sement ishlab chiqaruvchi korxonalarning ulushini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, "QUVASOYCEMENT" AJ va "OHANGARONSENT" AJ kabi korxonalarda bunday holat qolgan 3 ta korxonaga nisbatan yuqori bo‘lgan. Demak, ushbu korxonalarda iqtisodiy komplaens tizimini kuchaytirish va ulardagi ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlarini raqamlashtirish hamda soliq xizmati organlarining dasturiy mahsullariga integratsiya qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ayrim (tanlab oligan 5 ta) sement ishlab chiqaruvchi soliq to‘lovchilar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar orqali tovar xom-ashyo birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilish natijasida budgetga yetkazilgan zararlar tahlili yana bir xulosani beradiki, birinchidan, ushbu korxonalar sement ishlab chiqarish korxonalarida monopol mavqeiga ega bo‘lib, ular milliy iqtisodiyotda sementga bo‘lgan talabni qondirishda hamda milliy eksport salohiyatni oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘lsada, boshqa tomondan, ularning mahsulotiga bo‘lgan talabning oshishi va ularda raqamlashtirishning jadallahsmaganligi birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilinishining oshishiga omil bo‘lgan.

Ta’kidlash lozimki, ishlab chiqarish korxonalarida soliq bazasining yashirilishi oqibatida xufyona iqtisodiyotning vujudga kelishida ulardagi mahsulotning kirimi va uning qoldig‘i bilan o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa, sement mahsulotlarini eng ko‘p iste’mol qiladigan qurilish korxonalaridagi xarid qilingan sement mahsulotlari bo‘yicha yirik miqdorda qoldiqda turib qolinishi natijasida budgetga yetkazilgan zararlar tahlilini amalga oshiradigan bo‘lsak, bunda 2.6-jadval ma’lumotlaridan foydalanamiz.

2.6-jadval

**2022-2023-yillarda qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi soliq
to‘lovchilar tomonidan xarid qilingan sement mahsulotlari bo‘yicha yirik
miqdorda qoldiqda turib qolinishi natijasida budgetga yetkazilgan zararlar
tahlili⁴⁷ (mln so‘m)**

Hududlar	Qurilish korxonalarini tomonidan 2022 yil va 2023 yilda xarid qilingan sement mahsulotlari			Yirik miqdorda sement mahsulotlari qoldig‘i mavjud emasligi holatlari o‘z tasdig‘ini topganda qo‘srimcha hisoblanishi mumkin bo‘lgan QQS	Yirik miqdorda sement mahsulotlari qoldig‘i	
	korxon a soni	miqdori (tonna)	qiymati		miqdori (tonna)	qiymati
Respublika bo‘yicha jami:	10 733	15 956 481	9030 379,2	47 044,2	700 663	392 035,0
Qoraqalpog‘iston Resp.	687	603 755	363 152,4	2 606,3	36 126	21 719,5
Andijon viloyati	621	1 206 563	629 660,0	2 927,8	45 948	24 398,3
Buxoro viloyati	842	1 092 364	619 923,8	2 911,5	44 096	24 262,2
Jizzax viloyati	471	671 794	387 894,4	1 940,3	28 569	16 168,8
Qashqadaryo viloyati	1 022	1 150 068	655 265,0	4 067,9	60 233	33 899,0
Navoiy viloyati	481	815 771	449 216,0	2 276,6	34 399	18 971,5
Namangan viloyati	539	790 178	417 770,2	1 253,0	20 231	10 441,6
Samarqand viloyati	924	1 782 569	1054 847,0	5 087,9	70 935	42 399,5
Surxondaryo viloyati	955	1 445 930	788 906,1	3 890,8	58 355	32 423,3
Sirdaryo viloyati	303	527 034	311 192,3	1 259,3	17 726	10 494,1
Toshkent viloyati	724	1 254 785	723 235,0	2 702,3	41 513	22 519,3
Farg‘ona viloyati	887	1 254 509	668 318,2	2 439,5	38 353	20 329,2
Xorazm viloyati	628	640 223	364 460,1	915,1	13 109	7 625,8
Toshkent shahar	1 649	2 720 940	1596 538,7	12 765,9	191 069	106 382,8

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, hududlar kesimida jami qurilish korxonalarini tomonidan 2022-yil va 2023-yilda xarid qilingan sement mahsulotlari hajmining qiymati 9030379,2 mln.so‘mni tashkil etgan holda, ushbu korxonalarda yirik miqdorda sement mahsulotlari qoldig‘i mavjud emasligi holatlari o‘z tasdig‘ini topganda qo‘srimcha hisoblanishi mumkin bo‘lgan QQS summasi 47044,2 mln.so‘mni tashkil etishligini ko‘rish mumkin. Bundan ko‘rinadiki, qurilish korxonalarida yirik miqdorda mahsulotlarining qoldiq miqdori va ularda sarflangan sement mahsulotlarining texnologik normalar asosida sarflanmaslik oqibatida, natijada esa, xufyona iqtisodiy faoliyatning vujudga kelganligidan dalolat beradi. Demak, xom-ashyoga yuqori talab bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonida qoldiqning miqdorining ko‘pligi soliqqa tortish nuqtai nazaridan xufyona iqtisodiy faoliyatning mavjudligini e’tiborga olgan holda yondoshishni talab etadi.

⁴⁷ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

Ta'kidlash joizki, soliq tizimida soliq to'lovchilar tomonidan soliq bazasini hisobotlarda ob'ekt ko'rsatish va shu orqali xufyona iqtisodiyotning oldini olish hamda uning hajmini qisqartirishda soliq tizimiga axborot texnologiyalarning o'rni juda kattadir. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6 oktabrdagi "Soliq ma'muriyat chiligidagi zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 807-son qarori, "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraqt-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 522-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-598-son Qonuni bilan qabul qilingan Soliq kodeksining 47-moddasi muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu qonun hujjatlariga ko'ra, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Sirdaryo viloyati va Navoiy viloyati tadbirkorlari eksperimentda ishtirok etishlari belgilandi, birgina, 2018-yilda eksperiment jarayonida 3977 ta korxona tomonidan elektron hisobvaraqt-fakturalar rasmiylashtirdi, shu bilan birgalikda 2019-yilning 1-iyul sanasidan boshlab barcha tadbirkorlik sub'ektlari ixtiyoriy tartibda elektron shaklda hamda 2020-yil 1-yanvardan boshlab majburiy tartibda hisobvaraqt-fakturalarni elektron shaklda rasmiylashtirilishi belgilab qo'yildiki, buning natijasida soliq tizimining xufyona iqtisodiyotning oldini olishdagi ahamiyati kuchayishi bilan bir qatorda uning hajmini ham qisqartirishga erishildi.

2.7-jadval.

2018-2022-yillarda O'zbekiston soliq tizimida elektron hujjat aylanishi jarayonida elektron hisobvaraqt-fakturalardan foydalanish holati dinamikasi⁴⁸

(mlrd. so'm)

Yillar	Soliq to'lovchilar soni	Qo'llanilgan elektron hisob fakturalar soni (ta)	Etkazib berishda qo'llanilgan elektron hisob fakturalardagi aylanma summasi	QQS summasi
2018-yil	3 977	32 310	6 832,04	349,87
2019-yil	28 090	968 908	139 831,3	8 404,28
2020-yil	261 229	23 315 224	823 576,4	82 071,15
2021-yil	289 568	33 312 469	1 035 479,65	113 674,55
2022-yil	292 984	38 792 761	1 408 017,76	148 190,18
Jami:		96 421 672	3 413 737	270 619

⁴⁸ my.soliq.uz saiti mat'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

2.8-jadval.

Budjetdan ajratilgan mablag‘lar uchun elektron hisob fakturani (EHF) rasmiylashtirmaslik natijasida xufyona iqtisodiyoting kelib chiqishi holati tahlili⁴⁹ (mlrd.so‘m)

Xududlar nomi	EHF rasmiylashtirmagan			2022-yil			2023-yil		
	korxona soni	holat soni	summa	korxona soni	holat soni	summa	korxona soni	holat soni	summa
Jami:	56 355	433 835	28 200,4	45 538	292 520	15 864,2	19 173	141 315	12 336,2
YaTT	21 499	189 954	1 670,7	21 076	169 864	1 566,2	502	20 090	104,5
Qoraqalpog‘iston Res.	2 727	19 852	785,8	2 033	13 957	385,5	1 072	5 895	400,3
Andijon viloyati	4 428	39 992	1 837,2	3 628	26 259	886,5	1 567	13 733	950,7
Buxoro viloyati	3 526	26 883	1 241,6	2 777	18 792	733,7	1 396	8 091	508,0
Jizzax viloyati	2 209	17 371	826,9	1 706	12 409	374,0	834	4 962	452,9
Qashqadaryo viloyati	4 214	28 558	1 137,4	3 598	23 257	440,7	1 095	5 301	696,8
Navoiy viloyati	2 155	13 864	572,5	1 782	10 374	285,1	751	3 490	287,3
Namangan viloyati	4 073	27 956	1 485,9	3 323	18 572	702,4	1 383	9 384	783,5
Samarqand viloyati	4 856	35 382	1 519,9	4 024	26 521	796,7	1 479	8 861	723,2
Surxondaryo viloyati	3 618	26 923	1 222,7	2 918	20 743	706,2	1 280	6 180	516,5
Sirdaryo viloyati	1 740	15 621	574,7	1 372	9 674	316,4	580	5 947	258,3
Toshkent viloyati	3 083	21 354	1 806,6	2 278	14 412	1 059,7	1 454	6 942	746,9
Farg‘ona viloyati	4 885	41 626	1 598,5	3 895	27 053	796,4	1 668	14 573	802,1
Xorazm viloyati	2 909	19 590	769,4	2 250	14 125	314,4	1 096	5 465	455,0
Toshkent shahar	4 773	45 481	4 181,6	2 898	22 278	2 166,4	3 076	23 203	2 015,2
YSTBHSI	553	37 537	8 487,5	463	19 262	5 752,4	427	18 275	2 735,1
Jismoniy shaxslar	6 606	15 845	152,1	6 593	14 832	147,5	15	1 013	4,5

⁴⁹ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

2.7-jadvaldan ko‘rish mumkinki, tahlil qilinayotgan yillarda soliq to‘lovchilar tomonidan qo‘llanilgan elektron hisob fakturalar soni yillar davomida oshib borgan, o‘z navbatida yetkazib berishda qo‘llanilgan elektron hisob fakturalardagi aylanma summasi ham yillar davomida ko‘payib borgan, bu holat QQS summasiga ham tegishlidir. Buning natijasida esa, soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan axborot-kommunikasiya xizmatlari turlarini kengaydi, korrupsiya va xufyona iqtisodiyotning ulushining kamayishiga erishildi, bundan tashqari, soliq to‘lovchilarning huquqiy savodxonligini oshdi, tadbirkorlik faoliyati erkinligini kengayishiga imkoniyat tug‘ildi

Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aylanmadan olinadigan soliqlarning bosqichma-bosqich avtomatlashtirilishi bilan hisobvaraq-fakturalarni majburiy tarzda to‘ldirilishi ortib bordi. Yuqorida keltirilgan 2.7-jadvalda respublika miqyosidagi keyingi besh yildagi EHFdan foydalanish va uning xufyona soliq aylanmalarini kamaytirishdagi amaliy ahamiyatini ko‘rsatib bergan bo‘lsa, 2.8-jadval ma’lumotlari esa, budjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlarga ajratilgan mablag‘lar uchun elektron hisob fakturani (EHF) rasmiylashtirmaslik natijasida xufyona iqtisodiyoting kelib chiqishi holati tahlili keltirilgan. Unga ko‘ra, EHF rasmiylashtirmagan tashkilot va korxonalar soni 2022-yilda 45538 tadan 2023 yilda 19 173 tani tashkil qilgan holda 68 foizga kamaygan, o‘z navbatida EHF rasmiylashtirilmagan aylanmalar hajmi ham 2023-yilda 12 336,2 mlrd.so‘mni tashkil etib, bu 2022-yildagi 15 864,2 mlrd.so‘mdan 107497,8 mlrd.so‘mga kamayganligi ko‘rish mumkin.

Bir so‘z bilan xulosa qilib aytganda, soliq to‘lovchilar elektron hisobvaraq-fakturalar rasmiylashtirishi orqali o‘zaro xizmat va tovarlar bo‘yicha oldi-sotdi operasiyalarni amalga oshirishi, ishonchnoma, shartnama, tovar-transport yukxati va boshqa bir qator hujjatlarni elektron shaklda rasmiylashtirishi, hisobvaraq-fakturalar elektron shaklda Soliq qo‘mitasining serverlarida 10 yil davomida xavfsiz saqlanish, qayta ishlash va qabul qilinishi soliq to‘lovchilarning soliq bazasini kamaytirishga imkon bermaslik vujudga keldi, soliq turlari bo‘yicha soliq bazasining amaldagi qonunchilik asosida shakllanishi va ularning soliq hisobotlarida

ko'rsatilishiga olib keldi. Demak, bugungi kundagi soliq tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari ham insofli soliq to'lovchilarni rag'batlantirish va soliqdan bo'yin tovlagan soliq to'lovchilarning faoliyatida xufyona iqtisodiyotning paydo bo'lishining oldini olishga xizmat qiladigan moliyaviy mexanizmlarni shakllantirishdan iboratdir.

2.3-§. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali xufyona iqtisodiyotni qisqartirish amaliyoti tahlili

Soliq ma'muriyati milliy iqtisodiyotda xufyona iqtisodiyotni jilovlashda soliq tizimining samaradorligini ko'rsatishda hal qiluvchi rol o'ynashini tan olish muhimdir. Soliq ma'muriyati soliq to'lovchilar uchun soddaroq, samaraliroq va qulayroq bo'lishi takomillashtirilsa, bu, tabiiyki, soliq to'lovchilar o'rtasida xufyona iqtisodiyotning tarqalishining kamayishiga olib keladi. Shuning uchun tadqiqotimizning ushbu qismida biz soliq ma'muriyatchiligi amaliyotini takomillashtirish yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qanday hissa qo'shishini tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Soliq ma'muriyati soliqlarni undirish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlarining faoliyatini o'z ichiga oladi. Bu ularning soliqlar va byudjetga boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha huquq va majburiyatlari bilan bog'liq tashkiliy-uslubiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Soliq ma'muriyati soliqlarni undirish bo'yicha keng ko'lamli faoliyatni tizimli boshqarish va muvofiqlashtirishni, soliq to'lovchilar bilan samarali hamkorlikni ta'minlash va undirish jarayonini osonlashtirishni o'z ichiga oladi.

Bu boradagi tahlillardan oldin O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotning darajasini aniqlashga qaratilgan ayrim tahlillar (bu yerda Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyot Dasturi (BMTTD) doirasidagi tahlillar nazarda tutilmoqda)ga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yashirin iqtisodiyot muammosi nafaqat O'zbekiston, balki dunyoning barcha mamlakatlari uchun dolzarb mavzudir. Hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham yashirin iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning kamida 7,5 foizini tashkil qiladi. 2019-yilda Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyot Dasturi (BMTTD) tashabbusi bilan O'zbekistonda olib borilgan tadqiqot

natijalariga ko‘ra, mamlakatdagi yashirin iqtisodiyot hajmi YaIMning 40% dan 50% gacha bo‘lishi mumkin, buning oqibatida O‘zbekiston iqtisodiyoti soya (xufyona) sektori tufayli 16-17 mlrd. dollar yo‘qotgan.

Yashirin iqtisodiyotning xuddi shunday ko‘rsatkichi norasmiy band bo‘lganlar sonidir. Jahon banki hisobotlariga ko‘ra, 2019-yilda O‘zbekistonda band bo‘lganlarning umumiy soni 13,2 million nafarni tashkil qilgan, ulardan 7,9 nafari norasmiy ish bilan band million kishi (59,8%) va rasmiy ravishda 5,3 million kishi (40,2%) ish bilan band bo‘lgan. 2019-yilda Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyot Dasturi asosida O‘zbekistonda 2019-2022-yilda korxonalar o‘rtasida o‘tkazilgan tanlama so‘rovi asosida yashirin iqtisodiyotni baholash natijasida quyidagi xulosalar olingan.

Tanlangan 2019-yil sentyabr oyida mahalliy iqtisod va sanoat davlat organlari xodimlari orasidan intervyular tomonidan O‘zbekistonda 713 ta korxona, jumladan, yirik, o‘rta, kichik korxonalar va mikrofirmalar korxonalari bo‘yicha anonim so‘rov o‘tkazildi. Iqtisodiyotdagি norasmiy bandlikni baholash uchun korxonalarini o‘rganishdan tashqari, Bandlik vazirligining uy xo‘jaliklari so‘rovi bo‘yicha ma’lumotlaridan ham foydalanilgan (2019-yilda 8 mln. kishi). Shuningdek, uy xo‘jaligidagi norasmiy iqtisodiyot hajmini baholashda Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilgan (baholash 30-35 foiz oralig‘ida). Shu sababli uy xo‘jaliklari o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazilmagan.

Respondentlarning javoblarini ko‘rib chiqish natijalari shuni ko‘rsatdiki, tadbirdorlik sohasida yashirin iqtisodiyot hajmi YaIMning 16,7 foizini tashkil qiladi. Shu bilan birga, yashirin iqtisodiy operatsiyalar hajmining eng yuqori ko‘rsatkichlari iqtisodiy faoliyatning "avtomobillar va mototsikllarni ta’mirlash", "turizm, ko‘ngilochar va dam olish", "ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar" kabi turlarida qayd etildi . Ushbu sohalarda foydani yashirish va "konvertdagи ish haqi" to‘lovlar tegishli foyda va ish haqi to‘lovlarining umumiy darajasining 32-37 foizini tashkil qiladi. Bundan tashqari, qurilish, umumiy ovqatlanish, qishloq xo‘jaligi, savdo va aloqa sohalari qayd etilgan bo‘lib, ularda foydani yashirish va "konvertdagи ish haqi"

to‘lovlari tegishli foyda va ish haqi to‘lovlaring umumiy darajasining 20-27 foizini tashkil qilgan.

2.9-jadval.

O‘zbekistonda tarmoqlar bo‘yicha yashirin iqtisodiy operatsiyalar hajmining ko‘rsatkichlari⁵⁰

Tarmoqlar	2020 yil	2021 yil
Sanoat	15.9	15.6
Qurilish	27.1	28.0
Ulgurji va chakana savdo	21.3	17.9
Ovqatlanish	23.4	23.9
Avtotransport va mototsikllarni ta’mirlash	37.6	33.2
Tashish va saqlash	19	19.3
Axborot-kommunikatsiya xizmatlari	22.2	20.1
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	14.3	17.2
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar	33.3	33.2
Ta’lim xizmatlari	19.1	14.5
Tibbiy va ijtimoiy xizmatlar	14.8	21.1
Turizm, ko‘ngiliochar va dam olish	34.1	32.3
Boshqa turdagи xizmatlar ko‘rsatish	18.6	23.1
O‘rtacha jami	20.9	21.3
Korxona sektordagi yashirin iqtisodiyot hajmi , YaIMga nisbatan foizda	16.7	

Ushbu keltirilgan jadvaldan ko‘rish mumkinki, 2020-2021-yillarda O‘zbekistonda tarmoqlar bo‘yicha yashirin iqtisodiy operatsiyalar hajmining ko‘rsatkichlari tahlil qilinadigan bo‘lsa, tanlab olingan tarmoqlar kesimida ularning o‘rtacha darajasi 20-21 foizni tashkil etgan, albatta bu respondentlarning so‘rov natijalari sifatida aniqlangan bo‘lib, umumiy holda yashirin iqtisodiyotning mavjudligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, ijara daromadini yashirish, umumiy ijara daromadining 17,3 foizini tashkil qilgan, bo‘lsa, maishiy sektorda yashirin iqtisodiyot hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan qariyb 32 foizni tashkil etganligidan kelib chiqib, O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning umumiy hajmi 48,7 foizni tashkil etishi hisoblab chiqilgan .

Ta’kidlash lozimki, soliq ma’murchiligi orqali xufyona iqtisodiyotni qisqartirishga erishish uchun soliq tizimida bir necha omillar, masalan, soliq xizmati organlarida soliq ob’ektlari va ularning tushumlari hamda soliq ishini tashkil

⁵⁰ Бирлашган миллатлар ташкилоти тараққиёт Дастури (БМТГД) ташабbusi билан Ўзбекистонда олиб борилган тадқиқот натижалари асосида тузилган.

etishning avtomatlashtirilgan (axborot texnologiyalarini qo'llash) shakllarini yaratish va realizatsiya qilish va shu kabilardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bu holatni amaliy jihatdan qaraydigan bo'lsak quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanamiz.


2.10-jadval

Avvalgi yillarga nisbatan O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotning oldini olish hisobiga davlat budgetiga soliq tushumlarining kelib tushish dinamikasi tahlili (mlrd so'm)

Ko'rsatkichlar	yillar		
	2021	2022	2023
EXF to'g'ri rasmiylashtirish, qayta ishslash va hisobotlarga tuzatishlar kiritish hisobiga	2571,3	3 320,2	5516,2
Qo'shimcha soliq ob'ektlari va yer maydonlarni aniqlash hisobiga	461,2	688,7	1049,9
Korxonalarning yil boshidagi soliq qarzlarini undirish hisobiga	2174,9	2 687,7	3971,2
Soliq tekshiruvi natijasi hisobiga	1412,1	1 664,8	2695,1
Yashirilgan ish o'rirlari va FOTni legallashtirish hisobiga	994,6	1 076,6	2614,3
Onlayn NKM, Cashback, joriy etish va to'lov intizomiga rioya etilishi hisobiga	1930,7	2 132,3	3003,5
Xufyona iqtisodiyotning oldini olish hisobiga davlat budgetiga soliq tushumlarining kelib tushishi jami	9 544,8	11 570,3	18850,2

Ushbu 2.10-jadval ma'lumotlari Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan bo'lib, darhaqiqat oxirgi yillarda soliq tizimida ham soliq tushumlari darajasiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilib borilmoqdaki, agar ularning mazmuniga qaraydigan bo'lsak, ushbu jadvalda keltirilgan eng muhim 6 ta omil (aslida omillar juda ko'p) ta'siriga ko'ra, avvalgi yillarga nisbatan O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotning oldini olish hisobiga davlat budgetiga soliq tushumlarining kelib tushish dinamikasining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yilda avvalgi (2020- yilga) nisbatan soliq ma'murchiligining yaxshilanishi hisobiga xufyona faoliyat qisqarib 9544,8 mlrd.so'mlik soliq tushumlari ko'paygan. 2022-yilda bu ko'rsatkich 11570,3 mlrd.so'mga oshgan bo'lsa, dastlabki hisob kitoblarga ko'ra (aslida bundan biroz ko'proq ham bo'lishi mumkin) 2023-yil yakuniga ko'ra, 2022 yilga nisbatan 18850,2 mlrd.so'mlik soliq tushumlari oshgan. Bu raqamlarning mohiyatiga qaraydigan bo'lsak, tahlil qilinayotgan yillarda soliq ma'murchiligining

yanada takomillashtirilishi va soliq tizimini raqamlashtirishning kuchaytirilishi, jamoatchilik asosidagi soliq nazoratini kuchaytirishga e'tibor va rag'batning oshishi hisobiga xufyona iqtisodiyot shu summaga qisqartirilib, soliq tushumlarining oshishiga erishilgan. Aslini olib qaraganda soliq tushumlarining avvalgi yillarga nisbatan oshishi bundan ham ko'proq bo'lishi mumkin edi. Bu esa, soliq tizimida soliq ma'murchiligining ta'sirchanligini oshirish bilan bog'liq ishlarni samarali amalga oshirishni taqozo etadi. 2017-2023-yillar uchun soliq tizimidagi keng ko'lamli islohotlar yalpi ichki mahsulotning 3,4 barobar barqaror o'sishini rag'batlantiruvchi omil bo'ldi. Natijada tushumlar 314,5 trln. so'mdan 1068 trln. so'mga va soliqlar o'sishi 44 marta ya'ni, 37,7 dan 166,9 trln. so'mgacha bo'ldi. Soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 12 dan 17,3 foizgacha o'zgarib turdi, bunda soliq yukining eng yuqori cho'qqisi pandemianing salbiy ta'siri davrida sodir bo'ladi va 2022-yildan boshlab uning ulushi 2023-yilda 15,5 foizgacha pasaydi.



2.3-rasm. Makro ko'rsatkichlarning o'sish dinamikasi va soliq yuki⁵¹

So'nggi yillarda soliq tushumlari tarkibida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi, shuning uchun 2023-yil oxirida 2017-yilga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri soliq tushumlari 8 baravarga, (8,8 trln. so'mdan 70,7 trln. so'mga) ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,8 foiz punktga oshgan. (YaIMga nisbatan 2,8 dan 6,6% gacha). Darhaqiqat iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda budgetning asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri soliqlar hisobidan shakllantiriladi, bu esa iqtisodiyotning barqaror

⁵¹ Давлат солиқ қўмитаси ҳамда Молия ва иқтисодиёт вазирлиги маълумотлари асосида Muallif tomonidan tuzilgan.

rivojlanishi va soliq tizimining yanada samarali faoliyat yuritishidan dalolat beradi. Bundan tashqari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlar inflyatsiya darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq emas, to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliq tushumlari dinamikasi esa ular bilan bevosita bog‘liq emas - foyda solig‘i va daromad solig‘i bo‘yicha daromadlar inflyatsiya darajasidan orqada qolishi yoki oshishi mumkin.

2.11-jadval

Soliq organlari tomonidan 2023-yil davomida 8 ta soliq turlari bo‘yicha hisobotlarning qabul qilinishi va qo‘llanilgan choralar tahlili⁵²

Soliq turlari	Faoliyat ko‘rsatayotga n soliq to‘lovchilar	Hisobot taqdim etganlar soni	Hisobot taqdim etmaganlar soni	shundan, bank hisob-varaq yopilmaganlar soni
QQS	179 667	169 899	9 768	2 290
Yuridik shaxslarning foyda solig‘i	177 817	165 959	11 858	2 556
Aylanma soliq	228 614	226 203	2 411	1 110
Aksiz solig‘i	4 610	4 604	6	1
Er solig‘i (noqishloq)	75 248	73 201	2 047	937
Er solig‘i (qishloq)	107 377	103 956	3 421	507
Er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	2 035	1 905	130	45
Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i	75 580	74 028	1 552	83
Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i	470 200	463 402	6 798	5 239

Ma’lumki, mazkur dastur soliq hisobotlarini elektron qabul qilish uchun mo‘ljallangan. Dasturda soliq hisobotlarni umumlashgan ko‘rsatkichlari (masalan, hududlar kesimida soliq hisobotlar topshirilishi, qo‘llanilgan ma’muriy choralar) mavjud emas va hisobotlar soliq organlari tomonidan an’anaviy (sub’ekt tomonidan) usulda shakllantirilmoqda.

Natijada, 9 ta soliq turlari bo‘yicha hisobot taqdim etmaganlarining o‘rtacha 31,7 foizining bank hisob-varaqlari yopilmasdan qolingan. Soliq kodeksining 111-moddasiga asosan Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror soliq organining rahbari (rahbar o‘rinbosari) tomonidan o‘n kundan ko‘p bo‘limgan

⁵² Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

muddatga qabul qilinishi mumkin. Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni o‘n kundan ko‘p muddatga to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror soliq organining iltimosnomasiga asosan sud tomonidan qabul qilinishi mumkin. Bunda soliq to‘lovchining (soliq agentining) bank hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalari sud tomonidan qaror qabul qilingunga qadar to‘xtatib turiladi.

Soliq organlari tomonidan sudga ariza kiritilmagan holda 496 ta holatda 11 kundan 155 kunga qadar bank hisobvaraqlari ochilmagan. Bundan tashqari, soliq organlari tomonidan 1 ta holatda sudga ariza kiritilgan ammo ariza kiritilgan davrdan oldin, shuningdek 5 456 ta holatda sudga ariza kiritilgan kunda yoki 1 kundan so‘ng bank hisobvarag‘i ochilgan. Soliq kodeksining 112-moddasiga asosan soliq to‘lovchining (soliq agentining) banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror Kodeksning 111-moddasi asosida — soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan moliyaviy va (yoki) soliq hisoboti taqdim etilgan kundan keyin bir kundan kechiktirmasdan qaror qabul qilingan taqdirda bekor qilinishi belgilangan. Bekor qilish to‘g‘risida qarorlar mavjud bo‘lmadasa 28 375 ta holatda bank hisobvaraqlari ochilgan. Soliq to‘lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarorlar tasdiqlangandan kundan kechiktirib 22 767 ta holatda (214 kungacha) bankdagi hisobvaraqlar yopilgan.

Soliq tizimi instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq hisobotlarini taqdim etmagan holatlarni tahlil qilish va uni kamaytirish, bu bo‘yicha soliq to‘lovchilarning bankdagi hisobraqamlari harakatini vaqtincha to‘xtatish orqali ta’sirchan mexanizmlardan samarali foydalanish hisoblanadi. Soliq majburiyatlarini bajarmagan soliq to‘lovchilarning bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga to‘xtatishni, bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni o‘n kundan ko‘p muddatga to‘xtatish yuzasidan iqtisodiy sudsiz arizalarni elektron shaklda yuborishni, kamchiliklarni bartaraf etib soliq majburiyatlarini bajargan soliq to‘lovchilarning bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarini faollashtirishni, soliq va sud idoralari tomonidan ishda ishtirok

etuvchi shaxslarga sud hujjatlari va boshqa xat-xabarlarni elektron shaklda yuborish tizimi yo‘lga qo‘yilgan va ularni sudlarda ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni axborot tizimida shakllantirish imkoniyatini beradigan axborot tizimini ifoda etadi.

Axborot tizimiga integratsiya qilingan “Soliq hisobotlari monitoringi” axborot tizimidan shakllangan ma’lumotlarga asosan Soliq kodeksining 111-moddasi 1-bandiga asosan soliq hisobotlarni taqdim etmagan soliq to‘lovchilarining shaxsiy kabinetiga ogohlantirish xabarnoma yuborilib, 10 ish kunlik muddatdan keyin bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalari o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga avtomatik ravishda to‘xtatiladi. Shuningdek, Soliq kodeksining 111-moddasi 2,3,4-bandiga asosan talabnomaga javob bermagan, hududga kiritmagan hamda yuridik manzilda joylashmagan soliq to‘lovchilarining shaxsiy kabinetiga ogohlantirish xabarnoma yuborilgandan keyin bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalari o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga avtomatik ravishda to‘xtatiladi.

Bu borada birgina 2023-yilni tahlil qiladigan bo‘lsak, soliq hisobotlarini muddatida taqdim etmagan 472 ta sub’ekt tomonidan bankdagi hisob raqamlari harakati to‘xtatilgan sanadan keyin elektron hisobvaraq-fakturalar orqali faoliyatini davom ettirib kelganligi natijasida 41,0 mlrd.so‘m soliqlar budgetga hisoblanmasdan va undirilmasdan qolgan. Jumladan, chun Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi "CHILI OSIYA QUNGIROT" MChJning soliq hisobotini taqdim etmaganligi holati yuzasidan 2023 yil 1 iyun kuni soliq idorasining qarori bilan uning bankdagi hisob raqamlari harakati to‘xtatilgan. Biroq ushbu davrdan keyin elektron hisobvaraq-fakturalar orqali 1,9 mlrd.so‘mlik tovar realizatsiyasini amalga oshirib 203,6 mln.so‘m QQS budgetga hisoblanmasdan qolgan. Shuningdek, 72 ta yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan bankdagi hisob raqamlari harakati to‘xtatilgan sanadan keyin elektron hisobvaraq-fakturalar orqali faoliyatini davom ettirib kelganligi natijasida 352,4 mln.so‘m soliqlar budgetga hisoblanmasdan va undirilmagan.

Ijara shartnomalarini hisobga qo‘yish tizimi orqali soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirish soliq tizimining xufyona iqtisodiyotning qisqartirishga xizmat qilayotgan muhim instrumentlari sifatida baholash mumkin. Bu jarayonlarni hisobga olish maqsadida Davlat soliq tizimida “Ijara shartnomalarini hisobga qo‘yish tizimi” (Ijara-dashboard) mahsuli dastur ishlaydiki, agar, ushbu jarayonni oxirgi 2023-yil misolida qisqacha tahlil qilsak quyidagilarni keltirish mumkin.

Mazkur dasturda “Ko‘chmas mulk ijara shartnomalarini hisobga qo‘yish”, “Transport vositalarining ijara shartnomalarini hisobga qo‘yish” sahifalari mavjud. “Ko‘chmas mulk ijara shartnomalarini hisobga qo‘yish” sahifasida “Ijara shartnomalarini hisobga qo‘yish tizimi” mavjud bo‘lib unda Hududlar bo‘yicha ijaralar ro‘yxati va barcha ijaralar ro‘yxati shakllantirilgan.

2023-yil davomida dasturda jami 19 739,7 mlrd so‘mlik (19 160,3 mlrd.so‘m yuridik va 579,4 mlrd.so‘m jismoniy shaxs) 495 888 ta (175 567 ta yuridik va 320 321 ta jismoniy shaxs) ko‘chmas mulk ijara shartnomalari tuzilganligi hamda 2 097,8 mlrd.so‘m (1 453,9 mlrd.so‘m yuridik va 643,8 mlrd.so‘m jismoniy shaxs) soliq hisoblagan bo‘lsada, ijaraga berilgan yer maydonlari, shartnoma bo‘yicha jami ijara summasi hamda hisoblangan soliq summasi noto‘g‘ri shakllangan holda undirilgan soliq summasi aks ettirilmagan.

Soliq qarzdorligining darajasi xufyona iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liqdir. Uning qanchalik ko‘p bo‘lishi, soliq to‘lovchilar tomonidan xufyona iqtisodiyot bilan bog‘langanligini ko‘rsatadi. Agar, soliq qarzdorligining kelib chiqish sabablariga qaraydigan bo‘lsak, ham soliq to‘lovchining iqtisodiy faoliyati to‘laqonli amalga oshirilayotgan bo‘lsada, uning aktivlarining aylanishi yuqori bo‘lsada, soliq qarzdorlik summalarining mavjudligi xufyona iqtisodiyot mavjudligidan dalolat beradi.

Soliq turlari va soliq to‘lovchilar guruhi (tarmoqlar, aholi tabaqalari) bo‘yicha soliq qarzdorligining darajasi ham xufyona iqtisodiyotning oldini olishga qaratilgan soliq siyosatining naqadar to‘g‘ri ekanligini tavsiflaydi. Uning darajasining kamayib borishi bu boradagi soliq siyosati taktikalarining samara berayotganligini bildiradi, aksincha darajasi esa soliq siyosatining yetarlicha samara bermayotganligi ko‘rsatadi.

2.12-jadval

O‘zbekistonda soliq turlari bo‘yicha soliq qarzi dinamikasi tahlili^(mlrd.so‘m)

Tarmoqlar	yillar		
	2021	2022	2023
Respublika bo‘yicha	7 506,7	9 202,6	8 543,0
QQS	4 348,5	5 171,5	4 355,4
Foyda solig‘i	896,8	1 148,1	965,4
Aksiz	75,8	159,1	273,6
Nedra	293,5	297,1	288,7
Er solig‘i	494,7	736,0	887,4
Mol-mulk solig‘i	109,7	259,8	273,5
Suv solig‘i	174,4	107,3	262,6
Aylanmadan soliq	602,6	466,7	426,1
Daromad solig‘i	510,8	857,2	810,3

Bu ko‘rsatkichni aniqlash va tahlil qilishda, shuningdek, soliq qarzdorligining oshishiga ta’sir etuvchi omillarning tahliliga ham e’tibor berish bu boradagi soliq taktikalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. 2.13-jadval ma’lumotlari shundan dalolat beradiki, respublikamizda soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarini bajarmaslik oqibatida o‘rtacha 7-8 trln.so‘mlik soliqlar budgetga o‘z vaqtida tushmay qolmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida soliq to‘lovchilarda xufyona iqtisodiyotning bir belgisi sifatida soliqdan qochish holatlari bilan izohlanadi.

2.13-jadval

O‘zbekistonda faoliyat turlari bo‘yicha soliq qarzi dinamikasi tahlili⁵³_(mlrd so‘m)

Tarmoqlar	2021-yil		2022-yil		2023-yil	
	soni	summa	soni	summa	soni	summa
Respublika bo‘yicha	148049	3055,2	223259	4 597,5	231403	4335,3
Qurilish	8 142	457,5	14 634	521,9	13971	506,7
Savdo (ulgurji va chakana)	21 928	527,8	37 623	483,7	42579	455,4
Transport	2 952	35,7	5 618	90,9	5770	75,5
Umumiy ovqatlanish	4 970	19,6	7 240	25,2	8270	24,7
Fermer xo‘jaliklari (boshqa sohalar)	48 623	279,4	60 856	446,5	62252	466,8
Fermer xo‘jaliklari (paxta-g‘alla)	31 753	682,9	39 256	1 700,8	37710	1478,2
Ishlab chiqarish	14 385	787,6	26 590	911,9	27078	890,3
Boshqa xizmatlar ko‘rsatish	15 296	264,7	31 442	416,7	33 773	437,8

⁵³ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan, bunda barcha soliq to‘lovchilarning soliq qarzdorligi to‘liq o‘z aksini topmagan, shu boisdan ham, 2.12-jadval ma’lumotlaridan farq qiladi.

Soliq qarzdorligini tarmoqlar doirasida tahlil qiladigan bo‘lsak, 2021-2023-yillarda soliq qarzdorligi vujudga kelgan korxonalar soni 2022-yilda 2021-yildagiga nisbatan 75210 taga (1542,3 mlrd.so‘mga) oshgan bo‘lsa, 2023 yilda esa, tarmoqlar kesimida soliq to‘lovchilar soni 202- yilga nisbatan 8144 taga oshgan bo‘lsada, soliq qarzi summasi 262,2 mlrd.so‘mga kamaygan. Demak, xulosa qilish mumkinki, soliq qarzdorligini tahlil qilishda miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari doimo bir biriga to‘g‘ri kelmasligi mumkin, soliq qarzdorligi vujudga kelgan to‘lovchilar sonining oshishi bu korxonalarning faoliyatini tahlil qilishda xufyona iqtisodiyotning mavjudligi yoki boshqa sabablarga ko‘ra soliq qarzdorligi paydo bo‘lganligini ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Chunki, boshqa tomondan, xufyona iqtisodiy faoliyat mavjud bo‘lmasada, ammo, debitorlik qarzlarining ko‘payib ketishi oqibatida ham soliq qarzdorligi ham paydo bo‘lishi mumkinligini nazarda tutish lozim bo‘ladi.

2.14-jadval

2021-2023-yillarda aniqlangan xufyona iqtisodiyot doirasida soliq qarzini qisqartirish maqsadida xatlangan mol-mulklar tahlili⁵⁴ (mlrd so‘m)

№	Hududlar	2021-yil		2022-yil		2023-yil	
		jami soliq qarzi	shundan faoliyat ko‘rsatayot gan	jami soliq qarzi	shundan faoliyat ko‘rsatay otgan	jami soliq qarzi	shundan faoliyat ko‘rsatayot gan
I	Respublika bo‘yicha jami:	7 506,7	3 055,2	9202,6	4 597,5	8543,0	4 335,3
	YSTBHSI (yirik soliq to‘lovchilar)	1 070,0	729,7	1023,0	756,2	1034,0	763,0
II	Hududlar bo‘yicha jami	6 436,8	2 325,5	8179,6	3 841,4	7509,0	3 572,4
1	Qoraqalpog‘iston Resp.	202,9	141,3	425,7	201,5	410,0	182,7
2	Andijon viloyati	651,5	136,3	902,5	339,3	899,8	346,4
3	Buxoro viloyati	374,8	146,3	374,8	200,9	361,2	210,1
4	Jizzax viloyati	206,1	107,6	338,0	200,5	355,7	219,8
5	Qashqadaryo viloyati	429,2	245,0	622,4	435,4	589,5	402,5
6	Navoiy viloyati	69,7	47,8	123,1	91,5	130,2	99,5
7	Namangan viloyati	332,4	107,8	471,9	246,6	383,8	207,7
8	Samarqand viloyati	473,1	228,0	538,6	364,2	545,5	373,4
9	Surxondaryo viloyati	252,5	155,8	417,5	282,1	400,8	273,6
10	Sirdaryo viloyati	395,0	121,1	393,2	188,8	388,1	210,3
11	Toshkent viloyati	1 008,6	265,9	1176,1	421,7	944,7	342,6
12	Farg‘ona viloyati	857,2	239,3	920,3	365,7	825,7	248,0
13	Xorazm viloyati	118,5	72,3	248,4	184,1	213,7	146,9
14	Toshkent shahri	1 065,3	310,9	1227,2	319,0	1060,5	309,1

2.14-jadval ma’lumotlariga qaraydigan bo‘lsak, respublikamizda xufyona iqtisodiy faoliyat yuritib soliq qarzini to‘lamay kelayotgan korxonalarga

⁵⁴ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

qo‘llanilgan moliyaviy choralar sifatida 2021-2023-yillarda aniqlangan xufyona iqtisodiyot doirasida soliq qarzini qisqartirish maqsadida ularning mol-mulklari xatlanganligini ko‘rish mumkin. 2021-yilda jami soliq qarzi 7 506,7 mlrd.so‘m bo‘lgan bo‘lsa, uning 3 055,2 mlrd.sumlik qarzi faoliyat ko‘rsatib turgan soliq to‘lovchilar zimmasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan qarz so‘mmasi, ya’ni (7506,2-3055,2) 4451,5 mlrd.so‘mlik soliq qarzi faoliyatini to‘xtatgan soliq to‘lovchilarga to‘g‘ri kelgan va shuncha korxonalarning mol-mulki xatlangan holda soliq qarzini undirish ishlari olib borilgan. 2022-yil va 2023-yillarda ham shunday holat shakllangan.

Mol-mulkning xatlanishi asosida ularning auksion savdolarda sotilishi bir tomonidan, ma’lum bir tashkiliy (ortiqcha faoliyatni) faoliyatni talab qilsa, boshqa tomonidan u ma’lum bir muddatni o‘z ichiga oladi, bundan ko‘rinadiki, xufyona iqtisodiyot doirasida yuzaga kelgan soliq qarzdorlik so‘mmalari ko‘p tomonlama salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Ta’kidlash kerakki, soliq to‘lovchilar tomonidan ish haqi fondidan soliq to‘lamaslik holati bu xufyona iqtisodiyotning eng ko‘p namoyon bo‘ladigan turlaridan biri hisoblanadiki, buni quyida tahlil qilamiz.

2.15-jadval

Chirchiq shahrida eng kam oylik ish haqi miqdoridan kam ish haqi hisoblagan holda xufyona iqtisodiyotni yuzaga keltirgan yuridik shaxslar faoliyati tahlili⁵⁵ (mln so‘m)

Tarmoqlar	Jami yuridik shaxslar	Eng kam ish haqidan kam hisoblangan		Hisoblangan ish haqi fondi (1 oylik)	Eng kam miqdorda hisoblanishi lozim bo‘lgan ish haqi fondi (1 oylik)	Farqi	Bir yillik qo‘srimcha ish haqi fondi	Qo‘srimcha hisoblanishi lozim bo‘lgan daromad solig‘i (1 yillik)
		yuridik shaxs soni	xodim soni					
Jami	3 978	1 292	6 005	3 612,1	5 884,9	-2 272,8	27 274,1	3 272,9
Qishloq xo‘jaligi	70	11	14	6,8	13,7	-6,9	82,8	9,9
Savdo va umumiy ovqatlanish	1 094	364	1 174	685,3	1 150,5	-465,3	5 583,1	670,0
Xizmat ko‘rsatish	1 832	516	1 984	1 085,5	1 944,3	-858,8	10 306,1	1 236,7
Sanoat	703	298	2 550	1 673,8	2 499,0	-825,2	9 902,1	1 188,3
Qurilish	86	48	205	125,7	200,9	-75,2	902,8	108,3
Boshqalar	193	55	78	35,0	76,4	-41,4	497,4	59,7

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, xufyona iqtisodiyotning eng ko‘p tarqalgan turlaridan biri sifatida soliq to‘lovchilar tomonidan xodimlari doirasida ish haqi fondini qonun talablari asosida shakllantirmaslik yoki undan belgilangan tartibda ish haqi hisoblamasdan soliqdan qochish holatlari yoki “konvert usuli”da ish haqi to‘lashni amalga oshiradi. Bu holatni Chirchiq shahar misolida olib qaraydigan bo‘lsak, 2023-yilda 3978 ta korxonadan 1292 tasida 6005 nafar xodimga nisbatan eng kam ish haqidan kam ish haqi hisoblagan, bu bir yilda 27 274,1 mln.so‘mlik ish haqi fondini yashirgan va oqibatda esa, 3 272,9 mln.so‘mlik daromad solig‘i summasi budgetga xufyona tarzda to‘lanmay qolgan.

⁵⁵ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

2.16-jadval

Chirchiq shahrida ishchi xodimlar soni ko‘rsatmagan va bir nafar ko‘rsatgan soliq to‘lovchi korxonalar doirasida xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelganligi tahlili⁵⁶ (mln so‘m)

Tarmoqlar	Jami yuridik shaxslar	Xodim soni kam ko‘rsatgan yuridik shaxslar	Shundan:				Legallash-tirish hisobiga yaratiladigan ish o‘rinlari	Shundan:			Ish haqi fondi jami	Qo‘srimcha hisoblangan daromad solig‘i
			Bir nafar	ko‘rsatmagan	Tovar aylanmasi mavjud	Tovar aylanmasi mavjud emas		Bir nafar	Ko‘rsatmagan (kamida bir nafar)	Tovar aylanmasi mavjud (kamida bir nafar)		
Jami	3978	2 095	973	1 122	13 495,1	1 041	2 176	973	1 203	162	25589,8	3 070,8
Qishloq xo‘jaligi	70	76	29	47	895,3	45	78	29	49	4	917,3	110,1
Savdo va umumiy ovqatlanish	1 094	650	316	334	5 961,8	300	684	316	368	68	8 043,8	965,3
Xizmat ko‘rsatish	1 832	312	149	163	1 037,8	152	323	149	174	22	3 798,5	455,8
Sanoat	703	498	207	291	3 770,1	273	516	207	309	36	6 068,2	728,2
Qurilish	86	93	42	51	400,1	47	97	42	55	8	1 140,7	136,9
Boshqalar	193	466	230	236	1 430,1	224	478	230	248	24	5 621,3	674,6

Soliq to‘lovchilar tomonidan xufyona iqtisodiyotni keltirishda daromad solig‘idan qochish holatlari bo‘lib, ushbu holatni Chirchiq shahridagi 3978 ta soliq to‘lovchi misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning 2095 tasida xodim soni kam ko‘rsatgan, ulardan bir nafar xodim ko‘rsatganlari 973 tani tashkil etgan. 2023-yilda soliq xizmati va boshqa organlari tomonidan legallashtirish hisobiga yaratiladigan ish o‘rinlari 2176 tani tashkil qilishi xufyona iqtisodiyotni ma’lum darajada qisqartirishga erishilganligidan dalolatdir. Buni tarmoqlar kesimida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, xodimlar sonini kam ko‘rsatgan holda soliq to‘lashdan bo‘yin tovlagan korxonalar eng ko‘pi savdo va umumiy ovqatlanish tarmog‘ida (650 ta korxona), sanoatda (498 ta korxona) xizmat ko‘rsatishda (312 ta korxona) tarmoqlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Umumiy tartibda ushbu jami 2095 ta soliq to‘lovchining xufyona faoliyat bilan shug‘ullanishi hisobiga davlat budjeti 3 070,8 mln.so‘mlik zarar keltirgan, bu esa, hokimlik va boshqa vakolatli organlar tomonidan ish o‘rinlarini legallashtirish ishlarini kuchaytirishni taqozo etadi.

⁵⁶ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

2.17-jadval

2018-2023-yillarda O‘zbekistonda iqtisodiy faol aholi va davlat budgetiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i o‘rtasidagi tavofutning tahlili⁵⁷ (mlrd so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Yillar					
	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y
Aholi soni (ming nafar)	32 657	33 256	33 905	34 559	35 271	36 799,8
Mehnat resurslari (ming nafar)	18 830	18 949	19 158	19 335	19 618	20 505,3
Iqtisodiy faol aholi (ming nafar)	14 642	14 876	14 797	14 981	15 102	17 594
Daromad solig‘i to‘lovchilar soni (ming nafar)	4 437,9	4 777	5 465,7	6 168,8	7 141,5	7848,6
Ish haqidan soliq to‘lovchilar soni (ming nafar)	4 201,3	4 527,8	4 656,5	4 704,1	5 054,4	5541,7
O‘z-o‘zini band qilganlar soni	0	0	561,7	1 210,8	1 604,8	1879,2
Yakka tartibdagi tadbirkorlar soni	222	230,7	219,1	217,6	247,0	265,4
Aholining real pul daromadlari (mlrd so‘m)	255 837,5	319 216,23	367456,6	468448,4	568527,8	662749,9
Ish haqi fondi (mlrd.so‘m)	63 225	90 863	111 314	148 246	201 841	268138
aholi real daromadiga nisbatan ulushi, %	24,7	28,5	30,3	31,6	35,5	40,4
Soliq stavkasi, %	7,5:16,5:22,5	12	12	12	12	12
Daromad solig‘i (mlrd. so‘m)	7 448	13 327	15 141	18 918	24 221	29 659

Ushbu keltirilgan 2.17-jadvaldan xufyona iqtisodiyot bilan bog‘liq ikki xil holatni ko‘rish mumkin. Birinchisi bu, iqtisodiy faol aholi bilan ish haqidan soliq to‘lovchilar soni o‘rtasidagi tafovut bo‘lib, bu ko‘rsatkich tahlil qilinayotgan yillar kesimida qariyb 2-2,5 barobarni tashkil qiladi (masalan, 2022-yilda 15 102 / 7 141,5=2,1 barobar). Ikkinci holat bu aholining real pul daromadlari va davlat budgetiga kelib tushadigan daromad solig‘i summasi o‘rtasida nomutanosiblik hisoblanadi. Bu holat ham milliy iqtisodiyot doirasida xufyona iqtisodiyotning mavjudligidan dalolat beradi.

⁵⁷ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

2.18-jadval.

O‘zbekiston soliq tizimida xufyona iqtisodiyotni qisqartirish hisobiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining manbalaridagi o‘zgarishlar tahlili⁵⁸ (yil boshiga mlrd.so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	2021-yil			2022-yil			2023-yil		
		Tushum	Ulush (%)	O‘sish (%)	Tushum	Ulush (%)	O‘sish (%)	Tushum	Ulush (%)	O‘sish (%)
	Respublika bo‘yicha jami tushum	103 566,4		124%	127 970,4		124%	123 843,4		
I.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	15 140,8	14,6%	114%	18 917,7	14,8%	125%	19 429,3	15,7%	103%
	Budjet va davlat tashkilotlari	7 290,4	48,2%	117%	8 872,9	46,9%	122%	9 642,1	49,6%	109%
	Yirik korxonalar	3 592,8	23,7%	128%	4 388,2	23,2%	122%	4 218,2	21,7%	96%
	Ulgurji va chakana savdo korxonalari	665,8	4,4%	126%	939,2	5,0%	141%	927,0	4,8%	99%
	Kishloq xo‘jaligi korxonalari	374,2	2,5%	117%	503,8	2,7%	135%	386,6	2,0%	77%
	Boshqalar	3 217,6	21,3%	94%	4 213,6	22,3%	131%	4 255,5	21,9%	101%
II.	Daromad solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslar soni	4 656,9	100%	103%	4 889,4	100%	105%	5 095,3	100%	104%
	Budjet va davlat tashkilotlari	2 089,8	44,9%	102%	2 074,1	42,4%	99%	2 048,9	40,2%	99%
	Yirik korxonalar	644,7	13,8%	126%	671,2	13,7%	104%	678,5	13,3%	101%
	Ulgurji va chakana savdo korxonalari	270,2	5,8%	115%	317,2	6,5%	117%	331,3	6,5%	104%
	Kishloq xo‘jaligi korxonalari	308,9	6,6%	103%	366,8	7,5%	119%	550,7	10,8%	150%
	Boshqalar	1 343,3	28,8%	94%	1 460,0	29,9%	109%	1 485,8	29,2%	102%
	1 mln.dan kam ish haqi hisoblanganlar (nafar)	1 681,4	36,1%	91%	1 495,8	30,6%	89%	1 305,4	25,6%	87%
III.	Ish haqi jamg‘armasi	111 313,8	100%	123%	148 245,9	100%	133%	142 216,3	100,0%	96%
	Budjet va davlat tashkilotlari	47 044,5	42,3%	117%	57 776,2	39,0%	123%	57 105,0	40,2%	99%
	Yirik korxonalar	28 242,3	25,4%	177%	37 966,6	25,6%	134%	39 913,0	28,1%	105%
	Ulgurji va chakana savdo korxonalari	3 211,3	2,9%	132%	5 418,2	3,7%	169%	5 215,5	3,7%	96%
	Kishloq xo‘jaligi korxonalari	4 854,3	4,4%	112%	5 626,7	3,8%	116%	5 145,2	3,6%	91%
	Boshqalar	27 961,5	25,1%	101%	41 458,3	28,0%	148%	34 837,5	24,5%	84%
	1 mln.dan kam ish haqi hisoblanganlar (nafar)	11 185,1	10,0%	96%	10 758,6	7,3%	96%	8 034,9	5,6%	75%

⁵⁸ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

2.18-jadval orqali O‘zbekiston soliq tizimida xufyona iqtisodiyotni qisqartirish hisobiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining manbalaridagi o‘zgarishlar tahlil qiladigan bo‘lsak, jadvaldan ko‘rinadiki, tahlil qilinayotgan yillarda 1 mln.dan kam ish haqi hisoblanganlar soni nisbatan bo‘lsada kamayib borgan, ularning soni 1681,4 nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda ularning soni 1305,4 nafarni tashkil etib, 305 mingdan ortiq ishlovchiga kamaygan. Bundan ko‘rinadiki, daromad solig‘i bo‘yicha soliq to‘lovchilardan ish haqini kam hisoblash va qolgan qismini “konvert usuli” orqali berish natijasida xufyona iqtisodiy faoliyatning ko‘lami qisqarishga erishilgan.

Xufiyona iqtisodiyotning ulushini qisqartirishga qarshi kurashishda zamonaviy soliq ma’murchiligining yangi mexanizmlaridan biri raqamli markirovkalash tizimi hisoblanadi. Bugungi kunda majburiy raqamli markirovkalash tizimida alkogol, tamaki va pivo mahsulot guruhlarida yakuniy bosqichlarda, maishiy texnika guruhida boshlang‘ich bosqichlarida hamda dori vositalar guruhida tayyorgarlik bosqichida amal qilmoqda.

Mahsulotlarning markirovkalanishi va oxirgi iste’molchiga qadar kuzatib borish maqsadida “Asl belgisi” milliy axborot tizimi ishga tushirilishi qatorida, elektron hisobvaraq - fakturalarida (EHF) markirovka kodlarini biriktirish imkoniyati yaratildi. 2023-yil oxiriga qadar mazkur tizim orqali 1,4 mlrd.donadan ortiq markirovkalangan mahsulotlar ishlab chiqarildi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 737-son va 833-son qarorlariga muvofiq, alkogol va tamaki (2021-yil 1-yanvar) hamda pivo (2021-yil 1 aprel) mahsulotlarini raqamli markirovkalanishi joriy qilindi. Mazkur mahsulotlar raqamli markirovkalangan holda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilib, ishlab chiqaruvchi (51 ta alkogol, 2 ta tamaki va 25 ta pivo) va import qiluvchi (14 ta alkogol, 4 ta tamaki va 10 ta pivo) korxonalar tomonidan jami 1,4 mlrd.dona (747,7 mln.dona – tamaki, 396,3 mln dona – alkogol va 261,3 mln.dona pivo) raqamli markirovkalangan mahsulotlar savdoga tayyorlangan.

Oxirgi uch yilda (2021-yildan buyon) raqamli markirovkalangan mahsulotlar bo‘yicha ma’lumotlarni (nomi, hajmi, ishlab chiqarish sanasi, suratlari) jamlaydigan

“Mahsulotlar katalogi”ga jami 9 172 ta (5 589 ta alkogol, 697 ta pivo, 280 ta tamaki) mahsulot turlari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritildi.

EHF orqali har bir markirovkalangan mahsulot harakatlanishini kuzatish imkonini yaratish maqsadida, EHFlarda markirovka maydonini majburiy to‘ldirish qoidasi barcha ishtirokchilarga (78 ta ishlab chiqaruvchi, 28 ta import qiluvchi hamda 141 ta ulgurji savdo korxonalariga) bosqichma-bosqich tatbiq etilishi ta’minlandi. Markirovkalangan mahsulotlar harakati zanjirini raqamlashtirilishini yakunlash maqsadida chakana savdo korxonalarni markirovka kodlarini to‘g‘ri o‘qishni ta’minlovchi 2D-skanerlar bilan jihozlash tadbirlari yo‘lga qo‘yildi:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-son qaroriga muvofiq, 2022- yil 15- apreldan boshlab maishiy texnikalarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Jami 3 514 ta raqamli markirovkalanishi lozim bo‘lgan maishiy texnika mahsulotlari bo‘yicha batafsil ma’lumotlar “Markirovkalangan mahsulotlar katalogi”ga kiritilishi ta’minlandi. 2023-yilda 71 ta mahalliy ishlab chiqaruvchi va 96 ta import qiluvchi korxonadan birinchi bosqichdagi mahsulotlarni (changyutgich, kir yuvish mashinasi,sovutkichlar va muzlatkichlar hamda televizor va monitorlar) 24 ta ishlab chiqaruvchi va 75 ta import qiluvchi korxona “Asl belgisi” milliy axborot tizimidan ro‘yxatdan o‘tkazilishi ta’minlandi. Jami 17 ta ishlab chiqaruvchi va 25 ta import qiluvchi korxonalar tomonidan jami 1,5 mln. dona – raqamli markirovkalangan maishiy texnika mahsulotlari ishlab chiqarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 149-son qaroriga muvofiq 2022-yil 1-sentyabrdan boshlab dori vositalarni raqamli markirovkalash tizimini joriy qilish natijasida 76 ta mahalliy ishlab chiqaruvchilardan 56 tasi (73 foiz) “Asl belgisi” milliy axborot tizimidan ro‘yxatdan o‘tkazilishi jami 2 554 ta dori vositalari bo‘yicha batafsil ma’lumotlar “Markirovkalangan mahsulotlar katalogi”ga kiritilishi ta’minlangan. Natijada, bugungi kunda jami 75 ta korxonalardan 4 tasi zarur uskunalar bilan jihozlanishi, shuningdek 7 ta korxona tomonidan tegishli shartnomalar imzolangan.

Dori vositalarni xorijiy ishlab chiqaruvchi korxonalarga raqamli markirovkalash tizimi joriy qilinishi yuzasidan Tashqi ishlar vazirligi orqali tegishli xabarnomalar yuborilgan, shuningdek, mazkur korxonalar bilan aloqalarni tashkil qilgan holda, ularni Davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamlarini (STIR) bergan holda hisobga qo‘yilishi tadbirdari yo‘lga qo‘yilgan, o‘z navbatida, 143 ta korxonaga STIRlar taqdim etilib elektron raqamli imzo (ERI) kalitlari berilgan.

2.19-jadval.

O‘zbekistonda alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi soliq to‘lovchilarda xufyona iqtisodiyotning oldini olish maqsadida majburiy raqamli markirovka tizimining joriy etilishi (mln dona)⁵⁹

Ko‘rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Ishlab chiqaruvchilar			
Markirovkalangan mahsulotlar soni	269,7	256,8	109,6
Realizatsiya soni	0	144,1	103,2
Qoldiq	269,7	382,4	388,9
Import qiluvchilar			
Markirovkalangan mahsulotlar soni	1,1	1,5	1,4
Realizatsiya soni	0	0,5	1,08
Qoldiq	1,1	2,1	2,4

Respublikamizda xufyona iqtisodiyotning oldini olish va uning ko‘lamini qisqartirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ayrim turdagи mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2020-yil 20-noyabrdagi 737-sон qarori, Vazirlar Mahkamasining “Ayrim turdagи mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 31-dekabrdagi 833-sон qarori asosida bugungi kunda ayrim turdagи mahsulotlarni markirovkalash orqali xufyona iqtisodiyotning oldi olinmoqda, bunda soliq organlarining faoliyati orqali ushbu tizimni nazorat qilish mexanizmlari kuchaytirilib borilmoqda.

⁵⁹ Davlat soliq qo‘mitasi va tahlil qilinayotgan korxonalar moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

2.20-jadval.

**Alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan
“Toshkentvino” AJda markirovkalash jarayonining korxonada xufyona
iqtisodiyotning oldini olishning tahlili (ming dal)⁶⁰⁶¹**

Ko‘rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Spirit sotib olish hajmi	1 395,6	1 418,2	617,4
Realizatsiya	3 589,6	2 762,6	1 235,1
Kutilgan natija	3 489	3 545,6	1 543,3
Kutilgan natijaga nisbatan farqi	100,6	-783,0	308,4

2.20-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Toshkentvino” AJda markirovkalash jarayonida xufyona iqtisodiyotning oldini olishga imkon yaratgan bo‘lsada, xufyona iqtisodiyotning mavjudligini ko‘rish mumkin, Ushbu holat (“PREMIUM UZBEKISTAN”, "Nukus vino zavodi" AJ, "DAVR Sharob", "Zamin Vino", "Ellikqal'a sharobi") MJChlarda ham kuzatilgan. Ya’ni, Markirovka kodi buyurtmasiga nisbatan kam miqdorda mahsulot ishlab chiqarilganligi, markirovkalangan mahsulot soniga nisbatan realizatsiya soni kamligi, mahsulot qayta sotuvda aniqlanishi yoki o‘ziga tegishli bo‘lmagan mahsulot sotilishi kuzatilgan.

Aynan shunday holat tamaki mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda ham vujudga kelganki, ularda ham markirovkalash tizimi ma’lum darajada xufyona iqtisodiyotning vujudga kelishi orqali soliq tushumlariga ta’siri oldi olinmoqda.

2.21-jadval Noqonuniy tamaki mahsulotlari realizatsiyasi tahliliga ko‘ra 2022-yilda 562,6 mln.dona tamaki mahsuloti sotilgan. Shundan noqonuniy mahsulot ulushi (20%) hisoblanganda 112,5 mln. donani tashkil etadi. Ushbu miqdorga aksiz va QQS solig‘i hisoblanganda 974,9 mlrd.so‘mni tashkil etadi. Tamaki mahsulotlarni ulgurji savdo korxonalari tomonidan yuqori miqdorda tamaki mahsulotlari ONKT orqali sotilishi tahlil qilinganda ulgurji savdo korxonalarning

⁶⁰ Davlat soliq qo‘mitasi va tahlil qilinayotgan korxonalar moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

⁶¹ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

10 tasida markirovkalangan mahsulot realizatsiyasini 100 % va 5 ta korxonaning 50 %dan 90 % gacha realizatsiya miqdori onlayn nazorat kassa texnikasi orqali amalga oshirilganligi kuzatildi.

2.21-jadval.

O‘zbekistonda tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi soliq to‘lovchilarda xufyona iqtisodiyotning oldini olish maqsadida majburiy raqamli markirovka tizimining joriy etilishi⁶² (mln.dona)⁶³

№	Ko‘rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil (9 oy)
Ishlab chiqaruvchilar				
1	Markirovkalangan mahsulotlar soni	480,5	446,2	250,7
2	Realizatsiya soni	0	291,4	235,6
3	Qoldiq	465,7	620,4	635,5
Import qiluvchilar				
1	Markirovkalangan mahsulotlar soni	1,6	9,6	13,4
2	Realizatsiya soni	0	0,6	3,7
3	Qoldiq	1,6	10,7	20,4

Buyurtmaga nisbatan kam ishlab chiqarilgan hamda markirovkalangan mahsulot soniga nisbatan realizatsiya soni kamligi tahlil qilinganda, importyrlarning 2 tasida 10% gacha markirovka kodidan foydalanganligi, 4 tasida mahsulotlarning realizatsiya miqdori 30-35%ni tashkil qilganligi, hamda “Asl Belgisi” MAT ma’lumotiga asosan 5 tasida 100%, 2 tasida 70%dan ortiq realizatsiya qilinmagan mahsulotlar qoldig‘i mavjudligi kuzatilgan. Mahsulot qayta sotuvda aniqlanishi yoki o‘ziga tegishli bo‘lmagan mahsulot sotilishi. Asl Belgisi” MATning ma’lumotlariga ko‘ra (1) 17 ta korxona tomonidan holatda mahsulotni kirim qilmasdan realizatsiya qilinganligi, (2) 23 ta korxona tomonidan holatda bir dona mahsulotni qayta sotilishi (3) 20 ta korxona tomonidan 334,4 mln.ta holatda o‘ziga tegishli bo‘lmagan mahsulotni sotilgan.

⁶² Davlat soliq qo‘mitasi va tahlil qilinayotgan korxonalar moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

⁶³ Davlat soliq qo‘mitasi va tahlil qilinayotgan korxonalar moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzilgan.

Bundan ko‘rinadiki, mahsulotlarni markirovkalash bir tomondan ichki va tashqi bozorga qalbaki mahsulotlarning oldini olishga xizmat qilish bilan bir qatorda xufyona iqtisodiyotning oldini olishda soliq tizimining nazorat tartibidagi faoliyatining samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratmoqda.

Tadqiqot ishimizning mazkur bandi yuzasidan umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, soliq ma’murchilagini yanada takomillashtirish, ya’ni, soliq to’lovchilarga qulay sharoitlar yaratish, ularga soliq xizmatlari ko‘rsatish, ular tomonidan elektron hisob fakturalarni qo’llashni rag‘batlanadirish, ish o‘rnlari sonini legallashtirish orqali daromad manbalaridan soliq to‘lash mexanizmlarini yaratish, shuningdek, mahsulotlarni markirovkalash orqali xufyona iqtisodiyotning oldini olishda soliq tizimining nazorat tartibidagi faoliyatining samaradorligini oshirishga oid tizimli faoliyat bugungi kunda soliq tizimining xufyona iqtisodiyotning oldini olish va uning ko‘lamini qisqartirishga xizmat qilmoqda.

2-bob bo‘yicha xulosa

Tadqiqot ishimizning 2-bobi bo‘yicha amalga oshirgan tadqiqotlarimiz doirasidagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi ayrim ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

Tahlillarning ko‘rsatishicha, soliq tizimida ro‘yxatdan o‘tmasdan faoliyat ko‘rsatish va soliq bazasini yashirish bularning orasida eng ko‘p faol bo‘lgan holat hisoblanadi. Ro‘yxatdan o‘tmasdan faoliyat ko‘rsatish asosan davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan umum ovqatlanish, savdo, ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish nuqtasi tashkil etish orqali tovar va xizmat realizatsiyasini amalga oshirish, davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan, elektron platforma va mesenjerlar orqali savdo (xizmat) ko‘rsatish, o‘ziga tegishli ko‘chmas (ko‘char) mulkni ijara ga berish bo‘yicha shartnomalarni hamda ular bo‘yicha olingan daromadni soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tkazmaslik, QQS guvohnomasi mavjud bo‘lmasdan QQS bilan EXF rasmiylashtirish, QQS maxsus guvohnomasi nofaol bo‘lishi kabi holatlar amaliyotda ko‘p qo‘llanilsa, soliq bazasini yashirish doirasida esa, realizatsiya qilingan tovarlar qiymatini hisob hujjatlarida haqiqatda realizatsiya qilingan qiymatidan pasaytirilgan

narxlar bo'yicha aks ettirish, yuklarni tovar-kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirmasdan yoxud soxta hujjatlar bo'yicha tashish, tovarlarni sotishdan (xizmat ko'rsatishdan) olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o'tkazish (sotish hajmini va daromadni (foydani) qasddan kamaytirish) kabi yo'nalishlarda kuzatilmogda.

Bugungi kunda qurilish sohasida xufiyona iqtisodiyot ulushi 50 foizni tashkil qilib, ko'chmas mulk ob'ektlari jismoniy shaxslarga naqd pulga sotilishida sotish narxini kamaytirib ko'rsatish holatlari keng tarqalgan.

Tahlillarga asosan 2023-yilda 1208 ta qurilish korxonasi tomonidan 23 209 ta ob'ekt bozor narxidan past qiymatlarda realizatsiya qilingan va natijada budgetga 110,8 mln.so'm QQS to'lanmagan. respublikamiz bo'yicha 48 ta sement ishlab chiqarish korxonalari faoliyati alohida tahlil qilinganda, ularning 33 tasida 2 673 986 tonna sement to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali tovar xom-ashyo birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilingan. Uning oqibatida birja narxlaridan past narxda realizatsiya qilinishi natijasida yo'qotilgan soliq bazasi 278092,8 mln.so'mni tashkil etgan.

Soliq tizimida soliq to'lovchilar tomonidan soliq bazasini hisobotlarda ob'ekt ko'rsatish va shu orqali xufiyona iqtisodiyotning oldini olish hamda uning hajmini qisqartirishda soliq tizimiga axborot texnologiyalarning o'rni juda kattadir. 2018-yilda eksperiment jarayonida 3977 ta korxona tomonidan elektron hisobvaraql-fakturalar rasmiylashtirdi, shu bilan birgalikda 2019-yilning 1-iyul sanasidan boshlab barcha tadbirkorlik sub'ektlari ixtiyoriy tartibda elektron shaklda hamda 2020-yil 1-yanvardan boshlab majburiy tartibda hisobvaraql-fakturalarni elektron shaklda rasmiylashtirilishi belgilab qo'yildiki, buning natijasida soliq tizimining xufiyona iqtisodiyotning oldini olishdagi ahamiyati kuchayishi bilan bir qatorda uning (xufiyona iqtisodiyotning) hajmini ham qisqartirishga erishildi.

Soliq ma'murchiligining yanada takomillashtirilishi va soliq tizimini raqamlashtirishning kuchaytirilishi, jamoatchilik asosidagi soliq nazoratini kuchaytirishga e'tibor va rag'batning oshishi hisobiga xufiyona iqtisodiyot shu summaga qisqartirilib, soliq tushumlarining oshishiga erishilgan.

Soliq tizimi instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotni qisqartirishning yana muhim usul (omillari)laridan biri bu soliq to‘lovchilarning “Wefoins” dasturiy mahsul orqali elektron hisobotlarini topshirish orqali soliq to‘lovlari bo‘yicha ma’lumotlarni shakllantirish orqali amalga oshirish hisoblanadi.

Soliq tizimi instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq hisobotlarini taqdim etmagan holatlarni tahlil qilish va uni kamaytirish, bu bo‘yicha soliq to‘lovchilarning bankdagi hisobraqamlari harakatini vaqtincha to‘xtatish orqali ta’sirchan mexanizmlardan samarali foydalanish hisoblanadi.

Soliq qarzdorligining darajasi xufyona iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liqdir. Uning qanchalik ko‘p bo‘lishi, soliq to‘lovchilar tomonidan xufyona iqtisodiyot bilan bog‘langanligini ko‘rsatadi. Agar, soliq qarzdorligining kelib chiqish sabablariga qaraydigan bo‘lsak, ham soliq to‘lovchining iqtisodiy faoliyati to‘laqonli amalga oshirilayotgan bo‘lsada, uning aktivlarining aylanishi yuqori bo‘lsada, soliq qarzdorlik summalarining mavjudligi xufyona iqtisodiyot mavjudligidan dalolat beradi.

Xufyona iqtisodiyotning eng ko‘p tarqalgan turlaridan biri sifatida soliq to‘lovchilar tomonidan xodimlari doirasida ish haqi fondini qonun talablari asosida shakllantirmaslik yoki undan belgilangan tartibda ish haqi hisoblamasdan soliqdan qochish holatlari yoki “konvert usuli”da ish haqi to‘lashni amalga oshiradi.

Xufiyona iqtisodiyotning ulushini qisqartirishga qarshi kurashishda zamonaviy soliq ma’murchiligining yangi mexanizmlaridan biri raqamli markirovkalash tizimi hisoblanadi. Bugungi kunda majburiy raqamli markirovkalash tizimida alkogol, tamaki va pivo mahsulot guruqlarida yakuniy bosqichlarda, maishiy texnika guruvida boshlang‘ich bosqichlarida hamda dori vositalar guruvida tayyorgarlik bosqichida amal qilmoqda.

III BOB. SOLIQ TIZIMI ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH VA UNING OLDINI OLİSH MEXANİZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1-§. Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq tizimidan samarali foydalanishning xorij tajribasi

So'nggi yigirma yil ichida jahon soliq amaliyotida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi: soliq tizimi endi nafaqat byudjetga daromad keltiruvchi vosita, balki milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyotni minimallashtirish va oldini olishning muhim vositasi sifatida ham ko'rilmoxda. Bu boradagi asosiy soliq vositalari soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, soliq yukini va soliq stavkalarini optimallashtirish, davlat va soliq to'lovchi manfaatlariga mos keladigan soliq imtiyozlarini taqdim etishdan iborat. Shuningdek, mazkur chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, soliq to'lashdan bo'yin tovslash imkoniyatlarini kamaytirish ham mazkur jarayonning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi.

Xufyona iqtisodiyotni qisqartirish, uning oldini olish jarayonlarini baholashda dunyo mamlakatlarida ko'plab usullardan foydalaniladi. Ushbu modellarning aksariyatida modelning soliq tizimiga bag'ishlangan qismi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Juhon amaliyotida bunday modellar sirasiga va Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyot Dasturi (BMTTD) doirasida ko'proq tavsiya etiladigan usullarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. *To'g'ridan-to'g'ri usullar* - sifatli ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri to'plash so'rovlar o'tkazish orqali.

2. *Bilvosita usullar* - bilvosita, lekin bir-biriga bog'liq bo'lgan turli ko'rsatkichlarni yanada oqilona baholash. Turli manbalardan olingan ma'lumotlar bir-biri bilan taqqoslanadi va balans usulini tashkil qiladi.

3. *Modellashtirish usullari* - bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatni tavsiflovchi, maxsus formulalar va hisob-kitoblar yordamida muammoni o'rganishning yanada murakkab usuli MIMIC (Multiple Indicators Multiple Causes) orqali.

Albatta bu usullar barchasi murakkab deb hisoblab bo'lmaydi, ammo, jahon amaliyotida ulardan samarali foydalanilib kelinmoqda.

Dunyo amaliyotida xufyona iqtisodiyotning ko'lamini baholashning bilvosita

makrometodlar orasida eng ko‘p aniqlanadigan pul usullari, global ko‘rsatkichlar usullari, shuningdek, balans yondashuvining turli xil modifikatsiyalari va divergensiya usuli qatorida statistik-ekonometrik usullar (modellar)dan ham keng qo‘llanilib kelinadi. Keyingi yillarda dunyo mamlakatlarida boshqa omillar singari soliq tizimi orqali xufyona iqtisodiyotning ko‘lамини baholash va uning hajmini qisqartirishda soliq tizimining rolini baholaydigan samarali model deb hisoblanib kelinayotgan MIMIC (Multiple Indicators Multiple Causes-bir necha ko‘rsatkichlar va sabablar) modeli samarali qo‘llanilib kelinmoqda. Aslida ushbu modelning muallifi B.Frey va Vek-Xannemannlar bo‘lib, ular bu model orqali kuzatilmaydigan iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi omillarni bir necha ko‘rsatkichlar, jumladan, soliq tizimini ham muhim omil sifatida baholagan holda Afrika va Lotin Amerikasidagi ayrim mamlakatlarda xufyona iqtisodiyotning darajasini o‘lchashda hamda unda soliq tizimining ahamiyatini baholab beradi. Keyinchalik ushbu modelni yanada takomillashtirish orqali uni soliq tizimida ham qo‘llash imkoniyatlarini ochib bergen iqtisodchi olimlar F.Shnayder, T.Gosh, D.Djayls G.Teddslar tomonidan rivojlantirildi. Hozirgi vaqtda ushbu model orqali dunyoning ko‘pgina davlatlarida xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq omillarni baholash va undan samarali foydalanish sifatida qo‘llanilib kelinmoqda.

Ushbu modelning asosiy g‘oyasi kuzatilmaydigan iqtisodiyotning yuqori ulushidan olingan mahsulot yoki daromadni yashirin o‘zgaruvchi sifatida ko‘rsatishdir, bu sabab va oqibatlarga (natijalarga) ega, ular kuzatiladi, lekin ularning o‘zlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchanmaydi. Modelga kuzatilayotgan o‘zgaruvchilarining ikki turi kiritiladi, bular «sabab» o‘zgaruvchilari va bitta kuzatilmagan indeks bilan bog‘liq bo‘lgan «dalil» o‘zgaruvchilardir. Indeks qiymatlari statistik modelni hisoblash orqali sabab va ko‘rsatkich ma’lumotlaridan olinadi. MIMIC modeli yashirin iqtisodiyot darajasi ma’lum miqdordagi kuzatilgan ko‘rsatkichlar (yashirin iqtisodiyot hajmining o‘zgarishini aks ettiruvchi) bilan bog‘liq bo‘lgan yashirin o‘zgaruvchi deb hisoblangan kuzatilgan sabab-oqibat o‘zgaruvchilari to‘plami degan taxminga asoslanadi.

Mazkur modelda uchta muhim cheklovlardan foydalaniladi. Birinchidan, MIMIC modeli tahlilga kiritilgan o‘zgaruvchilarni tanlashga ayniqsa sezgir hisoblanadi, to‘rtinchidan, u nisbiy o‘lchamlarni oldindan mavjud etalon bilan birlashtirish kerak bo‘lgan taxminlarni ishlab chiqadi, uchinchidan, modelga kiritilgan o‘zgaruvchilar norasmiy uy xo‘jaligi yoki noqonuniy iqtisodiyotning dinamikasini ham aks ettirishi mumkin, bu esa yashirin iqtisodiyotning bir qismi hisoblanmasligi kerak deb olinadi. Bunda soliq instrumentlari sifatida nolegal ish o‘rinlari, hisobga olinmagan mahsulot, noqonuniy foydalangan soliq imtiyozlari, davlat tomonidan kechib yuboriladigan, ammo, soliq to‘lovchida to‘lash imkoniyati bo‘lgan soliq qarzlari kabi ko‘rsatkichlardan ham foydalaniladi.

MIMIC modeli ikki tomonlama afzallikkarga ega bo‘lsada, ular (a) yashirin iqtisodiyot kabi kuzatilmaydigan o‘zgaruvchilarni modellashtirishi va (b) buni tayyor makroiqtisodiy ma’lumotlardan foydalangan holda amalga oshirishi mumkin, ammo ular muammosiz emas. Bundan tashqari, ushbu modellar faqat yashirin iqtisodiyot hajmining nisbiy hisob-kitoblarini taqdim etadi, ularni oldindan mavjud bo‘lgan bazaviy ko‘rsatkichlar bilan birlashtiradi, shuning uchun asosiy baholashni tanlashga ehtiyyotkorlik bilan yondashish lozim bo‘ladi. Albatta, bu modelning eng ahamiyati sifatida ishsizlik va soliq yuki kabi omillarni o‘zaro integratsion bog‘liqlikda tahlil qilishi natijasida, soliq yukining og‘irligi odamlarni nafaqat yashirin iqtisodiyotga, balki ularni uy xo‘jaligiga yoki noqonuniy iqtisodiyotga ham surishi mumkinligi tahlil qilib berishidir.

Umuman olganda, soliq tizimi orqali yashirin iqtisodiyotni o‘lchashga yondashuvlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita usullar. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yondashuvlar odatda so‘rov ma’lumotlari kabi mikro darajadagi ma’lumotlarga asoslanadi va ular yashirin iqtisodiyotning tuzilishi haqida batafsil ma’lumot berishi mumkin bo‘lgan afzallikkarga ega. Biroq, so‘rovlari, agar ular haqiqiy yashirin iqtisodiyotni aks ettirmasa yoki respondentlar to‘g‘ri javob bermasa, yashirin iqtisodiyot hajmini kam baholaydi. Bundan tashqari, ular resursni ko‘paytirishi mumkin, ayniqsa mamlakatlararo yoki vaqtinchalik tadqiqotlarda, resurslar yoki imkoniyatlar cheklangan sharoitlarda ularni kamroq jozibador qiladi.

Boshqa tomondan, bilvosita yondashuvlar odatda osonroq mavjud makroiqtisodiy ma'lumotlarga asoslanadi. Shu jihatdan olganda soliq instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotni baholashning ushbu MIMIC modeli yashirin iqtisodiyot hajmini baholash uchun strukturaviy tenglamani modellashtirishga (SEM) asoslanadi.

Jahon banki mazkur modelni qo'llagan holda O'zbekistonning yashirin iqtisodiyoti hajmini mintaqaviy istiqbolda baholash yuzasidan (2023-yil 7-avgustdag'i) o'z hisobotida MIMIC modeli asosida 2000-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olgan holda yashirin iqtisodiyot hajmini baholadi va unda 3 ta sabab omilini-davlat daromadlari, ishsizlik darajasi, COVID-19 ning ta'siri va 3 ko'rsatkich pul taklifi, ishchi kuchining o'sishi, iqtisodiy o'sish kabi o'zgaruvchilarning tahlilini o'tkazdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, COVID-19 yashirin iqtisodiyot hajmining 2019-yilda nisbatan birmuncha oshishiga olib kelgan. Ushbu modelni qo'llash jarayonida soliq tizimidan samarali foydalanish sifatida quydagilarni tavsiya etgan: birinchidan, soliq yukini kamaytirish, xususan, soliq stavkalarini muvofiqlashtirish qilish, rioya etilishini rag'batlantirish va soliq to'lovchilarning ishonchini mustahkamlash orqali soliq ma'naviyatini yaxshilash; ikkinchidan, biznes yuritish xarajatlarini kamaytirish va ish o'rinnari yaratishni rag'batlantiruvchi mehnat bozori siyosati va qoidalariga ustuvorlik berish orqali rasmiy iqtisodiyotda ish o'rinnarini yaratish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish va shu kabilar.

Tadqiqot ishimizning birinchi bobida ta'kidlanganidek, xufyona iqtisodiyotning umumiyligi iqtisodiyotdagi ulushini qisqartirish hamda uning yuzaga kelishini imkon qadar oldini olish jarayonida boshqa instrumentlar singari soliq instrumentlaridan foydalanish masalalari ko'pgina xorijiy davlatlarda anchayin katta tajriba evaziga takomillashib bormoqda. Tadqiqot ishining hajmiga quyilgan talablardan kelib chiqqan holda, imkon qadar katta tajribaga ega ayrim davlatlarning tajribasini qiyosiy tahlil qilgan holda, ularning tajribalarining ba'zilarini milliy iqtisodiyot tizimimizda istiqbolda foydalanish yo'nalishlari bo'yicha quyida tahlillar va ilmiy mulohazalar yuritamiz.

Ma'lumki, bugungi kunda dunyo mamlakatlarida soliq to'lovchi tadbirkorlik sub'ektlariga xaridorlardan mobil ilova orqali to'lovlarni qabul qilish jarayoni anchayin rivojlanib borishi bilan birgalikda bu bir tomondan o'zaro hisob kitoblar

tizimini soddalashtilsada, biroq, xufyona iqtisodiyotni vujudga keltirib chiqarishning bitta omili sifatida ham baholanadi va shunga muvofiq moliyaviy choralar ko‘rib boriladi. Agar, buni rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qiladigan bo‘lsak, Xitoy Xalq Respublikasida fuqarolar tomonidan mobil ilovalar (Wechat) orqali to‘lovlarni tadbirkorlik sub’ektlarining hisob-raqamlariga o‘tkazish amaliyoti joriy etilgan. Xitoy milliy bankining 2017-yildagi 242-sonli qaroriga asosan “Shtrix kodlar va QR-kodlar orqali to‘lovlarni qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan. Bunga ko‘ra, banklar hamda bank faoliyatini tashkil etmagan to‘lov platformalariga jismoniy shaxslardan tadbirkorlik sub’ektlariga pul o‘tkazmalarini amalga oshirishning talablari belgilangan. Bu talablarning mazmuni albatta pul o‘tkazmalari jarayonida soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqarmaslik jihatlariga alohida e’tibor berilishi bir qatorda javobgarlik choralari ham qat’iy mustahkamalanib qo‘yilgan.

Xitoyda “WeChat (WeChat pay)” texnologik tizimda quyidagi xizmatlarni o‘z ichiga olgan: jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasidagi to‘lovlar, mobil to‘lovlar va P2P, elektron savdo (E-shop), mobil xaridlar, ijtimoiy tarmoqlar, fuqarolar o‘rtasida fayllar almashish imkoniyati, chat, video va audio qo‘ng‘iroqlar hamda lokatsiyani ularish va shu kabilar bo‘lib, bugungi kunda, mazkur tizim foydalanuvchilari 827 mln.kishini (aholining 59 foizi) tashkil etib, mobil ilova orqali naqdsiz pul hajmi 83 foizni tashkil etmoqda, vaholanki, bu davlatda YaIMga nisbatan xufiyona iqtisodiyot ulushi – 10 foizni tashkil etmoqdaki, albatta bunda soliq instrumentlaridan samarali foydalanishning ham o‘ziga xos ahamiyati mavjuddir.

Bu borada qo‘shni davlatlardan Qozog‘iston tajribasi ham amaliy jihatdan o‘z ahamiyatiga egadir. Qozog‘istonda tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan to‘lovlarni mobil ilovalar (Kaspi) orqali qabul qilish imkoniyati yaratilgan. Xususan, Qozog‘istonning 2016-yil 26-iyuldaggi 11-VI sonli Qonunida mobil ilovalar orqali to‘lovlarni amalga oshirish tartibi belgilangan. Shuningdek, Qozog‘istonning Soliq kodeksining 165-moddasiga asosan tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan pullik hisob-kitoblar NKMlardan majburiy tartibda foydalanish orqali oshirilishi, mobil ilova orqali to‘lovlar pullik hisob-kitoblar sifatida malakalanishi keltirilgan.

Qozog‘istonning “Kaspi Pay” mobil ilovasi 2017-yilda ishga tushirilgan bo‘lib, mamlakatda naqdsiz aylanma hajmi joriy yilning 6 oyligida 138 foizga oshgan. Bundan tashqari, 2021-yilda naqdsiz pul aylanmasi hajmi 35,3 foizdan – 72,3 foiz (yoki 2 barobar)ga oshganligi bevosita soliq tushumlarining 5,6 trln.tengedan – 10,7 trln.tenge (yoki 2 barobar)ga ko‘payishiga sabab bo‘lgan. Bugungi kunda, mobil ilova foydalanuvchilar soni – 12 mln.nafar (aholining 63 foizi)ni, YaIMga nisbatan xufiyona iqtisodiyot ulushi 19 foizni tashkil etmoqda.

AQShda “P2P” orqali to‘lovlar qiymati bir yilda 600 AQSh dollaridan oshgan fuqarolar deklaratsiya asosida soliqqa tortiladi. Kanada Federatsiyasida tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishda onlayn bozorlar yoki mobil ilova orqali xaridorning plastik kartasidan sotuvchining plastik kartasiga pul o‘tkazmalari amalga (P2P) oshirilganda, to‘rt kalendar choragidagi o‘tkazmalar summasi 30 ming dollardan oshgan daromadlar uchun tovarlar va xizmatlar solig‘ini Kanada daromad agentligiga to‘lanishi talab etiladi. Bundan tashqari, AQShda soliqdan qochish sxemasi bo‘yicha soliq organiga ma’lumot bergen shaxslarni soliqni yashirish summasi foiz va jarimalarni hisobga olgan holda 2 mln AQSh dollaridan oshsa, ushbu undirilgan mablag‘lardan 15-30 foizigacha rag‘batlantirish tizimi mavjud. Biroq, ushbu summadan kam bo‘lganda, rag‘batlantirish masalasi soliq organi tomonidan ko‘rib chiqilishi qayd etilgan.

Bu jarayonni O‘zbekistondagi holat bilan qiyosiy solishtiradigan bo‘lsak, bugungi kunda, yirik savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoq korxonalari tomonidan to‘lov platformalari bilan shartnoma tuzgan holda jismoniy shaxslardan to‘lovlarni “R2V” va marketpleyslar orqali qabul qilish imkoniyati yo‘lga qo‘yilgan. Agar, tahlil qiladigan bo‘lsak, soliq to‘lovchi “ANGLESEY FOOD” MChJning 2023-yildagi aylanmasi 6 968,1 mlrd.so‘m, ONKM orqali tushumlari 6 397,6 mlrd.so‘mni shundan, “R2V” orqali (fuqarolar plastik kartalaridan tadbirkorlik sub’ektlari hisobraqamiga) to‘lovlar 507,5 mlrd.so‘m (yoki 7,9 foiz)ni tashkil etgan.

Shuningdek, “INTERNATIONAL FOODCHAIN” MChJning 2023-yildagi aylanmasi 514,6 mlrd.so‘m, ONKM orqali tushumlar 474,8 mlrd.so‘mni shundan,

marketpleys orqali to‘lovlar 30,6 mlrd.so‘m (6,2 foiz)ni tashkil etgan. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda jismoniy shaxslarning bank kartalari orqali operatsiyalar hajmi 1 103,4 trln.so‘m (shundan, kartaga kelgan 553,6 trln.so‘m, kartadan amalga oshirilgan 549,8 trln.so‘m)ni tashkil etib, jami P2P orqali to‘lovlar qiymati 582,3 trln. so‘m (yoki 52 foiz)ni tashkil etgan. Bundan ko‘rinadiki, respublikamizda bunday tartibdagi xufyona iqtisodiyotning o‘sishiga omil bo‘ladigan jarayonlarni qisqartirishda moliyaviy mexanizmlarning ta’sirchanligini oshirish taqozo etiladi. Bundan tashqari, birgina 2023-yilning dekabr oyida P2P orqali to‘lovlarni qabul qilgan tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati sayyor soliq tekshiruvidan o‘tkazilganda 196 ta holatning barchasida P2P orqali to‘lovlarni qabul qilish holat aniqlangan.

Bu boradagi yana bir ilg‘or xorijiy tajriba haqida so‘z boradigan bo‘lsa, soliq to‘lovchilarning bank hisobvaraqlaridagi mablag‘lar harakati to‘g‘risida ma’lumotlarni elektron tarzda soliq organlariga taqdim etib borish orqali soliq organlarining pul aylanmalarining yo‘nalishlari asosida tegishli soliq turi bo‘yicha soliq bazasini shakllantirgan holda xufyona iqtisodiyotning oldini olishga qaratilgan amaliyotini keltirib o‘tish mumkin. Bu bo‘yicha ta’kidlash mumkinki, Avstraliya, Chexiya, Daniya, Finlyandiya, Fransiya, Italiya, Norvegiya, yangi Zelandiya, Ispaniya va Turkiya davlatlarida soliq ma’muriyati uchun bank ma’lumotlarini cheklovlarsiz olishlari belgilangan bo‘lib, ularda xufyona iqtisodiyotni soliq instrumentlardan samarali foydalanish imkoniyatini bermoqda.

Bu jarayon bilan bog‘liq yana bir xorijiy ilg‘or tajriba sifatida aksariyat mamlakatlarda barcha tadbirkorlik sub’ektlari, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bank hisobvaraqlari ochish majburiy hisoblanishi bo‘lib, bu jarayon soliqqa tortish bilan ham bog‘langandir. Soliq to‘lovchilar tomonidan xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqarishga omil bo‘lgan ushbu jarayonga soliq instrumentlaridan foydalanishni amalga oshirish uchun masalan, Ozarbayjonda jismoniy va yuridik shaxs bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlarining banklarda hisob raqamlari bo‘lishi majburiy bo‘lsa, Rossiya Federatsiyasida (Rossiya Bankining 11.03.2014-yildagi 3210-son qarori) aholi bilan naqd pulda ishlovchi soliq

to‘lovchilar belgilangan limitdan oshgan naqd pullarni har kuni tijorat banklariga topshirishi yoki belgilangan limitdan oshmasa naqd pullarni tijorat banklariga topshirish muddati (tashkilotning ish kunlarida) 7 ish kunidan (tashkilot tijorat banklari mavjud bo‘lmagan hududda joylashgan bo‘lsa 14 ish kuni) oshmasligi belgilangan. Bunda, tashkilot ish kunining oxirida kassada saqlanishi mumkin bo‘lgan maksimal ruxsat etilgan naqd pul miqdorini (naqd pul qoldig‘i limitini) mustaqil ravishda belgilashi mumkin.

O‘zbekistonda, 2020-2023-yillarda elektron xizmat ko‘rsatuvchi 40 dan ortiq chet el kompaniyalari (Google, Amazon va boshqa) tomonidan budgetga ixtiyoriy ravishda 96 mlrd.so‘mdan ortiq (shu jumladan, 2022-yilda 44,7 mlrd.so‘m) qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘langan. Biroq, O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tmasdan yuridik va jismoniy shaxslarga elektron tijorat xizmatlarini ko‘rsatayotgan ayrim kompaniyalar bo‘yicha soliqqa tortishda muammolar saqlanib qolmoqda. Misol uchun, O‘zbekistonda “Yandeks taksi” elektron platformasi orqali aholiga transport xizmatlari ko‘rsatayotgan kompaniyalar 2020-yildan buyon soliq to‘lamasdan faoliyat ko‘rsatib kelgan bo‘lsa, 2023-yildan buyon soliqqa tortila boshlandi.

Agar platforma operatori ikkita ogohlantirishga qaramay ro‘yxatdan o‘tish majburiyatini bajarmasa yoki ro‘yxatdan o‘tish bekor qilingan bo‘lsa, Federal Markaziy ichki daromadlar boshqarmasi platforma operatorlariga platformani boshqarishni taqiqlashi va uni blokirovka qilishni buyurishi mumkin (Evropa Ittifoqi davlatlarida tartib bir xil).

Argentina (5%-15%), Turkiya va Vengriya (7,5%), Avstriya, Kolumbiya, Fransiya, Italiya, Ispaniya va Tunis (3%), Tanzaniya va Angliya (2%), Keniya, Polsha va Serra-Leone (1,5%) kabi davlatlarda bunday kompaniyalar uchun elektron xizmatlar solig‘i (DST – digital services tax) joriy qilingan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqining (22.03.2021-y. 2021/514-son) Direktivasiga asosan, 01.01.2023-yildan barcha elektron platformalar majburiy ro‘yxatdan o‘tkazilishi va soliq organlari axborot tizimlariga integratsiya qilinishi belgilangan.

Germaniyada elektron platformani to‘g‘ri va (yoki) o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazmaganlik uchun 50 ming yevrogacha shuningdek, soliq organlari ro‘yxatga

olish ma'lumotlarini o'zgartirish to'g'risida xabardor qilinmagan taqdirda 50 ming yevrogacha moliyaviy jarima solinadi. Shu bilan birga, moliyaviy-soliq hisoboti taqdim etilmagan, o'z vaqtida va (yoki) to'g'ri taqdim etilmagan taqdirda 30 ming yevrogacha jarimaga sabab bo'ladi. Bundan tashqari Germaniyada noqonuniy faoliyatdan daromadlar o'zlashtirilishini oldini olish bo'yicha qonun qabul qilingan va tashkilotlar doimiy ravishda quyidagi ma'lumotlarni taqdim etishlari shart.

Germaniyada banklarga qo'yilgan talab bo'yicha ko'p sonli turli xil bank hisobvaraqlari, juda katta miqdordagi naqd pul depozitlari, katta miqdordagi pulni tashish, katta miqdordagi naqd pulni saqlash, yomon investitsiya sharoitlarini darhol qabul qilish, naqd depozitlar 10 000 yevro va undan yuqori bo'lган maxsus shartlarga muvofiq. Sug'urta tashkilotlari esa, sug'urta kompaniyalari yoki shunga o'xhash sug'urta kompaniyalaridagi depozitlar haqida gap ketganda, sug'urta kompaniyalari ham shubhali operatsiyalar to'g'risida xabar berishlari shart. O'z navbatida ko'chmas mulk agentlari: ko'chmas mulk agentlari ham notariuslar singari ko'chmas mulk sotib olayotganda ko'rindigan naqd operatsiyalarini nazorat qilish funksiyasini bajaradilar. Bundan tashqari, kazinolar kazinoda naqd pulni chiplarga almashtirish mumkin. Noqonuniy pul qonuniy pul operatsiyalariga aylanadigan teskari almashinuv ham mumkin. Avtosalonlar ayniqsa, hashamatli segmentda jinoyatchilar ko'pincha qimmatbaho mashinalari uchun naqd pul to'laydilar. Bunday xarajatlar "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to'g'risida" gi qonunning mazmun-mohiyatida aniq va bu haqda xabar berish kerak.

Soliq instrumentlaridan xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va uning yuzaga kelishini kamaytirishda tahlil qilingan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish yuzasidan shunday bir xulosaga kelindiki, ularning milliy iqtisodiyotimizga mosligi jihatidan olganda Ozarbayjon davlatining tajribasi nisbatan ancha samaraliroq degan xulosaga kelinadi. Shundan kelib chiqqan holda Ozarbayjon Respublikasida xufyona iqtisodiyot darajasini qisqartirishda soliq instrumentlaridan foydalanish masalalarini tahlilini keltirib o'tamiz.

Ozarbayjon Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining ma'lumotlariga xufiyona iqtisodiyot ulushini aniqlashda yagona metodologik tartib mavjud emas. Shu bilan birga bugungi kunda Ozarbayjonda norasmiy iqtisodiyotning ulushi YaIM ning 8 foizi (6,5 mlrd.doll.) darajasida baholangan. 2022-yil yakunlari bilan YaIM 133,8 mlrd. manatni, shundan soliq tushumlarining (27 mlrd. manat yoki 15,2 mlrd.doll.) ulushi 20 foizni tashkil qilgan. Ozarbayjon Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan norasmiy iqtisodiyotni belgilovchi 9 ta indikator ko'rsatkichlari ("barometr obeleniya ekonomiki") joriy qilinib, har oy yakuni bilan muhokama qilib boriladi, o'z navbatida 2017-yilda xalqaro tashkilotlar hisobotlariga ko'ra Ozarbayjonda norasmiy iqtisodiyot ulushi 67 foizni tashkil qilib, dunyoda eng yuqori o'rnlardan birida bo'lgan.

Ozarbayjonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari yer solig'idan tashqari barcha soliqlardan ozod etilgan. 2022-yil yakunlariga ko'ra Ozarbayjonda qishloq xo'jaligi sohasining YaIMdagi ulushi 5,1%ni tashkil etib, 4,1 mlrd.doll.ga yetgan. 2020-yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotlari realizatsiyasi bo'yicha aylanmani yashirish va (yoki) kamaytirib ko'rsatish holatlari aniqlanganda Ozarbayjon Soliq kodeksining 58-moddasiga ko'ra, mazkur summaning 6 foizi miqdorida moliyaviy jarima qo'llaniladi, shuningdek, Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan aniqlangan tomorqa xo'jaligi egalarining bir qism xarajatlarini qoplash maqsadida elektron faktura rasmiylashtirilgan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini realizatsiya qilingan taqdirda budjetdan subsidiya beriladi.

Ozarbayjonda 2020-yil may oyidan jismoniy shaxslarga xarid summasidagi QQSning bir qismini qaytarish (keshbek) tizimi joriy qilingan bo'lib, bunda xaridlar naqd pulsiz shaklda amalga oshirilganda QQS summasining 17,5 foizi (xarid summasining 3,1 foizi), naqd pulda esa 5 foiz (xarid summasining 0,9 foizi) miqdorida keshbek summasi qaytariladi.

Ozarbayjon Soliq kodeksining 58-moddasiga asosan huquqbazarlik birinchi marotaba sodir etilganda 1000 manat (590 doll.), ikkinchi marotaba sodir etilganda 3000 manat (1750 doll.), uch va undan ortiq marotaba sodir etilganda 6000 manat

(3500 doll.) moliyaviy jarima qo'llaniladi. Savdo va xizmat ko'rsatish sohasi Ozarbayjon Respublikasining 2016 yil 16 dekabrdagi "Naqd pulsiz xisob kitoblar to'g'risida"gi Qonuni asosan yuridik shaxslar uchun QQS to'lovchilar xarajatlari uchun oyiga 30 ming manatgacha (o'rtacha 17,6 ming doll.) naqd pulda, qolgan yuridik shaxslar oyiga 15 ming manatgacha (o'rtacha 8,8 ming doll.) naqd pulda hisob-kitob qilish mumkin. Mazkur me'yorlar talablari buzilishi holatlari uchun 10 foizdan 40 foizga qadar moliyaviy jarima belgilangan. Jismoniy shaxslar uchun chakana savdoda bir bitim doirasida 4 ming manatdan (o'rtacha 2,4 ming doll.) ortiqcha qismi (avtomobil savdosi bundan mustasno) faqat naqd pulsiz ko'rinishda amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu tizim ishga tushirilishi natijasida tovar oborot oshishi hisobiga QQS tushumi 25,7 % ortgan. Ozarbayjonning bu boradagi yana bir muhim tajribalaridan biri bu soliq xizmati tomonidan tadbirkorlik sub'ektlarida xodimlar bilan mehnat shartnomasi imzolanmaganlik holati aniqlansa ularga nisbatan har bir xodim uchun 2 000 manat (1 180 doll.) miqdorida jarima qo'llanilgan bo'lib, ushbu holat takroran aniqlanganda 4 000 manat (2 360 doll.), uchinchi marta va undan ko'p aniqlangan holatlarda esa 6 000 manat (3 540 doll.) miqdorida jarima qo'llaniladi. Shu bilan birga, 10 nafar va undan ortiq mehnat shartnomasi imzolanmaganlik holatlari aniqlanganda jarima bilan birga mansabdor shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik mavjud.

Mamlakatda ish haqini legallashtirish choralari natijasida Pensiya jamg'armasi defitsiti 2018-yildagi 36 foizdan 2022-yil yakuni bilan 20 foizga tushgan. Ozarbayjonda yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar uchun banklarda hisobraqami bo'lishi majburiy etib belgilangan. Qonunchilikka asosan soliq organlariga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bank aylanmalari bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etishi bo'yicha cheklov (bank siri) mavjud emas. Banklar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar bank aylanmasi bo'yicha ma'lumotlar har oy yakuni bilan soliq organlariga taqdim etib boriladi. Ozarbayjon Respublikasi Soliq kodeksida transport tashkilotlari tomonidan tovar transport yuk xatini elektron tarzda rasmiylashtirish majburiy etib belgilangan.

Shundan kelib chiqib, bugungi kunda transport yuk xatini elektron tarzda amalga oshirish yuzasidan platforma yaratilib ishga tushirish mo‘ljallanmoqda.

Umumiy qilib aytganda yuqorida bir qator rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan davlatlarning o‘z milliy iqtisodiyotida xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq instrumentlaridan foydalanishda O‘zbekistonda ilg‘or tajriba sifatida shakllangan holatlar mavjudligini ta’kidlash mumkin. Ushbu ilg‘or tajribalar va O‘zbekiston milliy soliq tizimda qo‘llash mumkin bo‘lgan, muhim tajribalardan biri sifatida banklardagi soliq to‘lovchilarning pul aylanmalari, hisobvaraqlarni barcha tadbirkorlik sub’ektlari uchun majburiy tartibda bo‘lishi orqali soliqdan qochish holatlarini nazorat qilish mexanizmlarining mavjudligini keltirish mumkin.

Bu borada Ozarbayjon respublikasida soliq va boshqa moliyaviy instrumentlar orqali mamlakatda xufyona iqtisodiyotning oldini olishda keyingi 6-8 yil davomida boshqa mamlakatlar, shu jumladan O‘zbekiston soliq tizimida ham qo‘llasa samara beradigan ilg‘or tajribalar shakllangan bo‘lib, fikrimizcha, ularning ayrimlarini qo‘llash o‘z samarasini beradi deb hisoblaymiz.

3.2-§. O‘zbekistonda soliq instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotning qisqartirish yo‘nalishlari

Oldingi boblarda muhokama qilinganidek, soliq to’lashdan bo‘yin tov lash yashirin iqtisodiyotning asosiy xususiyati hisoblanadi. Bu nafaqat hukumat uchun soliq tushumlarining yo‘qolishiga olib keladi, balki rasmiy iqtisodiyot ishtirokchilariga qo’shimcha yuk yuklaydi. Yashirin iqtisodiyot korruptsiyani ham kuchaytirishi mumkin, chunki u ko‘pincha noqonuniy operatsiyalar va soliq to’lashdan bo‘yin tov lash bilan bog‘liq bo‘lib, suiiste’mollik va poraxo’rlik uchun imkoniyatlar yaratadi. Norasmiy va yashirin tabiat tufayli, yashirin iqtisodiyotni nazorat qilish va tartibga solish qiyin bo‘lishi mumkin. Uning kurashi qonun ustuvorligini kuchaytirish, soliq tizimida islohotlar va rasmiy bandlikni rag‘batlantirish choralarini ko‘rishni talab qiladi.


Yashirin iqtisodiyot qonunlar va qoidalardagi o‘zgarishlarga javoban tez-tez o‘zgarib turadi, bu esa hukumat uchun oldindan aytib bo‘lmaydigan va unga qarshi

kurashishni qiyinlashtiradi. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun qonunbuzarlarga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish, rasmiy ishga joylashishni rag‘batlantirish, soliq tizimini takomillashtirish, shaffoflik va nazoratni kuchaytirish choralarini o‘z ichiga olgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan ko‘plab korxonalar ro‘yxatdan o‘tmagan va litsenziya va ruxsatnomalar olish kabi muhim rasmiyatchiliklarni bajara olmaydi. Yashirin iqtisodiyot ko‘pincha naqd pul operatsiyalari bilan ajralib turadi, bu shaffoflikni pasaytiradi va hokimiyat organlari faoliyatini nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Odatda, yashirin iqtisodiyot rasmiy iqtisodiyotga taalluqli standartlar va qoidalardan qochib, davlat tomonidan tartibga solish va nazoratdan tashqarida ishlaydi. Yashirin iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning ko‘p faoliyati noqonuniy yoki yarim qonuniy, jumladan, rasmiy ro‘yxatdan o’tmasdan, soliqqa tortilmasdan yoki huquqiy hujjatlarsiz ish bilan ta’minlanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6098-sон farmoni talablari bo‘yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan tadbirlar ushbu sohada ijobjiy ish tajribasiga ega xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Rossiya Federal soliq xizmati va boshqalar) bilan izchil davom ettirilishi, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish rasmiy faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek tadbirkorlarga teng raqobat muhitini yaratish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilganiga qaramasdan yuqoridagi 3.1-rasmda keltirilgan soliq instrumentlarini qo‘llash bilan bog‘liq muammolardan tashqari yana boshqa yo‘nalishlarda ham muammolar saqlanib qolinmoqda.

O‘zbekiston soliq tizimida xufyona iqtisodiyotni kamaytirishdagi nazorat mexanizmlari bilan bog‘liq muammolar yo‘nalishlari



3.1-rasm. O‘zbekiston soliq tizimida xufyona iqtisodiyotni kamaytirishdagi nazorat mexanizmlari bilan bog‘liq muammolar yo‘nalishlari⁶⁴

Quyida ilmiy tadqiqot ishimizning hajmiga qo‘yilgan talablardan kelib chiqib, bugungi kunda xufyona iqtisodiyotni jilovlashda soliq instrumentlarini qo'llash borasidagi ayrim muhim muammolar va ularni hal etish hamda amaldagi mavjud

⁶⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

mexanizmlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy yondoshuvlarimizni bildirib o‘tamiz.

3.1-jadval.

2021-2023-yillarda yuridik shaxslar tomonidan notarius orqali realizatsiya qilingan turar joy ob’ektlarini sotish jarayonida soliq bazasining yashirilganlik holati tahlili (mln.so‘m)⁶⁵

№	Ko‘rsatkichlar	yillar		
		2021	2022	2023
1	Korxona soni	1 472	1 641	1 970
2	Ob’ektlar soni	36147	49514	60 045
3	Maydoni, kv.m	2 299 354	3 171 211	3 969 744
4	Qiymati	12 587 698,1	14 386 275,4	19 781 337,3
5	Bozor narxidan past sotish natijasida kamaytirilgan soliq bazasi	6 589 161,4	7 148 254,2	7 872 682,9
6	Qo‘srimcha hisoblanishi mumkin bo‘lgan soliqlar:			
	Jami	1 540 789,6	1 871 258,1	2 125 624,4
	QQS	555 369,1	764 112,3	944 721,9
	Foyda solig‘i	854 297, 2	1 005 845,1	1 180 902,4

Bu boradagi eng muhim muammolardan biri keyingi yillarda ancha avj olgan yuridik shaxslar tomonidan notarius orqali realizatsiya qilingan turar joy ob’ektlarini sotish jarayonida soliq bazasining yashirish holati hisoblanadi. Buning isboti sifatida yuqoridaq 3.1-jadval ma’lumotlaridan ham ko‘rish mumkin. Birgina 2023-yilda respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan va aholiga uy-joy qurish maqsadlarida tayyor uylarni jismoniy shaxslarga notarius orqali realizatsiya qilingan turar joy ob’ektlari doirasida bozor narxidan past sotish natijasida kamaytirilgan soliq bazasi 7872682,9 mln.so‘m bo‘lib, 2125624,4 mln.so‘mlik qo‘srimcha soliqlar yashirilgan, buning oqibatida esa, davlat budgetiga kelib tushadigan summa miqdori shunchaga kamaygan.

Masalan, 2021-yilda “Akay city” turar joy majmuasida elektron platformalar orqali kvartiralarning 1kv.m uchun eng kam narxi 7 mln.so‘mdan taklif etilayotgan

⁶⁵ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosidamunalif tomonidan xisobланган.

bo‘lsada, notariusdan olingan ma’lumotlarga ko‘ra fuqaro X.O‘. shaxs ushbu turar joydagi kvartirani notarius orqali 1kv.m uchun 1 mln.so‘mdan sotib olganligi rasmiylashtirib berilgan, bu yerda har bir kv.m. uchun 6 mln.so‘mdan soliq bazasini yashirilgan va tegishli miqdorda soliq undirilmay qolgan.

Ushbu muammoning yechimi sifatida bizningcha, yuridik shaxslar tomonidan uy-joylar bo‘yicha investitsiya va oldi sotdi shartnomalarini faqatgina elektron shaklda tuzish va soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini joriy etish, bunda: sotib oluvchining naqd pul va pul ko‘chirish shaklidagi to‘lovi, hamda qurilish mollari ko‘rinishidagi kirimi bo‘yicha sotuvchining kirim hujjati mazkur shartnomaga biriktirilishi/integratsiya qilinishi shart qilib qo‘yish hamda notarius idoralari oldi-sotdi operatsiyalarni faqatgina elektron shartnomalar asosida rasmiylashtirishi hamda kirim qilingan pul va tovarlar qiymati yig‘indisi shartnoma qiymati hisoblanishi lozim. Ana shundagina fikrimizcha, soliq bazasini yashirmaslikka imkon tug‘iladi, xufyona iqtisodiyotning oldini olishda soliq instrumentlarining samarasini oshadi deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, fikrimizcha, qurilish korxonalari tomonidan aholi bilan tuziladigan ulushbay qurilishda ishtirok etish, investitsiya hissasini kiritish hamda uy-joy qurish va xarid qilish to‘g‘risidagi shartnomalarni soliq organlaridan ro‘yxatdan o‘tkazishning majburiy tartibini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa, yuridik shaxslar tomonidan rasmiylashtiriladigan uy-joy va ko‘chmas mulk ob’ektlarini realizatsiya qilish bilan bog‘liq hamda aholi bilan tuziladigan ulushbay qurilishda ishtirok etish yoki investitsiya hissasi to‘g‘risidagi shartnomalarni soliq organlarida joriy qilingan shartnomalarni ro‘yxatga olish axborot tizimida hisobga olish imkoniyatini yaratish, shartnomalar soliq organlaridan ro‘yxatdan o‘tkazilmagan taqdirda, uy-joyni oldi-sotdi yoki mulk egasini o‘zgartirilishi bilan bog‘liq shartnomalarni notarial tasdiqlashni rad etishga asos bo‘lishi yuzasidan qonunchilik hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zarur bo‘ladi.

Bu boradagi yana bir muammolardan biri bu soliq to‘lovchi tadbirkorlik sub’ektlariga xaridorlardan mobil ilova orqali to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha

qonunchilikda hech qanday norma (majburiyat) mavjud emasligi, bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizda xufyona iqtisodiyotning oshishining sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Fikrimizning ilmiy isboti sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. jumladan, Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda jismoniy shaxslarning bank kartalari orqali operatsiyalar hajmi 1 103,4 trln.so‘m (shundan, kartaga kelgan 553,6 trln.so‘m, kartadan amalga oshirilgan 549,8 trln.so‘m)ni tashkil etib, jami P2P orqali to‘lovlarni qiymati 582,3 trln. so‘m (yoki 52 foiz)ni tashkil etgan.

Bundan tashqari, 2023 yilning dekabr oyida P2P orqali to‘lovlarni qabul qilgan tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati sayyor soliq tekshiruvidan o‘tkazilganda 196 ta holatning barchasida P2P orqali to‘lovlarni qabul qilish holat aniqlangan. Xususan, “KEGEYLI PHONE STORE” MChJ savdo faoliyati uchun 542,5 mln.so‘m to‘lovlarni fuqaro G.N.K.ning plastik kartasiga qabul qilganligi natijasida 2023 yilning 10 oyligida budgetga jami 130,7 mln.so‘m (shundan, foyda – 72,6 mln.so‘m, QQS – 58,1 mln.so‘m) soliqlar undirilmassdan qolgan va xufyona iqtisodiyot vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Buning xalqaro amaliyotdagi o‘ziga xos tajriba mavjud ekanligi xususida avvalgi paragrafda bayon etgan edik, ya’ni Qozog‘iston, Kanada, AQSh davlatlarida bu borada soliq instrumentlaridan samarali foydalanib kelinayotganligini tahlil qilgan edik. Ushbu xalqaro tajribalar hamda muammomning real mazmunidan kelib chiqqan holda bu boradagi ilmiy takliflarimizni keltirib o‘tamiz.

Shu maqsadda:

tadbirkorlik sub’ektlari (YaTT va yuridik shaxslar)ga fuqarolardan to‘lovlarni mobil ilovalari orqali qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan “QR-displey” uskunalarini o‘rnatishning majburiy tartibini joriy etish hamda ulardan foydalanmaslik uchun jarimalar belgilash (mazkur uskunalar ONKMlarga integratsiya qilinadi va to‘lov amalga oshirilganidan so‘ng avtomatlashtirilgan holda elektron chek shakllanadi);

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 221-moddasida savdo va xizmat ko‘rsatishda majburiy o‘rnatilish kerak bo‘lgan uskunalar (Nazorat-kassa texnikasi,

hisob-kitob terminallari) jumlasiga “QR-displeyli ROS terminal” uskunasini qo’shish;

Soliq kodeksining 221 - moddasi 1-bandi redaksiyasini quyidagicha tahrirlash: “Nazorat-kassa texnikasi, hisob-kitob terminallari hamda QR-displeylarning qo’llanilishi majburiy bo’lgani holda, ularni qo’llamasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko’rsatganlik besh million so‘m miqdorida jarimaga solishga sabab bo’ladi”;

to’lovlarini P2P orqali qabul qilgan fuqarolarni deklaratsiya asosida soliqqa tortish mexanizmini joriy etish hamda tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan fuqarolarning plastik kartalariga to’lovlarini qabul qilganlik harakati uchun jazo choralarini belgilash;

jismoniy shaxslarning P2P orqali amalga oshirilgan aylanmalari bir yilda 1 mlrd.so‘mdan oshsa, ularni deklaratsiya asosida soliqqa tortish mexanizmini yo‘lga qo‘yish;

soliq to’lovchi - tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan to’lovlarini jismoniy shaxslarning plastik kartasiga qabul qilish holatlarini soliqdan bo‘yin tov lash sifatida malakalash hamda Soliq kodeksining 223-moddasiga o‘zgartirish kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Mazkur ilmiy-amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq instrumentlarining roli va ahamiyatini oshirgan bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Navbatdagi mavzu doirasida muammolardan biri sifatida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan soliqdan qochish maqsadida korxonada ishlovchi xodimlar sonini yashirish, (xodimlarni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazmaslik), shuningdek, soliq hisobotlarida xodimlarning oyligini minimal darajada aks ettirish, ayrim hollarda esa mehnatga haq to’lashning eng kam miqdoridan kam oylik ish haqi to’lash holatlari kuzatilmoqda. Tahlillarga ko‘ra, mamlakatda jami 19,5 mln.nafar mehnat resurslari mavjud bo‘lib, shundan ish bilan bandlar – 13,8 mln.nafar, ishsizlar – 1,3 mln.nafar hamda iqtisodiy faol bo‘lмаган fuqarolar – 4,3 mln.nafarni tashkil etgan. Joriy yilning 1 dekabr holatiga iqtisodiyot tarmoqlarida 5,3 mln.nafar (budgetdan tashqari) jismoniy shaxslarga 186,6 trln.so‘m ish haqi hisoblangan bo‘lib, budgetga jami

22,4 trln.so‘m miqdorida daromad solig‘i to‘langan. Birgina qurilish sohasida (bino,inshootlar) 2022-yilda 10 mldr.so‘mdan ortiq aylanmaga ega 1 075 ta korxonada hisoblangan o‘rtacha ish haqi miqdoridan (3,1mln.so‘m) keskin farq qilgan va ishchilar sonini 1-2 ta xodim tashkil etgan 825 ta holatda 13 mldr.so‘m qo‘srimcha JShODS hisoblash mumkinligi aniqlandi.

Mazkur muammoning yechimi sifatida norasmiy mehnat munosabatlarini qisqartirish imkoniyatiga ega bo‘lgan platforma ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu platformaning ishga tushirilishi fikrimizcha, respublikada, jami 4,3 mln.nafar iqtisodiy faol bo‘lman fuqarolarning kamida 50 foizi legallashtirilishi hisobiga (mehnatga haq to‘lashning eng kam me’yori bo‘yicha) budjetga qo‘srimcha 541,0 mldr.so‘m (shundan, daromad solig‘i – 270,9 mldr.so‘m, ijtimoiy soliq – 270,9 mldr.so‘m) soliq tushumi shakllantirilishini ta’minlaydi.

Mazkur platforma esa, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Soliq qo‘mitasi ma’lumotlar bazasida yaratilishi hamda aholining mehnat bilan band bo‘lgan, mehnatga layoqatsiz hamda mehnatga layoqatli ishsizlar to‘g‘risidagi avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bazasini (platforma) yaratish lozim bo‘ladi.

Navbatdagi amaliy muammolardan biri sifatida iste’mol va texnik etil spirti ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan spirt real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan kuzatish tizimi (GPS) bilan jihozlangan avtotransport vositalarida tashilayotganligi va ushbu korxonalarda o‘rnatilgan ularning aylanmasi hajmini hisobga oluvchi elektron hisoblagich ma’lumotlari alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligining axborot tizimiga integratsiya qilingan bo‘lsada, biroq, ushbu ma’lumotlardan davlat soliq xizmati organlariga integratsiya qilgan holda foydalanishi imkoniyatining mavjud emasligi oqibatida bu turdagи mahsulotlarning realizatsiyasi bo‘yicha soliqqa to‘liq tortilmay qolayotganligi muammosini keltirish mumkin.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-iyulda “Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning aylanmasini tartibga

solist sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6033-son Farmoni qabul qilingan.

Mazkur Farmonning 10-bandiga muvofiq iste’mol va texnik etil spirti 2021-yil 1 iyuldan boshlab real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan kuzatish tizimi (GPS) bilan jihozlangan hamda 2022-yil 1-yanvardan boshlab iste’mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning aylanmasi hajmini hisobga olish hamda uzumzorlarning yagona reestri axborot tizimiga integratsiya qilingan elektron hisoblagich o‘rnatilgan avtotransport vositalarida tashiladi deb belgilangan.

Shundan kelib chiqqan holda joriy qilingan real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan kuzatish tizimi (GPS) bilan jihozlangan hamda elektron hisoblagich o‘rnatilgan avtotransport vositalarida tashilayotgan spirt to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Elektron hukumat” tizimining idoralalararo integratsion platformasi vositasida taqdim etish Davlat soliq qo‘mitasining ma’lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq bo‘lib, bu orqali alkogol mahsulotlarni soliqqa tortishda soliq bazasini to‘g‘ri aniqlash imkonini beradi.

Tadbirkorlik sub’ektlarini ro‘yxatga olish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarning mavjudligi bugungi kunda xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq instrumentlaridan samarali foydalana olinmayotganligidan dalolat beradi. Tahlillarga ko‘ra, soliq qo‘mitasining rasmiy saytida e’lon qilingan (bu e’londa ro‘yxat tez tez o‘zgarib turadi) 2,9 mingta shubhali korxonalarning rahbar va ta’sischilarini tahlil qilinganda, shularning 991 tasiga 378 nafar jismoniy shaxs bir vaqtini o‘zida rahbar va ta’sischi (2-15 tagacha) bo‘lgan va bu esa, xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi muhim omil bo‘lib xizmat qilishi tabiiydir.

Shundan kelib chiqqan holda bizningcha, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Soliq qo‘mitasi bilan hamkorlikda, muqaddam iqtisodiy jinoyatlarga yo‘l qo‘ygan tashkilot ta’sischi va rahbarlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq organlarining ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilgan holda ushbu jismoniy shaxslarni yangidan tashkil etilayotgan sub’ektlarning ta’sischi yoki rahbari bo‘lishiga cheklov qo‘yish hamda Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Soliq

qo‘mitasi o‘zaro ma’lumotlar integratsiya qilishni ta’minlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu tartib soliqdan qochish maqsadlarida “bir kunlik firma”lar va bitta rahbarni tayinlash asosida o‘zaro til biriktirish natijasida soliq to‘lovlarini bo‘yin tov lash holatlarining oldini olishga imkoniyat tug‘diradi deb hisoblaymiz.

Xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqarishga sabablardan biri sifatida asossiz soliq imtiyozlari va ularning soliq to‘lovchilar tomonidan suiiste’mol qilinishi jarayonidir. Umumiy olib qaralganda, soliq imtiyozlari ma’lum bir soha, tarmoq, ishlab chiqarish yo‘nalishi yoki iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish hamda qaysidir tabaqani ijtimoiy himoya qilish asnosida qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘ladi, biroq, bu kabi imtiyozlarning berilganidan keyingi ma’lum bir davri oralig‘idagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu imtiyozlar samara bermayotgan yoki qandaydir jihatdan soliqdan qochish holatlarini rag‘batlantirishga xizmat qilib, iqtisodiyotda xufyonaga asoslangan faoliyatni rivojlanishiga omiliga aylanib qolmoqda.

Bunday soliq imtiyozlari sirasiga Soliq kodeksining 378-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxslar daromad solig‘i bo‘yicha soliq ob’ekti sifatida qaralmaydigan va soliqqa tortilmaydigan daromad sifatida belgilangan “soliq to‘lovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash (hayot sug‘urtasi sohasining barcha toifalarida) bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini to‘lash uchun O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasini bo‘lgan yuridik shaxslarga yo‘naltiriladigan qismi”⁶⁶ bo‘yicha berilgan soliq imtiyozlarini aynan shunday imtiyozlar qatoriga kiritish mumkin.

Fikrimizni ushbu keltirilgan 3.2-jadval ma’lumotlari ham tasdiqlaydi, ya’ni, ushbu imtiyoz tufayli aholining ayrim toifalari 2022-yilning o‘zida 1224 ta holatda soliq imtiyozidan foydalanilgan, ammo bu aholining o‘rtacha oylik maosh miqdori hisob-kitoblarga ko‘ra, 12-14 mln.so‘mni tashkil qilgan, boshqa tomondan iqtisodiy mantiqiy mushohada qilinadigan bo‘lsak, ijtimoiy muhtojga ega bo‘lmagan aholi bu kabi soliq imtiyozlaridan noo‘rin foydalanish oqibatida xufyona iqtisodiy

⁶⁶ Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексининг 378-моддаси.

munosabatlar yuzaga kelib qolgan. Shu boisdan ham bizning fikrimizcha, xufyona iqtisodiyotning oldini olish maqsadida bekor qilish maqsadga muvofiqdir⁶⁷.

3.2-jadval.

Hayot sug‘urtasiga jismoniy shaxslar tomonidan oylik maoshlarini o‘tkazib daromad solig‘idan olgan imtiyoz summalarini tahlili⁶⁸ (mln.so‘m)

Yillar	hayot sug‘urtasiga o‘tkazilgan mablag‘ uchun qo‘llanilgan imtiyoz		Bankga omonatga qo‘yilganda olinadigan daromad summasi	Sug‘urta korxonasi foydasi
	soni	summasi		
2020	972	27 148,4	102 456,9	46 231,0
2021	1012	48 113,7	117 611,3	53 459,7
2022	1224	64258,3	151412,5	69246,7

Soliq instrumentlari orqali xufyona iqtisodiyotni kamaytirishda soliq imtiyozlarining yana bir turi ya’ni, jismoniy shaxslarning xususiy mulk huquqi asosida o‘zlariga qarashli mol-mulkni sotishdan olgan daromadlari daromad solig‘idan ozod qilinishi bilan bog‘liq imtiyoz bo‘lib, tahlillarning ko‘rsatishicha, birgina, 2022-yilning o‘zida ushbu imtiyozni qo‘llash orqali soliqlardan qochish maqsadida 2,8 mingta bitim tuzilgan, natijada budget yo‘qotishlari 100 mlrd. so‘nni tashkil etgan va natijada bu kabi imtiyozlarni qo‘llash, bir tomonidan aholining o‘rtacha boy qatlamlarining yanada daromad olishiga imkoniyat yaratishi bilan bir qatorda uy-joy bozorida spekulativ kon'yunkturaning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda va xufyona iqtisodiyotning vujudga kelishi natijasida mol-mulkni ob’ektiv soliqqa tortilishiga to‘sinqlik qilmoqda.

Bundan tashqari, ushbu imtiyoz 36 oydan kam muddatga egalik qilgan qimmatli qog‘ozlar, ustav fondidagi aksiyalar (birliklar), noturar joy binolari, turar joylarni sotishdan olingan daromadlarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Amaliyotda bu imtiyozdan jismoniy shaxslar soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash maqsadida foydalanmoqdalar. Chunki, ushbu shaxslar tijorat operatsiyalarini amalga

⁶⁷ Ushbu taklifimiz 2023-yilgi soliq siyosatining Konsepsiyasiga qabul qilinib, 378-moddaning 15-bandni chiqarib tashlandi.

⁶⁸ Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosidamunajlifning xisob-kitoblari.

oshiradilar, masalan, avtomobilarni realizatsiya qilish yoki qurish yuzasidan investitsiya shartnomalaridagi hissasi bo‘yicha daromad solig‘ini to‘lamaydilar.

Bulardan kelib chiqqan holda xususiy mulk huquqi asosida jismoniy shaxslarga qarashli mol-mulkni yuridik shaxslarga sotishdan olingan daromadlari bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan imtiyozni bekor qilish maqsadga muvofiqdir.

Ta’kidlash kerakki, xufyona iqtisodiyot darajasi tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ulushlarni qurilish sohasi egallaydi. Avvalgi bobda keltirilganidek, BMTning taraqqiyot Dasturi doirasidagi tadqiqotlarda ham buni isboti sifatida dalillar berilgan, o‘z navbatida bu tarmoqda soliq to‘lashdan bo‘yin tovslash holatlari ham ko‘p uchrab turibdi. Tashqi manba (notarius) ma’lumotlariga ko‘ra, 3359 ta qurilish korxonalari tomonidan 2023-yilda qiymati 4 876,9 mlrd.so‘mlik turar joy ob’ektlari jismoniy shaxslarga sotilgan bo‘lib, shundan 2 157 ta korxona tomonidan, 8 215 ta xaridorlarga mulk qiymati 2164,1 mlrd.sumlik EXFlar rasmiylashtirilmaganligi sababli 231,8 mlrd.so‘m soliqlar to‘lanmagan.

Misol uchun, Navoiy viloyati qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi "Jozibali Qurilish Montaj" MChJ tomonidan 2023-yil davomida 721 nafar fuqaroga qiymati 265,2 mlrd.so‘mlik ko‘p qavatli turarjoy binolari notarial idoralar orqali rasmiylashtirib berilgan. Ushbu korxona tomonidan realizatsiya qilingan turarjoy binolari uchun qiymati 206,8 mlrd.so‘mlik soliq bazasi hisobotlarda aks ettirilganligi natijasida 58,4 mlrd.so‘m soliq bazasi uchun 6,2 mlrd.so‘m soliqlar hisoblanmasdan qolgan. 2023-yilda 1 970 ta korxonalar tomonidan 60 mingta ob’ektlarni notarius orqali narxini kamaytirib ko‘rsatgan holda sotilgan. Shundan, 2 677 ta ob’ekt (256,2 ming kv.m) 1 kvadrat metr uchun 1 mln.so‘mgacha, 10 086 ta ob’ekt (727,9 ming kv.m) 1-3 mln.so‘mgacha, 15 773 ta ob’ekt (1 048,6 ming kv.m) 3-5 mln.so‘mgacha, 15 096 ta ob’ekt (938,5 ming kv.m) 5-6 mln.so‘mgacha narxlarda sotilgan.

Bozor narxidan past sotish natijasida 7872,6 mlrd.so‘m kamaytirilgan soliq bazasidan jami 2 125,6 mlrd.so‘m qo‘sishimcha soliqlar hisoblanmasdan qoldirilgan. Jumladan, “Comfort Hause BM” MChJ tomonidan 2023-yilda 1 kvadrat metr uchun 1 mln.so‘mgacha narxda 37 ta (3 766,8 kv.m), 1-3 mln.so‘mgacha 61 ta (7 004,9

kv.m), 3-5 mln.so‘mgacha 66 ta (6 005 kv.m) ob’ektlar notarius orqali past narxlarda sotilgan. Shaffof qurilish platformasi orqali 2023-yil davomida 2 015 ta korxonalar tomonidan qiymati 11 902,1 mlrd.so‘mlik qurilish montaj ishlari yakunlangan bo‘lib, shundan 188 ta qurilish korxonalari 310,7 mlrd.so‘mlik soliq bazasi soliq hisobotlarida aks ettirmagan. Natijada 33,3 mlrd.so‘m QQS hisoblanmasdan qolgan. O‘z navbatida Jizzax viloyatida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi “Mukammal Qurilish Savdo” MChJ tomonidan 2023-yilda qiymati 108,9 mlrd.so‘mlik 2 ta qurilish ob’ekti yakunlangan bo‘lib, ushbu korxona tomonidan 2023-yil soliq hisobotlarida 79,8 mlrd.so‘mlik ish bajarilganligi ko‘rsatilgan holda 29,1 mlrd.so‘m soliq bazasidan 3,1 mlrd.so‘m soliqlar hisoblanmasdan qoldirilgan.

Qayd etilgan muammolar bilan bir qatorda bu tarmoqda xufyona iqtisodiyotni keltirib chiqarishga sabab bo‘layotgan muammolardan biri sifatida pudratchilar tomonidan subpudratchilar ishlatgan qurilish materiallari va jihozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aks ettirish tartibini joriy etish va pudratchi quruvchilar tomonidan ishlatilgan qurilish materiallari va jihozlar to‘g‘risida elektron hisob-faktura asosida shakllangan ma’lumotlarni axborot tizimida mavjud emasligi, qurilish korxonalarida haqiqiy tannarxni va orqali soliq bazasini aniqlash imkoniyatining cheklanganligidir.

Ushbu muammoning yechimi sifatida qurilish jarayonida bosh pudratchilar tomonidan topshiriladigan elektron hisob-faktura (soliq hisoboti)da qurilish materiallari, jihozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qamrab oladigan hisobot shaklini elektron hisob-fakturaga ilova qilgan holda kiritish zarur deb hisoblaymiz, shuningdek, tarmoqda ishchilar soni hisobini yuritish tartibini ishlab chiqish hamda ayrim viloyatlarida qurilish jarayonlarini “Shaffof qurilish” axborot tizimi orqali aniqlangan xavflar asosida o‘rganib chiqish maqsadga muvofiqidir. Shuningdek, milliy axborot tizimida pudratchilar tomonidan subpudratchilar ishlatgan qurilish materiallari va jihozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aks ettirish tartibini joriy etish kerak, pudratchi quruvchilar tomonidan ishlatilgan qurilish materiallari va jihozlar to‘g‘risida elektron hisob-faktura asosida shakllangan ma’lumotlarni axborot

tizimida har bir ob'ekt kesimida alohida-alohida aks ettirib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqot ishimiz ob'ekti doirasidagi yana bir ilmiy-amaliy muammolardan biri bu norasmiy ishlayotgan fuqarolarni legallashtirish orqali xufyona iqtisodiyotning oldini olish bilan bog'liq masaladir.

Tahlillarga ko'ra, qurilish va uy joy communal sohasida faoliyat ko'rsatayotgan 32736 ta korxonada 2022-yil boshida 312,8 mingta ishchi xodimlar ishlagan bo'lsa, 1 mart holatiga kelib 280,5 mingtani tashkil etgan yoki joriy yilning o'tgan davrida ishlovchilar soni 32,3 mingtaga kamaygan. Tahlil qilinganda qurilish va uy joy communal sohasidagi 2,4 mingta korxonaga 16 mingga yaqin ish o'rirlari yaratilgan bo'lsa, 4,3 mingta korxonada esa 48,3 mingta ish o'rirlari qisqargan deb hisobotlar taqdim etilgan.

Shuningdek, bugungi kunda hisob-kitoblarga ko'ra, respublikamizda norasmiy 450 mingdan ortiq fuqarolar norasmiy faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu boradagi muammo shundan iborat bo'lib, fikrimizcha norasmiy sohada ishlayotgan 450 ming nafar fuqaroni bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularning ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda, yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda jamoatchilik rolini oshirish lozim, fuqaro, xodim va ish beruvchilarning mehnat sohasidagi murojaatlarini tezkor ko'rib chiqish mexanizmlarini joriy qilish faoliyatini eksperiment tariqasida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy xulosa qilib aytganda, xufyona iqtisodiyot real va ochiq iqtisodiyoti bilan birga yuradi. Insoniyatga egoistik xususiyatlar mavjud bo'lar ekan, xufyona iqtisodiyotning kurtaklari qandaydir bo'lsada, iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy jihatdan ta'sir qilib turadi. Buning oldini olish va hajmini qisqartirishda boshqa omillar singari soliq instrumentlari orqali samarali foydalanish ilmiy-amaliy jihatdan o'z mohiyatiga egadir.

3-bob bo‘yicha xulosa

Xufyona iqtisodiyotni qisqartirish, uning oldini olish jarayonlarini baholashda dunyo mamlakatlarida ko‘plab usullardan foydalilanadi. Ushbu modellarning aksariyatida modelning soliq tizimiga bag‘ishlangan qismi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Dunyo amaliyotida xufyona iqtisodiyotning ko‘lamini baholashning bilvosita makrometodlar orasida eng ko‘p aniqlanadigan pul usullari, global ko‘rsatkichlar usullari, shuningdek, balans yondashuvining turli xil modifikatsiyalari va divergensiya usuli qatorida statistik-ekonometrik usullar (modellar)dan ham keng qo‘llanilib kelinadi. soliq tizimi orqali yashirin iqtisodiyotni o‘lchashga yondashuvlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita usullar. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yondashuvlar odatda so‘rov ma’lumotlari kabi mikro darajadagi ma’lumotlarga asoslanadi va ular yashirin iqtisodiyotning tuzilishi haqida bat afsil ma’lumot berishi mumkin bo‘lgan afzalliklarga ega. Biroq, so‘rovlari, agar ular haqiqiy yashirin iqtisodiyotni aks ettirmasa yoki respondentlar to‘g‘ri javob bermasa, yashirin iqtisodiyot hajmini kam baholaydi. Bundan tashqari, ular resursni ko‘paytirishi mumkin, ayniqsa mamlakatlararo yoki vaqtinchalik tadqiqotlarda, resurslar yoki imkoniyatlar cheklangan sharoitlarda ularni kamroq jozibador qiladi.

Soliq instrumentlaridan xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va uning yuzaga kelishini kamaytirishda tahlil qilingan xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish yuzasidan shunday bir xulosaga kelindiki, ularning milliy iqtisodiyotimizga mosligi jihatidan olganda Ozarbayjon davlatining tajribasi nisbatan ancha samaraliroq degan xulosaga kelindi.

Tadqiqot ishi doirasida xufyona iqtisodiyotni qisqartirish va uning oldini olish bilan bog‘liq bir qator muammolar aniqlandi va ularning yechimlari hamda mavjud holatni yanada yaxshilash yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ular jumlasiga, yuridik shaxslar tomonidan notarius orqali realizatsiya qilingan turar joy ob‘ektlarini sotish jarayonida soliq bazasining yashirish holati mavjudligi, soliq to‘lovchi tadbirkorlik sub‘ektlariga xaridorlardan mobil ilova orqali to‘lovlar ni qabul qilish bo‘yicha qonunchilikda hech qanday norma (majburiyat) mavjud emasligi, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar tomonidan soliqdan qochish maqsadida

korxonada ishlovchi xodimlar sonini yashirish, (xodimlarni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazmaslik), shuningdek, soliq hisobotlarida xodimlarning oyligini minimal darajada aks ettirish, ayrim hollarda esa mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam oylik ish haqi to‘lash holatlarining mavjudligi, iste’mol va texnik etil spirti ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan spirt real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan kuzatish tizimining davlat soliq xizmati organlariga integratsiya qilgan holda foydalanishi imkoniyatining mavjud emasligi oqibatida bu turdagи mahsulotlarning realizatsiyasi bo‘yicha soliqqa to‘liq tortilmay qolayotganligi, asossiz soliq imtiyozlari va ularning soliq to‘lovchilar tomonidan suiiste’mol qilinishining uchrab turishi, pudratchilar tomonidan subpudratchilar ishlatgan qurilish materiallari va jihozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aks ettirish tartibini joriy etish va pudratchi quruvchilar tomonidan ishlatilgan qurilish materiallari va jihozlar to‘g‘risida elektron hisob-faktura asosida shakllangan ma’lumotlarni axborot tizimida mavjud emasligi kabilarni keltirish mumkinki, mazkur bobda ushbu muammolarning yechimlariga qaratilgan ilgari surilgan ilmiy tavsiyalarimiz xufyona iqtisodiyotning darajasini qisqartirish va uning oldini olishda katta ilmiy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

XULOSA

Dissertatsion ilmiy tadqiqot ishimiz doirasidagi amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, bir qator ilmiy xulosalar shakllantirildi va ilmiy asoslangan ayrim ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, yigirmanchi asrning o‘ttizinchi yillari atrofida bunday jarayonlarni norasmiy iqtisodiyot, xufyona iqtisodiyot, norasmiy faoliyat, noqonuniy faoliyat, yashirin iqtisodiyot, “oq yoqalilar”, “ko‘k yoqalilar” iqtisodiyoti, avvalgidek, poraxo‘rlik, nepatizmga asoslangan iqtisodiyot, mansab soxtakorligi, korruptionerlik va shu kabi yangi kategoriylar bilan atala boshlandi. Bularga oid ilmiy tadqiqotlar ham kuchayib bordi. Zamonaviy shaklda bu jarayonlarni umumiy tarzda xufyona yoki yashirin iqtisodiyot deb nomlanish kengroq iste’mol etila boshlandi.

2. Xufyona iqtisodiyotning yuzaga kelishi davlat ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida yuzaga kelishi va jamiyatga o‘ziga xos turli majburiy normalar (qonunlar va davlat rahbarining mutloq vakolati doirasidagi farmonlari) asosidagi talablari joriy qilinishidan boshlaboq yuzaga kelgan, biroq, bu jarayonni iqtisodiy-ijtimoiy va huquqiy jarayon sifatidagi o‘rniga baho berilmagan xolos. Yashirin iqtisodiyot ko‘pincha soliqlarning yuqoriligi, byurokratiya, rasmiy mehnat bozorlarining mavjud emasligi yoki qoidalar juda qattiq bo‘lganida yuzaga keladi. Bu hukumat uchun soliq tushumlarining yo‘qolishi, daromadlar tengsizligining kuchayishi va ishchilar huquqlarining himoyalanmaganligi kabi turli xil ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

3. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash ko‘pincha soliq siyosatini isloh qilish, byurokratiyani qisqartirish va qonuniy iqtisodiy faoliyat uchun sharoitlarni yaxshilashni o‘z ichiga oladi. Yashirin iqtisodiyot davlat uchun soliq tushumlarining yo‘qolishi, ishchilarining tengsizligi va ekspluatatsiyasi, qonunga bo‘ysunmaslik va korrupsiya kabi bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuningdek, u qonuniy korxonalar uchun raqobatni keltirib chiqarishi va iqtisodiy rivojlanishga to‘sqinlik qiladi. Shu jihatdan olganda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash qonunbuzarlarga nisbatan qoidalar va jazo choralarini kuchaytirish, soliq tizimini takomillashtirish,

rasmiy bandlikni rag‘batlantirish va tadbirkorlar uchun byurokratik to‘sqliarni kamaytirishni o‘z ichiga oladi.

4. Tadqiqot ishi doirasida ilmiy tahlillarga asoslanib, xufyona iqtisodiyot hamda uning hajmini qisqartirishda soliq instrumentlaridan samarali foydalanishga oid ilmiy kategoriyalarning ilmiy ta’rifi shakllantirildi. Mualliflik yondoshuvga ko‘ra, *xufyona iqtisodiyot bu* - iqtisodiyotning rasmiy va qonunchilik doirasidan tashqarida faoliyat yuritadigan, moliyaviy-soliq instrumentlari orqali davlat tomonidan tartibga solinishi barqaror bo‘lmagan, iqtisodiy-huquqiy va ijtimoiy-sotsial faoliyat bo‘lsa, xufyona iqtisodiyotning hajmini qisqartirish va uning oldini olishda soliq instrumentlaridan samarali foydalanish deganda soliq tizimida qo‘llaniladigan soliq elementlari va ko‘rsatkichlarini oqilona qo‘llash orqali milliy iqtisodiyotda yuzaga kelishi kutilayotgan xufyonalikka asoslangan iqtisodiyotga qarshi qo‘llanilgan tizimning iqtisodiy samarasi tushuniladi.

5. Hayot sug‘urtasiga jismoniy shaxslar tomonidan oylik maoshlarini o‘tkazib daromad solig‘idan imtiyozlarni bekor qilish ijtimoiy muhtojga ega bo‘lmagan aholi bu kabi soliq imtiyozlaridan noo‘rin foydalanish oqibatida xufyona iqtisodiy munosabatlar yuzaga kelishining oldini olishga, soliqqa tortishningadolatli prinsipining amal qilishi ta’minlanadi.

6. Tadqiqotching fikriga ko‘ra, xususiy mulk huquqi asosida jismoniy shaxslarga qarashli mol-mulkni yuridik shaxslarga sotishdan olingan daromadlari bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan imtiyozni bekor qilish bu imtiyozdan jismoniy shaxslar soliq to‘lashdan bo‘yin tovslash maqsadida foydalanishning oldini olishga xizmat qiladi.

7. Bugungi kunda qurilish jarayonida bosh pudratchilar tomonidan topshiriladigan elektron hisob- faktura (soliq hisoboti)da qurilish materiallari, jihozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qamrab oladigan hisobot shaklini elektron hisob-fakturaga ilova qilgan holda kiritish, tarmoqda ishchilar soni hisobini yuritish tartibini ishlab chiqish hamda ayrim viloyatlarida qurilish jarayonlarini “Shaffof qurilish” axborot tizimi orqali aniqlangan xavflar asosida o‘rganib chiqish asosida soliqqa tortish mexanizmini qo‘llash qurilish tarmog‘idagi soliqdan qochish

shaklidagi xufyona iqtisodiyotni qisqartirishga va uning oldini olishga keng imkoniyat yaratadi.

8. Tadqiqotchining ilmiy yondoshuviga ko‘ra, norasmiy ishlayotgan fuqarolarni legallashtirish orqali xufyona iqtisodiyotning oldini olish bilan bog‘liq muammoning yechimi sifatida yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda jamoatchilik rolini oshirish lozim, fuqaro, xodim va ish beruvchilarning mehnat sohasidagi murojaatlarini tezkor ko‘rib chiqish mexanizmlarini joriy qilish faoliyatini eksperiment tariqasida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

9. Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Soliq qo‘mitasi bilan hamkorlikda, muqaddam iqtisodiy jinoyatlarga yo‘l qo‘ygan tashkilot ta’sischi va rahbarlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq organlarining ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilgan holda ushbu jismoniy shaxslarni yangidan tashkil etilayotgan sub’ektlarning ta’sischi yoki rahbari bo‘lishiga cheklov qo‘yish hamda Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Soliq qo‘mitasi o‘zaro ma’lumotlar integratsiya qilishni ta’minalash moliya-soliq instrumentlar orqali xufyona iqtisodiyotning ma’lum darajada jilovlanishini ta’minalaydi.

10. Muallifning fikriga ko‘ra, joriy qilingan real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan kuzatish tizimi (GPS) bilan jihozlangan hamda elektron hisoblagich o‘rnatilgan avtotransport vositalarida tashilayotgan spirt to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsion platformasi vositasida taqdim etish Davlat soliq qo‘mitasining ma’lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq bo‘lib, bu orqali alkogol mahsulotlarni soliqqa tortishda soliq bazasini to‘g‘ri aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
- 1.3. O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 2013-yil 26-dekabrdagi O‘RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
- 1.4. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “Soliq va budget siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-812-son Qonuni.
- 1.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni.
- 1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son farmoni.
- 1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budgeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-73-son qarori.
- 1.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-iyuldaggi PF-6029-sonli “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun aholi, tadbirkorlik sub’ektlari, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
- 1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydaggi PF-5996-sonli “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
- 1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-apreldagi PF-5986-son “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni
- 1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-son “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
- 1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagii PF-5969-son “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
- 1.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-sonli “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagagi PF-5116-sonli “Soliq ma’muriyatçiligin tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.06.2023-yildagi PF-90-son ”Ma’muriy islohotlar doirasida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni,

1.16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagagi PQ-4389-sonli “Soliq ma’muriyatçiligin takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

1.17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi PQ-4086-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budgeti parametrlari hamda 2020–2021 yillarga budget mo‘ljallari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 31-maydagagi PQ-3756-sonli “Imtiyozlar va preferensiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 декабрдаги ПҚ-3454-сонли “Ўзбекистон Республикасининг 2018 йилги асосий макроиқтисодий қўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги Қарори.

1.20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 24 декабрдаги ПҚ-1449-сонли “Ўзбекистон Республикасининг 2011 йилги асосий макроиқтисодий қўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги Қарори.

1.21. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 23.05.2018 йилдаги ПФ-5446-сон “Бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлигини тубдан ошириш ва иқтисодий жиноятларга қарши курашиш механизmlарини такомillаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” Фармони.

1.22. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 23 июлда “Алкоголь ва тамаки маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва уларнинг айланмасини тартибга солиш соҳасида бошқарув тизимини такомillаштириш тўғрисида”ги ПФ-6033-сон Фармони

1.23. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 7 январдаги 1-сон «Солик хавfinи бошқариш, солик хавfi мавжуд солик тўловчilarни (солик агентларини) аниқлаш ва солик текшируvларини ташкил этиш ва ўtkazish тўғрисида»ги Қарори.

1.24. Ўзбекистон Республикаси Давлат солик қўmitаси тўғрисидаги Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 17 апрелдаги 320-сон Қарори билан тасдиқланган.

1.25. Кўчmas мулк обьектlariiga бўлган хукуklarни давлат rўyhatidan ўtkazish tarbiyi тўғрисидаги Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирlар Maҳkamasinинг 2018 йил 29 декабрдаги 1060-сонli Қarori bilan tasdiqlanGAN.

1.26. Ўзбекистон Республикасининг “2021 йил учун Ўзбекистон

Республикаси Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонуни лойиҳаси ва 2021 йил учун Бюджетнома бўйича Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатасининг Хуносаси.

1.27. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 21 апрелдаги ПҚ-5087-сон “Тадбиркорликни кўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш, ишбилармонлик муҳитини янада яхшилаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” қарори.

1.28. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 24.08.2021 йилдаги ПҚ-5231-сон “Кўшилган қиймат солиғи маъмуриятчилигини такомиллаштириш тўғрисида” қарори.

1.29. “Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети ва давлат мақсадли жамғармалари бюджетларининг 2020 йилдаги ижроси тўғрисида”ги ҳисобот бўйича Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатасининг Хуносаси.

1.30. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 22.08.2022 йилдаги 471-сон “Кўшилган қиймат солиғи маъмуриятчилигини такомиллаштириш тўғрисида” қарори.

1.31. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 14.08.2020 йилдаги 489-сон “Кўшилган қиймат солиғи ҳамда чет эл юридик шахслари билан боғлиқ солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори.

2. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

2.1. Almy, R.A. Survey of property tax systems in Europe / R. Almy // Report prepared for Department of taxes and customs, The Ministry of Finance, Republic of Slovenia, 2001. – 122 p.

2.2. Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: неоинституциональный подход. – М.: РТТУ,2000. – С.147-148,

2.3. Spencer H. Principles of sociology. Hamden, 1969.,

2.4. Schutz A., Luckman T. The Structures of the Life,World. Evanston, 1973.,

2.5. Johnson, S., Kaufmann, D., Shleifer, A., Goldman, M.I. & Weitzman, M.L. (1997). The unofficial economy in transition. Brookings papers on economic activity 1997(2).,

2.6. Kottke K. «Gryaznye» den'gi – chto ehto takoe? Spravochnik po nalogovomu zakonodatel'stvu v oblasti «gryaznyh» deneg. М., 1998,

2.7. Голованов Е.Б. Теневая экономика. Конспект лекции.-Челябинск, 2015.-С.20-29;

2.8. Наумов Ю.Г., Латов Ю.В. Экономическая безопасность и теневая экономика. Учебник. М.: Академия управления МВД России, 2016. – С.58-67;

2.9. Овсянникова И.П. Теневая экономика:учеб. пособие/И.П.Овсянникова; ФГБОУ ВО РГУПС.-Ростов н/Д, 2015.-С.80-97,

2.10. Н.В.Черемисина. Методологические аспекты определения теневой экономики. Экономика и управление . n 1 (27) 2007. с. 30.,

2.11. Анищенко Евгений Владимирович. Денежное обращение и его влияние на теневую экономику в Российской федерации. Специальности:

08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит; 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (экономическая безопасность) автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2008. стр. 31.,

2.12. Яковлева Наталья Александровна. Финансовые методы противодействия теневому сектору экономики. 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Москва 2005. с. 14.,

2.13. Ечмаков Сергей Михайлович. Генезис теневых экономических отношений: анализ и моделирование. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Тамбов. 2005 с. 64.,

2.14. Изжеурова Екатерина Александровна. Институциональные проблемы развития теневой экономики. Специальность 08 00 01 - Экономическая теория. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Самара 2007, с. 9.,

2.15. Изжеурова Екатерина Александровна. Институциональные проблемы развития теневой экономики. Специальность 08 00 01 - Экономическая теория. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Самара 2007, с. 19.,

2.16. Овчаров Андрей Сергеевич. Коррупция в системе теневых экономических отношений Специальность 08.00.01 - экономическая теория. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Волгоград 2003, с.24.,

2.17. Заводиленко Константин Анатольевич. Ликвидация теневой экономики как направление обеспечения экономической безопасности России. Специальность 08.00.05 - экономика и управление народным хозяйством (экономическая безопасность). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва 2009. с 22.,

2.18. Смеганин Андрей Юрьевич. Механизмы государственного противодействия теневой экономике экономическая безопасность России. Специальность 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (экономическая безопасность). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2007. с 21.,

2.19. Жаров Сергей Львович. Методология анализа и оценки теневого сектора в экономике переходного периода Специальность 08.00.01 - Экономическая теория. Афтореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Петрозаводск, 2005. с 27.,

2.20. Нуштаев Иван Васильевич. Организационно-экономический инструментарий противодействия теневой экономике и коррупции. Специальность 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (12. Экономическая безопасность). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Тамбов – 2012. с.22.

2.21. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019.-485-490-бетлар.,

2.22. Б.Турдиев. “Яширин иқтисодиёт”ни қисқартириш ва унга қарши самарали курашиш йўллари. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı. № 3, may-iyun, 2020 yil.,

2.23. Абдурахмонов Иброҳимжон Отажонович. Хуфиёна иқтисодиётнинг юзага келиш сабаблари ва унга таъсир этувчи омиллар. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı. № 6, noyabr-dekabr, 2019 yil.,

2.24. К.Мамбетжанов. Теоретические основы методов измерения и функционирования теневой экономики. “Иқтисодиёт ва инноватсион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2017 йил.,

2.25. Муминов Н.Г. Яширин иқтисодиётнинг моҳияти, сабаблари ва оқибатлари: назарий ёндашув. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2016, 8-сон.,

2.26. Мақсуд Қурбонбоев. Олий Мажлис Қонунчилик палатасидаги Ўзбекистон “Адолат” СДП фракция аъзоси, Бюджет ва иқтисодий ислоҳотлар қўмитаси раиси ўринбосари, <https://kun.uz/25358892>,.

2.27. Эргашев Рустам Ражабович. Солиқ сиёсатининг норасмий иқтисодиёт кўламини қисқартиришга қаратилган механизмларини такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертатсияси автореферати. Тошкент шаҳри – 2022 йил. 30 б.,

2.28. Абдуғаниев Учкун Ҳабибулла ўғли. Яширин иқтисодиёт даражасини фискал сиёsat инструментлари ёрдамида пасайтириш йўллари 08.00.07 - Молия, пул муомаласи ва кредит Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори диссертатсияси автореферати Тошкент – 2023. 59 б.,

2.29. Ахмедов Феруз Баходирович. Солиқ тўлашдан қочиш хавфларини аниқлашда замонавий фискал назорати механизмларини такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертатсияси автореферати. Тошкент шаҳри – 2023 йил. 68 б.

2.30. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019.-485-490-бетлар.

2.31. Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: неоинституциональный подход. – М.: РТТУ,2000. – С.147-148;

2.32. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт.Ўқув қўлланма. - Т.: “Ноширлик ёғдуси”, 2019.-488-489-бетлар;

2.33. Голованов Е.Б.Теневая экономика. Конспект лекции.-Челябинск, 2015.-С.20-29;

2.34. Наумов Ю.Г., Латов Ю.В. Экономическая безопасность и теневая экономика. Учебник. М.: Академия управления МВД России, 2016. – С.58-67;

2.35. Овсянникова И.П. Теневая экономика:учеб. пособие/И.П.Овсянникова; ФГБОУ ВО РГУПС.-Ростов н/Д, 2015.-С.80-97 ва шу кабилар.

2.36. Е.Б. Голованов. Теневая экономика Конспект лекций. Челябинск 2015. С.4.

2.37. Н.В.Черемисина. Методологические аспекты определения теневой экономики. Экономика и управление . n 1 (27) 2007. с. 30.

2.38. Абулқосимов Ҳ.П. Яширин иқтисодиётнинг моҳияти, сабаблари ва оқибатлари, унга қарши кураш йўллари. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2020, 2(134).

2.39. Б.Турдиев. “Яширин иқтисодиёт”ни қисқартириш ва унга қарши самарали курашиш йўллари. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı. № 3, may-iyun, 2020 yil.

2.40. Анищенко Евгений Владимирович. Денежное обращение и его влияние на теневую экономику в Российской федерации. Специальности: 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит; 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (экономическая безопасность) автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2008. стр. 31.

2.41. Яковleva Наталья Александровна. Финансовые методы противодействия теневому сектору экономики. 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Москва 2005. с. 14

2.42. Ечмаков Сергей Михайлович. Генезис теневых экономических отношений: анализ и моделирование. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Тамбов. 2005 с. 64.

2.43. Смеганин Андрей Юрьевич. Механизмы государственного противодействия теневой экономике экономическая безопасность России. Специальность 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (экономическая безопасность). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2007. с 11.

2.44. Жаров Сергей Львович. Методология анализа и оценки теневого сектора в экономике переходного периода Специальность 08.00.01 - Экономическая теория. Афтореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Петрозаводск, 2005. с 7.

2.45. Нуштаев Иван Васильевич. Организационно-экономический инструментарий противодействия теневой экономике и коррупции. Специальность 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (12. Экономическая безопасность). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Тамбов – 2012. с.8.

2.46. Бирлашган миллатлар ташкилоти тараққиёт Дастири (БМТД) ташаббуси билан Ўзбекистонда олиб борилган тадқиқот натижалари асосида тузилган.

2.47. Вачугов И.В. — Уклонение от уплаты налогов, как составляющая теневой экономики: рост или сокращение? // Налоги и налогообложение. – 2019. – № 6.

2.48. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. М., 1991., Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. М., 1997.

2.49. Маковецкий С.А., Зарецкая Е.А. Уклонение от уплаты налогов: особенности преступления и наказания. Вестник института экономических исследований 2017, № 3(7).

2.50. Нудель С.Л.. Вопросы квалификации уголовно-наказуемого уклонения от уплаты налогов и (или) сборов. Научные ведомости № 2(33), 2007.

2.51. Павлова, В.А. Концепция кадастровой оценки земель как основа налогообложения недвижимости // Имущественные отношения в РФ. 2012. – №7.

2.52. Пансков В.Г. Налогообложение природных ресурсов: проблемы и пути решения. Журнал Экономика и бизнес, 2018, ст. 91-104

2.53. Пансков, В.Г. Принцип справедливости и его отражение при налогообложении физических лиц в российской налоговой системе / В.Г. Пансков // Этап: экономическая теория, анализ, практика. 2016. – №3. 58–72 с.

2.54. Альмардонов, М. Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга солиқ тизимининг таъсири: Монография. – Т.: ТМИ, 2003. – 233 б.

2.55. Азимов С.С. Камерал солиқ текширувани ташкил этишда ташқи манба маълумотларидан самарали фойдаланиш. PhD диссертатсияси автореферати. 2022.

2.56. Вахобов А., А.Жўраев. Соликлар ва солиққа тортиш: Дарслик. – Т.: “Шарқ” нашриёти – 2009.

2.57. Ашуррова Н.Б. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. И.ф.д. диссертатсияси. – Т., 2018. - 247 б.

2.58. Нормурзаев У.Х. Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Дисс. автореферати. – Т., 2022. – 20. Б`

3. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

3.1. Ўзбекистон Республикаси Давлат Солик қўмитасининг ахборотномаси.

3.2. <http://www.my.soliq.uz> сайти -(Давлат солқи қўмитаси сайти)

3.3. [http://www.mf.uz-](http://www.mf.uz) (Молия вазирлиги сайти)

3.4. [http://www.stat.uz-](http://www.stat.uz)(Давлат статистика қўмитаси сайти)

3.5. <https://www.sciencedirect.com>

3.6. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/10/cement/>.

3.7. <http://www.doingbusiness.org> – (Doingbusiness – бизнес юритиш лойиҳаси).

3.8. <https://www.indexmundi.com> – (IndexMundi – бир нечта манбалардан тузилган батафсил мамлакат статистикаси, диаграммалар ва хариталарни ўз ичига олган сайт).

3.9. <https://taxfoundation.org> – (Солиқ фонди – Вашингтондаги таҳлил маркази).

3.10. <https://www.nalog.gov.ru> – (Россия Федератсіясининг Федерал солиқ хизмати).

3.11. <https://davreestr.uz> – (Кўчмас мулк объектларига бўлган хукуқларнинг давлат реестри).

3.12. <https://kadastr.uz> – (Ўзбекистон Республикаси Давлат Солик қўмитаси ҳузуридаги кадастр агентлиги сайти).

3.13. <http://www.gov.uz> – (Ўзбекистон Республикаси ҳукумати расмий сайти).

3.14. <http://www.lex.uz> – (Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси).